

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Qo‘lyozma huquqida
UDK

UTABAEVA SVETLANA

**«CHO‘LPON VA FITRAT IJODI MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK
ADABIYOTSHUNOSLIGI TALQINIDA»**

5A111201 - O‘zbek tili va adabiyoti

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:
.f.d., prof., K.Quramboyev

NUKUS – 2013

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Fakultet: Magistratura bo‘limi *Magistrant:* S.Utabaeva

Kafedra: O‘zbek adabiyoti. *Ilmiy rahbar:* f.f.d., prof., K.Quramboyev

O‘QUV YILI: 2012-2013

Magistrlik dissertatsiya mavzusi:

**«CHO‘LPON VA FITRAT IJODI MUSTAQILLIK DAVRI O‘ZBEK
ADABIYOTSHUNOSLIGI TALQINIDA»**

MUALLIF ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi. Mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy sohada bo‘layotgan o‘zgarishlar badiiy adabiyotda ham, adabiyotshunoslikda ham aks etmasligi mumkin emas edi. Jumladan, Cho‘lpon, Fitrat, A.Qodiriy va yana o‘nlab qatag‘on qurbonlari bo‘lgan shoir va yozuvchilar ijodini yangi mezonlar asosida o‘rganish eng dolzarb vazifalardan biri bo‘lib turdi. Bu mavzuni yoritish uchun yetarli darajada material bor edi. Ularni ilmiy umumlashtirish o‘zbek adabiyotshunosligining eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini nazarda tutib ushbu mavzuni magistrlik dissertatsiyamizga mavzu qilib tanladik.

Tadqiqot predmeti va obyekti. Tadqiqotimizning bosh obyekti va predmeti qilib Cho‘lpon va Fitrat ijodi, ular asarlari haqida o‘zbek adabiyotshunosligida yaratilgan ilmiy tanqidiy maqolalar tanlab olindi. Asosan, cho‘lponshunos va fitratshunos olimlarning maqolalari diqqat markazimizda bo‘ldi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mustaqillik yillarida Cho‘lpon va Fitrat ijodini o‘rgangan olimlarning maqolalarini, ular ijodiga berilgan baholarning sho‘rolar davridagi baholardan farqini aniqlash. Shu asosda har ikki ijodkorning milliy o‘ziga xosligini belgilashdan iboratdir.

Tadqiqot uslubiyati va usullari. Mavzuning xarakteridan kelib chiqib, Cho‘lpon va Fitrat ijodi haqida mustaqillik yillarida yozilgan ilmiy-tanqidiy maqolalar, sho‘rolar davri tanqidchiligi bilan qiyosiy o‘rganildi. Har ikki davrdagi Cho‘lpon va Fitrat ijodiga berilgan baholarda xolislik va noxolislikni aniqlashga harakat qildik.

Tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan yangilik darajasi. Dissertatsiyada ilk marta Cho‘lpon va Fitrat ijodi solishtirmali turda tahlil qilindi. Har ikki ijodkorga sho‘rolar davridagi baholar bilan mustaqillik yillarida berilgan baholar ilk marotaba solishtirib o‘rganildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati va tadbiqu. Tadqiqotimizning xulosalaridan o‘zbek adabiy tanqidchiligi tarixi

o'rganilganda, umumta'lim maktablari, kollej va litseylarda Cho'lpon va Fitrat ijodi o'rganishda qo'shimcha ma'lumot sifatida foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi va tarkibi: Magistrlik dissertatsiyasi kirish va xulosa qismlaridan tashqari uch bobdan iborat. Shuningdek, ishning oxirida sahifani tashkil etadi.

Bajarilgan ishning asosiy natijalari. Magistrlik dissertatsiyasidagi tahlillardan shunday natijaga keldikki, Cho'lpon va Fitrat ijodi sho'rolar davrida qadrlanmadi, ta'qib qilindi, oxir-oqibat qatog'onga uchrab hayotlari fojia bilan yakun topdi. Mustaqillik davriga kelib har ikki ijodkor haqidagi haqiqat tantana qildi, ular adabiyotga qaytdi. Bunda o'zbek tanqidchiligi va adabiyotshunosligining xizmati alohida bo'ldi.

Xulosa va takliflarning qisqacha umumlashtirilgan ifodasi. Cho'lpon va Fitrat XX asr o'zbek adabiyotining yirik namoyandalari, betakror so'z ustalari. Afsuski, sho'rolar davri adabiy tanqidchiligi bu ikki ijodkorning talant ini yetarli darajada qadrlamadi, asarlarini ta'qib qilishda davom etdi. Chinakam milliy g'oyalar ruhida ijod qilgan bu adiblar faqat mustaqillik tufayligina adabiyotdagi qadrini tikladi. U ijodkorlarni har tomonlama o'rganish, asarlari haqida ilmiy tadqiqotlar yaratish, kitoblar yozish, dissertatsiyalar hmioya qilish faqat istiqlol tufayli amalga oshirila boshlandi. Shunday ekan bu bektoror so'z ustalari haqida ilmiy izlanishlarni yanada davom ettirish, rivojlantirish bugungi adabiyotshunoslik va tanqidchilikning eng muhim masalalaridan bo'lib kelmoqda. O'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi kelajakda bundanda ko'proq ilmiy ishlar yaratish, ular ijodini yanada ommalashtirish lozimligini bugungi kun ko'rsatib turibdi.

Ilmiyrahbar:

f.f.d., prof. K.Quramboyev.

Magistrant:

S.Utebayeva

Ministry of public Education the Republic of Uzbekistan. Nukus state pedagogical institute named after Ajiniyaz.

Faculty: The department of magistracy Master: S.Utabaeva
Department: Uzbek literature Scientific supervisor: prof; K. Kurambayev

Academic year: 2012-2013
“The sermon of Chulpan and Fitrat’s creating in independence year”
Authors’ annotation

The actuality of the work. It is effectively the changes to the creative literature and literary studies on social – economical branch in independence years. For example, It was very important to learn the creative works of the writers and poets who was the victim such as Chulpan, Firat, A.Kodiriy and many others. In a new methods. There were enough materials to describe this theme. We meant that to scientific generalize them is a most important matter of Uzbek literary studies and we chose this topic for masters dissertation.

Subject and object of the research. As the main object and subject of our research. It was chosen Chulpan’s and Fitrat’s creative works and about their traces, scientific and critical articles which is created in Uzbek literary studies. Mainly we paid great attention to the articles of the scientists who learned Chulpan’s and Fitrat’s literature.

Aims and obligation of the research. To determine difference between the mark given for the creative works with the soviets period of articles the scientists who learned Chulpan’s and Fitrat’s creative works. Besides that it consists the national differences between both creators.

Methods and styles of the research. According to the character of the theme, scientific – critic articles which was written about Chulpan’s and Fitrat’s creative works in comparatively independence years. Was comparatively learned with soviets period criticism.

We tried to know the fair and unfair marks which is given for the creative works of Chulpan and Fitrat in both periods.

The results and novelty of the research. This work was comparatively analyzed the first time Chulpan's and Fitrat's creative work in the dissertation. It was comparatively learned the marks which was given in soviet's period and independent years for this both creators.

Practical importance and research of the results of the obligation. According to the results of our research when the history of Uzbek literary criticism is learned Chulpan's and Fitrat's creative works may be used to learn as a additional information for secondary schools, colleges and lyceums.

Structure and composition of research. The Master's dissertation has 3 parts besides content and summery. Also it has a page at the end of the work.

Main results of the completed work. To the sum of analyses of the Master's dissertation, Chulpan's and Fitrat's creative works weren't respected in soviet's period. Persuaded, at the end they were assassinated and they were killed. In Independent Year the truth about both creators was supported and they return back to our literature. Uzbek criticism and literary scholar played the main role on it.

Generalized expression of the summery and offer of research. Chulpan and Fitrat were the great creator in XX century. Unfortunately the soviet's literary criticism didn't respect the talent of these creators. To learn the creators, to make scientific researches about their work, to write books, to read thesis began in independent years. So, it is the most important problems to continue about these creators scientific researches and develop in today's literary scholar and criticism. Uzbek literary scholar and criticism shows to make more scientific works and to widespread their creative works in future.

Scientific supervisor:

prof: K.Kuramboyev

Master:

S.Utebayeva

M U N D A R I J A

Kirish.....	3
I bob. O'tgan asrning 20-30 yillarida Cho'lpon va Fitrat ijodining o'rganilishi.....	8
II bob. Cho'lpon ijodi mustaqillik yillarida o'zbek tanqidchiligida.....	23
III bob. O'zbek adabiyotshunosligida Fitrat ijodining o'rganilishiga doir.....	57
Xulosa.....	70
Foydalanilgan adabiyotlar.....	73

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va dolzarbligi. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy sohalarga jiddiy o'zgarishlarga qo'l urildi. Shular qatoriga sho'rolar davri adabiyotiga ham munosabat tubdan o'zgardi. Ayniqsa, sho'rolar davriga qatag'on qilingan ijodkorlar faoliyatini qayta baholash, ularning o'zbek adabiyoti taraqqiyoti yo'lidagi ishlarini qayta tiklash ishlariga katta e'tibor berildi. Jumladan qatag'on yillarining qurboni bo'lgan Cho'lpon va Fitrat ijodini xalqimizga bor bo'yicha qaytarish ishlariga kirishildi. Tanqidchilik bu masalaga alohida diqqat qaratib turkum maqolalar, hatto kitoblar chop ettirishga kirishti. O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, U.Normatov, N.Karimov, U.Boltaboev, B.Nazarov, K.Yuldoshev, B.Karimov va yana o'nlab o'zbek adabiyotshunos va tanqidchilarining dolzarb maqolalarining bosilib chiqqani, salmoqli kitoblarining chop etilgani fikrimizga dalil bo'lishi mumkin. Bu jarayonni o'rganish, Cho'lpon va Fitrat ijodining o'zbek tanqidchiligida dolzarb masalalaridan biri bo'lib qoldi. Magistrlik dissertatsiyamiz aynan mana shu mavzuni o'rganishga bag'ishlangan.

Istiqlol yillarida ijtimoiy-iqtisodiy sohada bo'layotgan o'zgarishlar badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikda aks etmasligi mumkin emas edi. Mustaqillik yillarining dastlabki kunlaridan boshlab sho'rolar davri adabiyotini qayta o'rganish, jumladan qatag'onga uchragan shoirlar va yozuvchilar bo'yicha adolatsizliklarni bartaraf etish masalalari kun tartibiga qo'yilgan. Cho'lpon, Fitrat, A.Qodiriy va yana o'nlab shoirlar va yozuvchilar ijodini milliy mustaqillik va milliy mafkura manfaatlari nuqtai nazaridan qayta o'rganishga kirishdi. Natijada ularning asarlari qayta nashr qilindi, yangi qarashlar asosida ilmiy maqolalar paydo bo'la boshladi, kitoblar chop etildi. Bu jarayonni o'rganish uchun yetarlicha material to'plangan. Endi bu

materiallarni yangicha qarashlar asosida o'rganish, umumlashtirish o'zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalaridan biri bo'lib turibdi. Bizning magistrlik dissertatsiyamiz ham aynan mana shu dolzarb masalani o'rganishga bag'ishlangan.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tadqiqotimizning bosh obyekti qatag'on qurbonlari bo'lgan Cho'lpon va Fitrat ijodi, ular haqida sho'rolar davrida hamda mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirishdan iborat. Hozirga qadar o'zbek adabiyotshunosligida Cho'lpon va Fitrat ijodi bilan izchil shug'ullangan yetuk adabiyotshunos olimlar, tanqidchilar O.Sharafiddinov, U.Normatov, X.Boltabaev, B.Karimov kabi allomalarning ilmiy ishlari, kitoblari ham taxlil predmeti bo'ldi. O'zbek adabiyotshunosligida mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy, ilmiy-tashkiliy maqolalar turkumini ham nazardan o'tkazdik va ularga tayandik.

Magistrlik dissertatsiyamizning obyekti asosan Cho'lpon va Fitrat ijodi, ular me'rosi to'g'risida sho'rolar davriga va mustaqillik yillariga yozilgan ilmiy-tanqidiy maqolalar va kitoblar. Ishning predmeti esa har ikki ijodkor haqida o'zbek adabiyotshunosligida chop etilgan maqolalar, kitoblar ularga ilgari surilgan kontseptsialarga munosabat. Fitrat va Cho'lponning ilmiy me'rosi she'riy to'plamlari, «Kecha va kunduz» romani ham tahlil davomida nazarimizda bo'ldi.

Dissertatsiya ishining maqsad va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyamizdan ko'zlangan asosiy maqsad mustaqillik yillarida Cho'lpon va Fitrat ijodining o'rganilishi masalalariga bir nazar tashlab bu yo'nalishdagi muvaffaqiyatlarni umumlashtirishdan iborat. Sho'rolar davrida bu ikki ijodkorga qilingan adolatsiz tanqidlarga bir sidra munosabat bildirib o'tishdan iborat. Cho'lpon va Fitrat ijodini, ularning bugungi badiiy ijodi davom etayotgan kabi masalalarni ham o'rganish masalasi o'zbek

adabiyotshunosligining kun tartibida turgan vazifalardan biri ekanligini ham qayd etib o'tishni muhim vazifalardan biri deb hisoblaylik.

Cho'lpon va Fitrat ijodi bo'yicha bosilgan ilmiy-tanqidiy maqolalarini bir sidra nazardan o'tkazib bu yo'nalishdagi olimlarining qo'lga kiritgan yutuqlarini umumlashtirishdan iborat:

Bu masala qo'yidagilarga asosiy e'tibor qaratildi:

- Cho'lpon va Fitrat ijodining sho'rolar davrida o'rganilishi haqida qisman ma'lumot berish;
- Cho'lpon va Fitrat ijodining mustaqillik yillari adabiyotshunoslikda o'rganilishi;
- Cho'lpon va Fitratning mustaqillik g'oyalari ruhidagi asarlariga sho'ro davridagi va istiqlol yillaridagi munosabatini qiyosiy taxlil qilish;
- O.Sharafiddinov, N.Karimov, X.Boltaboev, B.Karimov kabi adabiyotshunoslarning Fitratshunoslik va Cho'lponshunoslikka qo'shgan hissasi haqida ilmiy asosda munosabat bildirish.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar tahlili. Dissertatsiyamiz mavzusi bo'yicha ko'p adabiyotlarni ko'rib chiqdik. Sho'rolar davrida Cho'lpon va Fitrat ijodi bo'yicha maqolalar yozgan S.Xusayn, O.Sharafiddinov, V.Maxmud, M.Solixov kabi tanqidchilarning mustaqillik yillarida bu ikki ijodkor haqida maxsus tadqiqotlar olib borgan O.Sharafiddinov, X.Boltaboev, U.Normatov, N.Karimov va boshqa olimlarning ishlarida Cho'lpon va Fitrat ijodiga munosabatdagi o'ziga xos talqinlarni nazardan o'tkazdik. Olimlarimizning bu sohada erishgan muvaffaqiyatlarini ta'kidlash bilan birga o'z qarashlarimizni bayon etishga harakat qildik.

Tadqiqot uslubi. Har qanday adabiyotshunoslik asarida qiyosiy tahlil uslubi yaxshi samara beradi. Shuni nazarda tutib biz magistrlik dissertatsiyamizga Cho'lpon va Fitrat ijodi haqida yozilgan ilmiy-tanqidiy maqolalarni solishtirib o'rganishga harakat qildik. Har bir olimning Cho'lpon

va Fitrat ijodini o'rganishdagi o'ziga xosligini, qo'shgan yangiligini shu asosida dalillashga harakat qildik.

Tadqiqotimizda asosan tahlil uslubidan foydalanishga harakat qildik. Birinchidan, har ikki ijodkorga sho'rolar davridagi munosabat solishtirilib aytili. Ikkinchidan, bu ikki ijodkorning me'rosi ko'p o'rinlarda bir-biri bilan qiyoslanib o'rganilgan.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyamizning nazariy ahamiyati shoir yoki yozuvchi ijodini o'rganishga ba'zi nazariy masalalar o'rtaga chiqadi, shular to'g'risida muayyan darajada fikr bildiriladi. Shu ma'noda ishimizning ba'zi jihatlari, qatag'on davri adabiyotini o'rganishdagi ayrim nazariy qarashlar amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin. Tadqiqotimizning natijalari qatag'on davri adabiyotini o'rganishda yoki Cho'lpon va Fitratning adabiy portertini o'rganishda muayyan darajada amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Dissertatsiyaning ilmiy yangligi. Tadqiqotimizning asosiy yangiligi o'zbek adabiyotshunosligida ilk marotaba Cho'lpon va Fitrat ijodining o'rganilishi masalasi umumlashtirildi. Cho'lponshunos va Fitratshunos olimlarning ilmiy faoliyati imkon qadar to'liqroq ma'lumot berishga harakat qildik. Ularnig tajribalarini ilmiy asosda umumlashtirib fikr aytishga urindik. Kelajakda bu mavzuni davom ettirib ijodkorlar faoliyatining o'rganilmay kelayotgan jihatlari batafsilroq o'rganish zarurligiga mutaxassislar e'tiborini qaratishga harakat qildik.

Magistrlik dissertatsiyamizning amaliy ahamiyati shundan iboratki, undan umumta'lim maktablari, kollej yoki litseylarga Cho'lpon va Fitrat ijodini o'rganishga foydalanish mumkin deb hisoblaymiz. Shuning qatag'on davri adabiyoti o'rganilganda ham uning natijalaridan foydalanish mumkin, tanqid tarixini o'rganishda ham ishimizdagi ba'zi kontseptsiyalar amaliy ahamiyatiga ega bo'lishi mumkin.

Cho'lpon va Fitrat ijodining o'zbek adabiyotshunosligida o'rganilishi masalalari umumlashtirildi. Bu tadqiqotlar qanday yo'nalishda ketayotganligi, qaysi olimlarning tadqiqotlarida har ijodkorning mahorat qay darajada ochib berilganligi umumlashtirildi. Cho'lpon va Fitrat ijodini o'rganishga mustaqillik yillarida qaysi jihatlarga ko'proq e'tibor qaratilgani aytiladi.

Dissertatsiya tarkibi. Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosalar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi 76 sahifani tashkil etadi.

I bob. O'tgan asrning 20-30 yillarida Cho'lpon va Fitrat ijodining o'rganilishi

Mustaqillik ijtimoiy – siyosiy, adabiy – madaniy xayotimizda, umuman, jamiyatimizning barcha sohalariga yangilanish jarayonlarining vujudga kelishiga zamin hozirladi. Jamiyat va adabiy – madaniy hayotda juda katta o'zgarishlar yangilanishlar paydo bo'la boshladi. Sobiq sho'rolar tuzumining siyosati va hukmron mafkurasidan qutilish jarayonlari amalga oshirila boshlandi.

Mustaqillik davri unitilayozgan milliy qadriyatlarni tiklash, ularni xalqimiz ongiga singdirish, targ'ib qilish uchun keng imkoniyat yaratdi. O'zbek mumtoz adabiyotini bor bo'yicha o'rganish, taqiqlab qo'yilgan shoirlar, o'rganish to'xtatilgan asarlarni o'rganish, qayta nashr qilish imkoniyatlari vujudga keldi. Diniy qadriyatlarni xalqimiz ongiga singdirish, tasavvur ruxidagi asarlarni qayta tadqiq etish va targ'ib qilish uchun yaxshi vaziyat vujudga keldi. Sho'rolar davridagi diniy-mistik adabiyotning namunalari (masalan, Axmad Yassaviy) ni o'rganish taqiqlab qo'yilgan jarayonlarga yangi siyosat, yangi tuzum, uning yangi mafkurasi nuqtai nazaridan o'rganishga yo'l ochildi.¹

Mustaqillik davrining o'zbek adabiyotiga bergan yana bir ne'mati shundan iborat bo'ladiki, sho'rolar davrida qatag'on qilingan, asarlarini o'qish o'rganish man qilingan shoir va yozuvchilar ijodini xalqimizga qaytarib berish imkoniyati tug'ildi. Ulug' ijodi haqida keng ko'lamdagi tadqiqotlar yaratish, asarlarini chop etish, ular ijodi bilan xalqimizni kengroq doirada tanishtirish masalalari kun tartibiga qo'yilsa va bu sohada talaygina xayrli ishlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat kabi millat fidoiylarining ijodini o'rganishga keng yo'l ochildi.

1989-yilda sobiq hukumat tomonidan Cho'lpon va Fitrat ijodlarini o'rganish bo'yicha komissiya tuzildi. Komissiyaning asosiy vazifasi shundan iborat ediki,

¹ Sharqfiddinov Ozod. Cho'lponni anglash. — T.: «Yozuvchi», 1994, 46-bet. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. — T.: «O'qituvchi». 2004, 125-bet

sho'rolar davrida qatag'on qilingan Cho'lpon va Fitrat ijodi, shaxs sifatida o'zlarining qatag'on qilinishi qay darajada adolat bo'lgan yoki bu ish noxaqlik bilan amalga oshirilganmi? Shu masalalarni hukumat komissiyasi adolatli o'rganib har ikki ijodkor asarlarini o'rganish, ularni shaxs sifatida ham oqlash lozimligi haqida maxsus qaror qabul qilindi. Shundan keyin Cho'lpon va Fitrat asarlarini o'rganish, she'rlarini va romanlarini, umuman, ularni ng barcha ijod namunalarini xalqimizga qaytarib berish degan qarorga kelindi.

Ushbu qarordan keyin Cho'lponning she'riy kitoblarini, "Kecha va kunduz" romani, Fitratning barcha asarlari, dramalari chop etildi. Abdulla Qodiriy ijodi bo'yicha ham keng doirada tadqiqotlar olib borish, asarlarini qayta-qayta bosib chiqarishga sharoit tug'ildi. Bir so'z bilan aytganda, adolatsiz tuzumning adolatsiz qonunlari tufayli qatog'on qilingan shoir va yozuvchilar, xalqimiz, kitobxonlar qalbidan hech qachon o'chmagan, doimo sevimli yozuvchilari bo'lib kelgan Fitrat va Cho'lpon tom ma'noda xalqimizga qaytarib berildi. Sho'rolar tuzumining adolatsiz mafkurasini sekin tanqidga uchradi.

Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi bunday o'zgarishlardan keyin o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligida Cho'lpon va Fitrat ijodini har tomonlama chuqur, milliy mafkura manfaatlari ruxida qayta o'rganish, istiqlol kuychilarining o'zbek adabiyoti oldidagi ulug' xizmatlarini ko'rsatish, ularning shoirlik va yozuvchilik mahoratlarini ochib berish maqsadida bir guruh o'zbek olimlari belni maxkam bog'lab ishga kirishdilar.

Mustaqillik arafalarida bu ishga kirishgan olimlar safida Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Hamidulla Boltaboyev, Umarali Normatov, Baxtiyor Nazarov, Ibrohim Xaqqulov kabi olimlar borligi quvonarli faktidir. O. Sharafiddinov dastlabki olimlar qatorida Cho'lpon ijodi haqida salmoqli maqolalar bilan matbuotda chiqdi. Atoqli olimning Cho'lpon ijodi to'g'risidagi "Cho'lponni anglash baxti" degan nomidagi turkum maqolalari va maxsus kitobi o'zbek cho'lponshunosligining ilk poydevori bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

I.Xaqqulovning Cho'lponning "Baxorni sog'indim" she'riy to'plamiga yozgan so'zboshisi va boshqa bir qancha Cho'lpon she'riyati haqidagi maqolalari

ham o'sha davr cho'lponshunosligiga salmoqli hissa bo'lib qo'shildi. Bu an'ana boshqa olimlar tomonidan ham davom ettirib Cho'lpon ijodi to'g'risida ko'p maqolalar bosildi. K. Yo'ldoshev, U. Normatov, U. Xamdamov, N. Xudoyberganov, N. Jabborov va yana o'nlab adabiyotshunos olimlar, tanqidchilar Cho'lpon ijodini, uning "Kecha va kunduz" romanini har xil yo'nalishlarda tadqiq etishdi. I. Sulton, B. Axmedov, A. Qayumov kabi olimlarning ham Cho'lpon merosiga bag'ishlangan maqolalari jamoatchilikka ma'lum. O'zbek adabiyotida, u o'zbek adabiyotshunosligida adabiyotshunos olim Naim Karimovning shoir ijodini tahlil qilishdagi maqolalari, xususan, olimning "Cho'lpon" nomli ma'rifiy romani Cho'lpon ijodini o'zbek kitobxonlari, mutaxassislar o'rtasida targ'ib qilishning eng yaxshi namunasi bo'ldi.

Mustaqillik yillarida Fitrat ijodini o'rganishga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu davr adabiyotshunosligida ayniqsa Xamidulla Boltaboyevning Fitrat ijodini o'rganishdagi ilmiy xizmatlari alohida taxsinga loyiq. Olim mustaqillikning dastlabki yillaridayoq Fitrat ijodini o'rganishga kirishib turkum maqolalar e'lon qildi, Fitratning ijodkorlik mahorati to'g'risida doktorlik dissertatsiyasini ham himoya qildi. X. Boltaboyevning Fitrat ijodi haqidagi maqolalaridan tashqari uning "So'z qadri" nomli monografiyasi bosilib chiqdi. Kitobda olim Fitratning o'zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini o'rganishdagi faoliyati atroflicha yoritiladi. Fitratning o'zbek adabiyotshunosligiga qo'shgan xissaning uning "Adabiyot qoidolari" kitobi tahlili misolida tahlil qilib beriladi.¹

Mustaqillik yillarida A. Abdug'afurov, I. Haqqul, N. Xudoyberganov, B. Nazarov, U. Normatov, M. Qo'shjonov, N. Karimov, K. Yo'ldosh, X. Karimov va yana o'nlab adabiyotshunoslar borki, ular ham Fitrat ijodini turli yo'nalishlarda tahlil tadqiq qilinib fitrarshunoslikning rivojiga o'z xissalarini qo'shdilar. Bu tadqiqotlarning barchasi mustaqillik yillarida Fitrat ijodini o'rganishdagi salmoqli yutuqlar desak bo'ladi. Bu jarayon ayni kunlarda ham muvaffaqiyatli davom etyapti deb xulosa chiqarishga asoslar yetarli.

¹ Cho'lponning badiiy olami (to'plam). Tashkent, Fan, 1994

Adabiyotda shunday shoir, yozuvchilar bo'ladiki, ularning ijodini o'rganishni sanoqli tadqiqotlar, maqolalar yoki kitoblar bilan chegaralab bo'lmaydi. Ularning merosi, asarlari qanchalik ko'p o'rganilsa, ijodning sirlari, mahorati qirralari ochilib boraveradi. Bunday so'z san'atkorlarining asarlari hech qachon o'zining ahamiyatini yo'qotmaganidek, ular haqida tadqiqotlar olib borish ham hech qachon va hech bir davrda dolzarblik xususiyatini yo'qotmaydi, aksincha, eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib adabiyotshunoslikning kun tartibida turaveradi. Bizning fikrimizcha, Cho'lpon va Fitratning badiiy ijodi, merosi xuddi shunday, hech qachon eskirmaydigan, ilmiy-badiiy ahamiyatini yo'qotmaydigan o'lmas meros, manguликka dahldor ijoddir. Shunday ekan, bu ikki ulug' so'z san'atkorlari to'g'risida ilmiy tadqiqot olib boorish ham hech qachon dolzarblik xususiyatini yo'qotmaydi, hamisha dolzarb bo'lib adabiyotshunoslikning kun tartibida turaveradi.

Mavzuning mana shu dolzarbligini nazarda tutib biz magistrlik dissertatsiyamizga bu ikki yozuvchi ijodini, ularning merosining mustaqillik yillarida o'rganilishi masalalarini tahlil ob'ektiga tanladik va imkoniyatimiz doirasida tadqiq etishga urinib ko'ramiz.

Albatta, biz magistrlik dissertatsiyamizni yozishda mustaqillik yillarida Fitrat va Cho'lpon ijodini o'rganishda o'zbek adabiyotshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlar ilmiy tajribalarga tayanib ish yuritdik. Cho'lponshunos va Fitratshunos olimlarning har ikki ijodkor haqidagi ilmiy- tadqiqotlaridagi fikrlarga tayanib so'z yuritishga harakat qildik. Xususan, atoqli olim Ozod Sharafiddinovning Cho'lpon ijodi to'g'risidagi tadqiqotlari, kitoblari, fitratshunos olim X. Boltaboyevning Fitrat ijodi to'g'risidagi turkum maqolalari, kitoblari ham bizga metodik manba bo'lib xizmat qildi.

Magistrlik dissertatsiyamizning qurilishi shundayki, biz o'tgan asrning 20-30 yillarida Cho'lpon va Fitrat ijodini o'rganishdagi baxsli masalalarini chetlab o'tmaslikka qaror qildik. Bu davrlarda bu ikki ijodkor to'g'risida matbuotda berilgan maqolalarga umumiy nazar tashlashga harakat qildik. O'sha davrdagi

tanqidchilikdagi Cho‘lpon va Fitrat ijodi to‘g‘risidagi maqolalarni mustaqillik yillaridagi tadqiqotlarga solishtirib tahlil qilishga urindik.

Magistrlik dissertatsiyamizning so‘nggi ikki bobida Cho‘lpon va Fitrat ijodiga mustaqillik yillaridagi qarashlar, ilmiy- nazariy xulasalar to‘g‘risida o‘z nuqtai nazarlarimizni bildirishga urinamiz. Cho‘lpon va Fitrat ijodi shunday ijodki, ularning har bir katta- kichik asari bugungi ijod ahli shoir va yozuvchilar uchun mahorat maktabi, ularning ijod sirlari har bir qalamkash uchun o‘qish, o‘rganish, tajriba olish maktabi bo‘la oladi. Shunday ekan bunday salohiyatga ega ijodkorlarning asarlarini qiyosiy yo‘nalishda o‘rganish, ularning yozuvchilik, shoirlik tajribasini ommalashtirish ham adabiyotshunoslikning dolzarb, o‘rganilishi zarur muammolardan biri sanaladi. Demak, bu ikki o‘lmas ijodkorlarning asarlarining bugungi o‘zbek adabiyoti taraqqiyotidagi mavqeini aniqlash masalalari ham o‘zbek adabiyotshunosligining ochilmagan ko‘riklaridan biri bo‘lib turibdi.¹

Cho‘lpon va Fitrat ijodini o‘rganish, ularning badiiy mahoratini ochishdagi olimlarimizning ilmiy xulosalarini umumlashtirish masalalari ushbu magistrlik dissertatsiyamizning diqqat markazida bo‘lar ekan, biz yana bir nuqtai nazarimizni aytib o‘tishni ma’qul bilayapmiz. Bizning mazkur magistrlik dissertatsiyamiz Cho‘lpon va Fitrat ijodini adabiyotshunoslik yo‘nalishida o‘rganishning so‘nggisi bo‘lib qolmaydi, albatta. Bu mavzu talqini kelajakda ham davom etadi, “cho‘lponshunoslik” va “fitratshunoslik” bor ekan bu mavzuda hali adabiyotshunoslikda ko‘plab tadqiqotlar yaratiladi va har ikki adibning adabiyotimizning faxri va iftixoriga aylanishi sabablari yanada kengroq talqin etiladi, asarlarining ochilmagan qirralari, yoritilmagan sahifalari ochiladi, yoritiladi. Chunki, Cho‘lpondek, Fitratdek mangulikka dahldor ijodkorlarning badiiy faoliyati bunday e’tibor, e’tirof va bunday e’zozga to‘la munosibdir.²

¹ Cho‘lpon. “Yana oldim sozimni”. Tashkent, Literature and art, 1991.

² Karimov N. “Cho‘lpon”. Tashkent, Fan, 1991.

XX- asr tongida o'zbek adabiyoti osmonida Cho'lpon paydo bo'ldi. Tinimsiz sh'erlar yozdi. Shoirning rang- barang tizimlari vaqtli matbuot sahifalarini bezadi. Yangilikka tashna sh'er muhiblarining qalbi yangicha ohanglardan cheksiz zavqlandi. Milliy tuyg'ular mavj urgan misralarni o'qigan millatparvarlar bepayon so'z vodiysiga ulangan yangi bir irmoqning jo'shqini va shovqinidan mastona yurdilar. Shoirning sohir ovozi barcha ixlosmandlari qalbini o'ziga asir etdi. Cho'lponga ergashadiganlar, uning ko'yiga monand tebrandilar, ovoziga taqlidan qo'shiq aytadiganlar soni tobora ortaveradi. Ammo XX asr tongining bulutli osmonida Cho'lpon bitta edi. Bir soniyalik yarq etgan chaqmoqdan umidlanib cheksiz orzular ummoniga sho'ng'ib ketgan iste'dod egasi yagona edi. Oradan hech qancha vaqt o'tib -o'tmay u- "yerga botdi". Sekin –sekin jarlik tomon odimlayotgan butun boshli, o'tmishi nihoyatda buyuk bir millat fojeasini zimmasiga ortib olgandek g'amgin kuyladi. Haq va botil orasida turib dardini so'yladi. Ruhiyat iqlimlari ilohiy masdaridan uzilgan, jismidan hali asriy kishanlarning botiq izlari ketmagan bir sharoitda erkinlik istadi:

Kishan kiyma, bo'yin egma

Ki sen ham hur tug'ulg'onsen,

Deya hayqirdi shoir.

Oylar, yillar o'tdi. Vaqti kelib, Cho'lpon she'rlari mohoyati va kayfiyatidan, mafkurasi va yoshlarga ta'siri xususidan bahs yuritadigan adabiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy davrlar maydonga kela boshladi.

20-yillarda matbuot rivojiga aloqadorlikka aniqroq bo'y ko'rsata borgan zamonaviy o'zbek tanqidchiligi adabiy jarayonni baholashga intilar, ayniqsa, yangi o'zbek she'riyatiga alohida e'tibor berar edi.

"Turkiston" gazetasining 1923-yil 23 mart sonida shoirning "Uyg'onish" to'plami haqida ayni sarlavhali kichik bir xabar-taqriz e'lon qilingan. Maqola tahririyatning o'ziga tegishli bo'lsa kerakki, unga maxsus imzo qo'yilmagan. Bunda Cho'lpon chuqur tekshirilmaydi, biroq shoirning "pissimizmi" "achinarliq xususiyat" ekanligi alohida ko'rsatiladi:

"Nechun ochildi ko'zim, qayga ketdi uyqularim,

Bu uygʻonishda toʻlib toshdi-oshdi qaygʻularim...

Mana bu oʻkinish, koyish, umuman bir umidsizlik (pessimizm) bizning soʻnggi davr adabiyotimizning koʻzga koʻrinarlik va haqiqatan achinarliq xususiyatidir”. Shoirga qoʻyilgan bu tashxis to qatliga qadar uni taʼqib etdi; turli yoʻsinda tez-tez takrorlanib turdi.

Aftidan, Z. Bashir shoirga kelajakda tavqi laʼnat oʻlaroq tamgʻalanuvchi sifatlarni oldindan sezgan koʻrinadi; shu sabab zimdan fikrlar jangiga kirishadi. Fikrimizcha, uning “Oʻzbek shoiri Choʻlpon sheʼrlari” (“Uygʻonish” majmuasining bosilishi munosabati bilan) nomli maqolasi shu sezgi mahsulidir. Munaqqid toʻplamni taqriz qilish bahonasida yuqorida keltirilgan imzosiz maqoladagi daʼvoni rad etishga intiladi.

Zarif Bashir dastlab Choʻlponning “chin shoir”ligini, sheʼrlarining tekis, nafis, hislik, ochiqqligini alohida taʼkidlaydi, umuman shoirning isteʼdodini, uslubi va tilini yuqori baholaydi. Soʻngra kayfiyat masalasiga oʻtadi: “Bu kungi yoshlarimizni tarbiya qilishda, ularni umidlik, tirikchilikka toʻgʻri va ochiq qararlik qilib tarbiyalashning lozim boʻlgʻonligʻi hammaga maʼlumdir. Yoshlarimizning yurak va hislarini tarbiyalashda sheʼr umid va imoni toʻgʻrisida ham yozish lozimdir. Choʻlpon oʻrtoqda zor va figʻon juda oz. Ul zor va figʻonlarini yozgʻonda ham ularni umidlik iboralar bilan tushuntirib ketadir”. Shunga muvofiq sheʼriy satrlar ham keltiradi. Takror aytamizki, bu iqtiboslar va umuman Z. Bashir maqolasida imzosiz maqolani (“Turkiston” gaz. 23 mart) “toʻgʻri yoʻnalish”ga burish istagi seziladi (“Turkiston” gaz. 4 may).

Maqola oxirida, keyinchalik juda katta adabiy-siyosiy bahslar mavzuga aylanib ketgan, Choʻlponning qaysi ijtimoiy toifaga mansubligidan ham soʻz ochib qoʻyadi: “...ul xalq shoiri emas, xalqqa yaqin ziyolilar shoiridir”, deydi. Shoirning ayrim kamchiliklarini ham aytadi. Ammo Berlinda tahsil olayotgan Ahmad Shukuriy “Uygʻonish”da nuqson koʻrmaydi, izlamaydi ham. Hayajonini yozadi. Shoirni, Shekspirni mutolaa etdim. Eng soʻng Shekspir Choʻlpondir yoxud Choʻlpon Shekspirdir fikriga keldim. Choʻlpon sheʼrlari Shekspir joʻshqinligi bilan toʻladir...”.

Ayni hayajonli va joshqin fikrlarga monand mulohazalar V. Mahmudning “Cho‘lponning “Buloqlari” (“Turkiston”gaz. 1923 yil., 10 dek) nomli taqriz-maqolasida ham kuzatiladi. Shoir bilan o‘zaro adabiy-ilmiy hamkorligi va shaxsiy do‘stona muloqotlari mavjud bo‘lgan munaqqid Cho‘lponning yangi to‘plami o‘zbek adabiyotiga yangi biro hang olib kirganligini, unda o‘zbek elining ruhi, sezgisi qaynashini, o‘zbek tilining imkoniyatlari namoyon bo‘lganligini alohida uqtiradi. “Cho‘lponning “Buloqlar” otlig‘ yangi she‘rlar to‘plami bosilib chiqdi. Cho‘lpon o‘zbekning yangi shoiridir, shuning uchun o‘zbek elining butun ruhi, holi, sezgisi “Buloqlar”da qaynaydir. O‘zbek tili, o‘zbek ohangi “Buloqlar”da sayraydir, o‘qiydir. O‘zbek ruhiy to‘lqunlari bunda ko‘piriladir, ko‘klar tomon uchadir, ko‘tariladir”.

Qizg‘in adabiy jarayonning o‘zida ko‘tarinki ruhda bitilgan maqola maxsus izohga muxtoj emas, albatta. Ammo unda “ko‘r vijdonlarga la‘natlar o‘qudim” yoki “O‘zbek yangi shoirlarining ohangsiz bo‘lishini uyalmayin so‘ylayturg‘on og‘izlarga “Buloqlar” tufuradir” singari ayrim ta‘birlar borki, ular adabiy tanqid etikasiga uncha mos kelmaydi. Buni tushunish mumkindir. Chunki 20-yillar adabiy tanqidi, umuman, matbuoti uchun bir oz chegaradan chiqish, bir oz birovning shaxsiyatiga tegish, fikrni gohida jinday qo‘polroq ifodalash hollari ko‘plab uchraydi va tabiiy xususiyatdek taassurot beradi.

Bu shoirning fikrlari quyuq, tig‘iz; o‘xshatish va istioralari, kinoyalari yangi ham o‘zichadir. So‘rog‘ va xitoblari va she‘riy sifatlari ham o‘tkir, keskin bo‘lib chiqadir”. Adabiyotchi shu tarzda shoir ijodiga mos muhim xususiyatlarni ta‘kidlab, misollar bilan bilan bayon etish barobarida o‘ziga ma‘qul kelmagan ayrim nuqtalarga ham urg‘u beradi. Ya‘ni talqinchi “bu shoir endi o‘zi to‘g‘risida salbiy yo ijobiy, qat‘iy ham ochiq fikrlar bayon etishka yetarli sarmoya beradir” degan ikki qirrali mulohazaning har ikki jihatiga to‘xtaladi. Maqtaydi ham. Tanqid ham qiladi, “ba‘zi bir salbiy yoqlar”, “oqsagan nuqtalarning” sakkiztasini raqamlar ostida bir-bir sanaydi. Albatta, maqoladagi ayrim mujmal ifodalar, bahsli o‘rinlarda muallif bilan tortishish mumkin, bemalol. Biroq muhimi shundaki, bu talqinlar she‘riyatning badiiyati va texnikasiga tegishli bo‘lib, ijodkor zimmasiga hech qanday siyosiy ko‘rsatma yoki marksistcha talablarni yuklamas edi. Adabiy-ilmiy muhitda bir nafaslik erkinlik bordek edi. A. Sa‘diy shoir dardini o‘zicha to‘g‘ri anglaydi va shunday yozadi: “Shoirning ilhomlanishida omil- muhitdir. Omildan totlik kelmagandan keyin chashma totlik bo‘lmasligi yana ma‘lum. Shuning uchun shoirni bu haqda ayblab bo‘lmaydi”.

Yuqorida aytib o'tilgandek, keyinchalik "Cho'lpon va cho'lponizm" bahslariga aralashgan A. Sa'diyning o'zi o'ziga qarshi chiqib, "Ayn" (Olim Sharafiddinov) va Usmonxon Eshonxo'jayevlarga o'xshab "ayblab bo'lmaydi"gan masalada shoirni tanqid etishga kirishib ketadi. Aniqrog'i, shunga majbur bo'ladi.

20-yillar oxirida Cho'lponning kimligini, ijodining mohiyatini va mafkurasining qandayligini aniqlash lozim bo'lib qoladi. "Ayn" vazifa markschileninchi adabiyotchi "Ayn"ning chekiga tushadi. 1927 yili 14 fevralda "Qizil O'zbekiston" gazetasida uning "O'zbek shoirlari. Cho'lpon" maqolasi bosilib chiqadi. Bu paytga kelib, davr qaltislik sari yuz tutgandi. Cho'lpon tipidagi shoirlarning millatparvarligi, vatanparvarligi, xayolga berilishini "millatchilik", "vatanparastlik", "badbinlik" va "jinnilarcha hovliqish" tarzida baholash davri kelib qolgan edi. Kun sayin mustahkamlanib borayotgan manfur "davlat mexanizmi" milliy kayfiyatdagi ziyolilarni majaqlab tashlashga chog'lanayotgan edi. San'at ham, adabiyot ham, ilm ham, xususan, adabiy tanqid ham "yagona davlat siyosati"ga dastyorlik ostonasiga kelib qolgandi. Bu "aziz vazifa"ning dastlabki mahsuli, albatta, "Ayn"ning Cho'lpon mafkurasi va yoshlarga ta'sirini tekshiruvchi maqolasi bo'ldi.¹ Hozirgi davr talbidan qaraganda, "Ayn"iqsa, e'zozlanayotgan hozirgi kunda maqoladan juda ko'p ko'chirmalar olib, "Ayn"ni ayovsiz do'pposlash mumkin. Iqtibosbop o'rinlar anchagina (Qolaversa, yov qochsa, botirlar ko'payib qoladi). Ammo yana bir mulohazani aytib o'tish kerak. Maqoladagi ayblovg'a tashnalik ohangini bir oz tahrir qilib o'qib ko'raylik. Shunda Cho'lponning she'riyatga xos ayrim xususiyatlar ilg'ab olingan bo'ladi: Cho'lpon fikrni ramziy yo'sinda beradi; Cho'lpon vatan ozodligini sevadi; Cho'lpon mustamlakachi ruslar siyosatini yoqtirmaydi; Cho'lpon milliy shoir, hech qachon proletariyat shoiri bo'lmagan va bo'la ham olmaydi va h. k.

"Ayn" siyosiy jihatdan havfsiz o'rinarda, ya'ni shoir tili haqida shunday yozadi: "Uning tili sodda, har turlik tuyg'ularni ifoda qilishga yararlik ham nuqsonsizdir. Bu kungi o'zbek adabiy tili, shubhasiz, Cho'lpon tilidir".

¹ Cho'lpon. "Yana oldim sozimni". Tashkent, Literature and art, 1991.

“Ayn”ning marksizmdan xabari bor. Boshqacharoq aytganda, inson ma’naviy- ruhiy dunyosini jamiyatning iqtisodiy omillariga yem qilgan marksizm balosi adabiy tanqid maydoniga ham qadam qo’ydi. Sinfiylik, shoirni toifalarga ajratish shu balo sharpaning talabi edi. “Ayn” bu jihatni ham chetlab o’tgan yo’q. Cho’lponning yo’qsillar shoiri emasligini isbotlab bergandek bo’ldi. Ishchi-dehqon, proletariat sinfiga mansub bo’lmagan ijodkor, tabiiyki, qalbiga yuksak orzu –umidlarni joylagan davr yoshlariga salbiy ta’sirini o’tkazishi mumkin. Har holda yangi davr tanqidchisining fikri shunday. Aks holda, “Ayn” maqolasi oxirida: “Cho’lpon asarlari bostirilar ekan, uni qattiq tahlil qilib, kuchli senzuran o’tkazib, muvofiqlarini bosish kerak”, degan qat’iy taklifni yozmagan bo’lar edi.

Cho’lpondagi mafkuraviy jihat masalasi Oybekning maqolasi bilan yakun topmaydi, aksincha, Usmonxon ismli munaqqidning jazavasiga sabab bo’ladi. Usmonxon “Munaqqidning munaqqidi” (“Qizil O‘zbekiston”gaz. 1927 yil, 22, 23, 27 iyun.) nomli kattagina maqolasida “Ayn”ning barcha qarashlarini yoqlab chiqadi. Oybekning Cho’lpon to’g’risidagi chin fikrlarining yanglish ekanini ko’rsatishga bel bog’laydi. Oybekning chalkashib ketganligini, oqibat ““ Ayn”ni tanqid qilaman deb keli-kelib, o’z mayliga qarshi, yana “Ayn”ning ostonasiga bosh” qo’yganligini ta’kidlaydi. Maqolada keskinlik, kurashchanlik, ayovsizlik kayfiyati hukmron. Cho’lponga nisbatan “mafkurasi reatsion”, “Cho’lponda sabotlik dunyoqarash yo’q”, “Cho’lpon o’zining shoirlik vazifasini to’g’ri tushunmaydi”, “Men shoirmi?” she’rini keltirib, “xuddi eski ko’knorining sahar vaqtidagi kayfiyatiga o’xshaydi”, “ul taraqqiyparvar rassom bo’lmasdan, tanazzulparvar xayolparastdir” singari ta’birlarni qo’llaydi. Xullas, muallif davrning siyosiy mafkurasini, mafkuraning adabiy siyosatini, “Ayn”dek adabiyotchining fikrlarini quvvatlay turib, Oybek fikrlarini nazarga ilmaydi; Cho’lponni ham mensimaydi. Alabatta, Oybek bunday munosabatlarga nisbatan jimib tura olmas edi.

“Munaqqidning “munaqqidi” maqolasining egasiga” sarlavhali maqolasi o’sha tinchsizlik orqasidan yuzaga keldi. Oybek ko’pgina masalalarda Usmonxon bilan kelisha bilmaydi, tortishadi. Ammo haq gap bo’lsa, ikkilanmay tan oladi.

Misol: “Har kimning yanglishishi mumkin. Ayniqsa, men kabi yosh. “Cho‘lponning mafkurasi emas, balki yaratgan badiiy namunalari o‘qutiladi, voz kechilmaydi”, deyishim zo‘r xato. Xaqiqatan, badiiy asarda shakl bilan mazmun ayri-ayri mohiyat tashkil qilmasdan, balki bir edinstvo tashkil qilar ekan, bu yo‘g‘rida Usmonxonning fikrlari bir haqiqatdir”.

To‘g‘risi, sinfiylik va meto‘d masalalarida yosh Oybek markist “Ayn” va Usmonxondan ko‘p ham uzoqlashib ketgan emas, Ammo Oybek badiiy adabiyot go‘zalligini his etish va mohiyatini teran anglash jihatidan ulardan anchagina farqlanadi. Oybekning yuqoridagi maqolalarida ham keying faoliyatida ham bu fazilat sezilib turadi.

30-yillardagi ijodiy muhit aha shunday dahshatli edi. Ammo muhit har qancha dahshatli bo‘lmasin, ayrim yozuvchilar uning qutqusiga uchib, e‘tiqodlariga xiyonat qilganlari, iymondan voz kechganlari yo‘q. Ular orasida Cho‘lpon ham bor edi. Albatta, “vaziyat Cho‘lponga sira ham ta’sir qilgani yo‘q” desak, uncha to‘g‘ri bo‘lmaydi. Cho‘lponning ayrim she‘rlarida zamonasozlik mayllari ko‘rinadi. Buning hayron qoladigan joyi yo‘q- zamon unga boqmagandan keyin, u zamonga boqishga majbur-da. Lekin Cho‘lponda bunday asarlar ko‘p emas. Umuman, eng tajjubli joyi shundaki, sharoit qanchalik og‘ir bo‘lmasin, Cholpon ijod qilishdan to‘xtagani yo‘q. 1937 yilda yozuvchilar uyushmasida o‘tgan bir yig‘inda so‘zlagan nutqida Cho‘lpon qilgan ishlarini sanab beradi: “Mening Moskvadan qaytganimga ikki yil bo‘ldi. Shu vaqt mobaynida Gorkiyning “Ona” romanini, “Yegor Bulichev” pesasini, Pushkinning “Dubrovskiy” va “Boris Godunov”ini, yana 25 ta she‘rini, Lohutiyning “Yevropa safari”ni tarjima qildim. Yana boshqa mayda ishlar ham bo‘ldi. Bulardan tashqari, 1935-1937 yillar mobaynida “Kecha va Kunduz” romani, “Soz” degan she‘rlar to‘plami bosilib chiqdi. “Jo‘r” degan she‘rlar to‘plami tayyorlanib, nashriyotga topshirildi”.

Endi o‘zingiz tasavvur qiling – butun mamlakat bo‘ylab, birinchi navbatda, ziyolilarning, yozuvchilarning sho‘rini quritayotgan qatag‘on bo‘roni quturib turgan, tuzukroq yozuvchilar birin-ketin o‘z-o‘zidan “g‘oyib” bo‘layotgan, matbuotda oq kaltak – qora kaltak kampaniyasi davom etayotgan, na durustroq

o'ylash, na o'tirib yozishning imkoni qolgan bo'lsa-yu, shunday sharoitda hamshunchalik ish qilingan bo'lsa?! Bunday odamni nima deb baholash kerak? Menimcha, bu faqat bir narsadan dalolat beradi- Cho'lpon nafaqat temir irodali odam bo'lgan, uning iste'dodi ham tevarak-atrofdagi bulutlar har qancha quyuqlashib, dahshatli tus olmasin, zulmatni yorib chiqib, Cho'lponni ijod qilishga majbur etgan. Bu Cho'lpon shaxsiyatining muhim qirrasidir.

Adabiyotshunoslik va tanqidchilik xolis bo'lsa, chinakam ilmiy asoslarga tayansa, hukmron mafkuraning malayi emas, haqiqatga xizmat qilishni muqaddas deb bilgan soha bo'lsa, Cho'lpon asarlarini tahlil qilish bilan birga, shaxsiyatidagi ana shu favqulotda jihatlarni ham o'rgangan bo'lardi. Afsuski, u paytdagi tanqidchilik bunga qodir emasdi. To'g'ri, tanqidchilik Cho'lponni sira-sira e'tiborsiz qoldirgani yo'q, lekin endigi e'tibor avvalgilaridan yanada dahshatliroq edi.

30-yillaridan boshlab Cho'lponni qoralovchi maqolalar oqimi yanada kuchaydi. Tabiiyki, ularda Cho'lponni anglashga intilishdan asar ham yo'q edi. Aksincha, ma'shum 37 yil yaqinlashgani sari bunday maqolalardan har qanday andisha va insoniylik yo'qoladi. Maqolalar go'yo muayyan tashkilotning buyrutmasi bilan yozilganday bir-biriga juda o'xshashardi. Ularda faktlardan ko'z yumilib, she'riy parchalar ag'dar-to'ntar qilinib, birorta dalil-isbot keltirmagan holda yana o'sha eski ayb- "Cho'lpon-millachi" degan ayb qayta-qayta takrorlanaverardi. Ahvol shu darajaga yetdiki, Cho'lponning e'lon qilinmagan kitoblari haqida ham taqrizlar bosila boshladi. Shunday taqrizlardan biri Tuyg'unning qalamiga mansub bo'lib, Cho'lponning hibsga olinishi arafasida, ya'ni 1937 yil 22 may kuni "Yosh leninchi" gazetasida bosilgan. Tuyg'un 20-yillarning oxirlarida adabiyotga kirib kelgan. 30-yillar boshida 4-5 ta she'riy kitoblar e'lon qilingan, keyinchalik dramalar ham yozib ko'rgan o'rtamiyona ijodkor edi. Ammo, qalam bilan adabiyotdan tuzukroq o'rin egallay olmagach, o'zini sodiq fuqaro qilib ko'rsatish yo'li bilan obro' orttirmoqchi bo'ldi. Bu yo'lda u qalamkash do'stlari ustidan oshkora chaquvlar yozishga borib yetdi, chunki yuqoridagi maqolani maqola deb emas, balki organlar qulog'iga aytilgan chaquv

desak to'g'riroq bo'ladi. Bu taqriz Cho'lponning nashriyotga topshirilgan, lekin dunyo yuzini ko'rmay qolib ketgan va shu ko'yi yo'qolgan "Jo'r" degan she'riy to'plami haqida. Tuyg'un, aftidan, buni avval ichki taqriz sifatida yozgan-u, keyin hech qanday andishaga bormay matbuotda e'lon qilgan. Maqoladagi tahlil yo'li juda jo'n- muallif biron she'riy parchani ko'chiradi-da, undan ba'zi iboralarni yulib olib, shular asosida o'zicha "chuqur" xulosalar chiqaradi. Masalan, shoirning "Kuzak" degan she'ridan quyidagi parcha olingan:

Mevalar shoxlardan tappa-tap tushdi,

Soniq chehra bilan yerga uyishdi.

Muzday tuproqlar shimtirashdilar,

Yetimday sarg'ayib tentirashdilar.

So'ng bu parcha haqida mulohaza yuritiladi: "Bu satrlardagi "so'niq chehra", "muzday tuproqlar", "yetimday sarg'ayib tentirar" kabi ifodalarda Cho'lponning o'sha millatchi burjuaziya ruhida yozgan she'rlaridagi kayfiyat singib turadi". Ana shunday mulohazalar asosida maqola muallifi Cho'lponning hanuzgacha "o'zining millatchi burjuaziya ideyalariga" sodiq qolayotganini tasdiqlaydi. Bu o'rinda taqrizchining "mahorati"ga tan berish kerak. "Bolsheviklar ololmaydigan biron qo'rg'on yo'q" deganlaridek Tuyg'un burjua millatchiligining ta'sirini qidirib topolmaydigan biron she'r, biron misra yo'q- u istagan ma'nodagi iboralarni o'zi istagan tomonga burib yubora oladi. Masalan, u to'plamga kirgan "Bu o'lkaning ko'lami" degan she'rdan parcha keltiradi:

Bu o'lkaning ko'klami juda ham namgarchilik,

Quyosh bulutlar bilan o'ynashadi, shekillik

Qachon ko'rsam yashiringan o'yinqaroq boladay,

Meni entiktirmoqchi o'ynashi alday-alday.

Oddiy bir ko'klam manzarasi. Ammo Tuyg'un shu oddiy manzara tagidan kir qidirib topadi:

"Mana, ravshandirki, Cho'lpon 1936-yuida hali eski kuylarini chuqurlashtiradi. Hamon ko'klamda ko'lamni ko'rmaydi, o'zini bulutlar qoplagan

holda ko‘radi. “Quyosh” unga bevafo. Qachon qarasa, uni yashiringan holda ko‘radi, ko‘ngli zoriqadi, entikib qoladi...”

Yuqoridagi parchadan shunaqa “siyosiy” xulosalar chiqarmoq uchun yumshoq qilib aytganda, odam noinsof bo‘lmog‘i kerak. Shunisi e‘tiborga loyiqki, Tuyg‘un Cho‘lponni “fosh qilish” da juda katta jonbozlik ko‘rsatgan odamlardan biri- u birgina 37-iyunning o‘zida gazeta va jurnallarda o‘zbek va rus tillarida Cho‘lponga hamda boshqa “xalq dushmanlari”ga qarshi beshtadan ortiq maqola e‘lon qilgan. Shuning uchun o‘sha kezlarda o‘zbek yozuvchilari ichida eng siyosiy hushyori bolgan deyish mumkin. U Cho‘lponni jazavaga tushib dushmanga chiqargan-u, ammo durustroq dalil-isbot keltirishga ojizlik qilib qolgan. Biroq shunisi ham borki, u zamonlarda birovni “millatchi” yohud “xalq dushmani” desang, buning uchun tuzukroq dalil isbot keltirish talab qilinmas edi.

Tuyg‘unning maqolasi e‘lon qilingandan so‘ng Cho‘lpon qamoqqa olindi. Men bu o‘rinda “Cho‘lponning qamalishiga Tuyg‘un yolg‘iz sabab bo‘lgan” demoqchi emasman. O‘sha kezlarda Cho‘lponga qarshi Tuyg‘unnikidan boshqa ancha-muncha ma‘qolalar e‘lon qilingan. O‘ylanmanki, bunday maqolalar paydo bo‘lmagan taqdirda ham ma‘muriy organlar Cho‘lponni sog‘ qo‘ymagan bo‘lardichunki, birinchidan, yigirma yildan beri Cho‘lpon ustidan yig‘ib kelingan materiallar shoirni bir yoqlik qilishni taqozo etardi. Ikkinchidan, 37 yilga kelganda qatliom mashinasining parraklari butun mamlakat bo‘ylab misli ko‘rilmagan shiddat bilan aylana boshlagan edi. Biroq shunga qaramay, Tuyg‘un va unikiga o‘xshash maqolalarni mutlaqo beozor, qatliomga daxlsiz maqolalar deb bo‘lmaydi. Hech shubha yo‘qki, bunday maqolalar xalqning ongiga adiblar va shoirlar haqidagi tuhmat va bo‘xtonlarni, yolg‘on yashiq gaplarni singdirib, qtag‘on tegirmoniga suv quydi. Stalin jallodlarining ishini osonlashtirdi.

Shunday qilib, 1937- yilning yozida Cho‘lpon qamoqqa olindi, bir yillik dahshatli qiynoqlardan keyin 1938-yilning 4- oktabr kuni otib tashlandi.

Muallifi va rejissiyori sho‘ro hukumati hamda bolsheviklar partiyasi bo‘lgan, ijrochilari ma‘muriy jazo organlari, mahalliy adabiyotshunos va munaqqidlar bo‘lgan ko‘p yillik va ko‘p pardalik dahshatli fojining ikkinchi

pardasi shunday kechdi va bu gal Cho'lponni jismonan mahv qilish bilan yakunlandi.

Cho'lpon otildi. Cho'lpon bilan birga yana yuzlab, balki minglab millatning eng asl farzandlari- adiblar, shoirlar, olimlar, davlat arboblari, sarkardalar, xo'jalik xodimlari, ishning ko'zini biladigan dehqonlar otildi. Lekin bu bilan ham qorong'i kechalarning tongi otmadi- xalq boshiga tushgan dahshatli fojia tugamadi- hali uning keying pardalari o'ynalishi kerak edi. Bu orada fashistlar mamlakatga bostirib kirdi-yu, tarixdagi eng qonli, eng shavqatsiz, eng qirg'inli urush boshlandi. Shu tufayli Stalin qirg'inlari biroz susaygandek bo'ldi, aniqrog'i, susaydi, boshqacharoq tus oldi. Nihoyat, 1945-yilda urush g'alabamiz bilan yakunlandi. 1945- yil bahori xalqqa yangi umidlar baxsh etdi- g'olib xalq endi jinday bo'lsa-da, tuzukroq yashashdan, loaqal bir parcha baxtga muyassar bo'lishdan umidvor edi.

II-bob. Cho'lpon ijodi mustaqillik yillarida o'zbek tanqidchiligida

Har qanday chinakam iste'dod sohibi kabi Abdulhamid Cho'lpon ham ijodning deyarlik hamma sohalarida samarali faoliyat ko'rsatgan. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg, ham tarjimon, ham publist bo'lishi bilan birga, barkamol munaqqid, mohir adabiyotshunos, o'ziga xos tarzda fikrlaydigan san'atshunos ham bo'lgan. Uning badiiy asarlari xalq ma'naviyatini shakllantirishda qancha muhim rol o'ynagan bo'lsa, adabiy-tanqidiy maqolalari ham shunchalik katta qimmatga ega. Ammo istibdod zamonida Cho'lpon ijodini o'rganish u yoqda tursin, nomini tilga olish taqiqlangani uchun keng jamoatchilikkina emas, hatto adabiyotshunos mutaxassislar ham cho'lpon ijodining bu qirrasi to'g'risida g'oyat mavhum va tumanli tasavvurga ega edilar. Faqat so'nggi yillardagina Sh. Turdiyev, N. Karimov, B. Do'stqorayev, M. Olimov, U. Dolimov, Z. Eshonova, D. Qurbonov, U. Sultonov kabi adabiyotshunoslarning harakati bilan Cho'lponning inqilabdan oldin va keyin chop etilgan, hozir esa topilishi amri mahol bo'lib qolgan jurnallar va gazetalarda sochilib yotgan adabiy-tanqidiy asarlari ilmiy muomalaga kira boshladi. Surhandaryolik yosh cho'lponshunos N. Yo'ldoshev esa Cho'lpon hayoti va ijodiga doir bibliografiya e'lon qilib, unda birinchi marta Cho'lpon maqolalarining ro'yxatini berdi. Bibliografiyada ko'rsatilishicha, shoirning 1914-1937 yillar mobaynida chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalari hozircha 63 ta ekan. Izlanishlar davom ettirilsa, bu raqamning ko'payishi turgan gap.¹

Maqolalar bilan tanishish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, Cho'lpon o'zini professional munaqqid yoki muayyan akademik qoidalar asosida ish yurituvchi adabiyotshunos olim deb hisoblagan emas. Cho'lpon estetika

¹ Fitrat. She'rlar. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1987 yil 11 dekabr.

bobida, san'at nazariyasida yangi sahifa ochgan emas, jahon san'atini va san'atshunosligini batamom yangi yo'llarga burib yuboradigan tugal ta'limot ham yaratmagan. Shunga qaramay, yangi o'zbek adabioti tarixini Cho'lponning adabiy-tanqidiy faoliyatisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yangi o'zbek adabiyotini shakllantirishda, 20-30 yillardagi g'oyat murakkab ijodiy kurashlar muhitida unda izchil realistic uslubning ustuvorligini ta'minlashda Cho'lponning adabiy-tanqidiy qarashlarining ahamiyatini kamsitish mumkin emas. Cho'lpon munaqqid sifatida, birinchi navbatda, adabiyot va san'atning amaliy masalalari bilan shug'ullangan, yanada aniqroq aytganda, ma'naviy uyg'onish va madaniy rivojlanish asosida adabiy jarayon davomida ko'ndalang bo'lgan dolzarb muammolarga javob topishga intilgan, shu tarzda adabiyotni o'z davrining ilg'or g'oyalari bilan boyitishga, Sharq va G'arbning bebaho tajribasini yangi o'zbek adabiyotiga olib kirishga harakat qilgan.

Cho'lpon adabiy-tanqidiy merosning ahamiyati shu bilan cheklanmaydi. Yuqorida aytganimizdek, Cho'lpon tanqidiy faoliyati bilan estetika sohasida yangi bir ta'limot yaratishni maqsad qilib qo'ymagan bo'lsa-da, uning maqolalarini ichki yaxlidlikdan maxrum, har xil yillarda har xil munosabatlar bilan yozilib, har xil narsalar to'g'risida bahs yurituvchi parokanda asarlar yig'nog'idan iborat deb qarash mumkin emas. Aksincha, har bir maqolaning yugirik misralari ortidan Cho'lponning o'zi qarab turganday bo'ladi. Har bir maqolada Cho'lpon shaxsiyatining aniq muhri borki, huddi shu narsa ularni bir yaxlit holga keltirib turadi. Cho'lponning adabiy-tanqidiy merosi bu ulug' adib shaxsiyatining turli qirralarini, madaniy saviyasini, e'tiqodi va dunyo-qarashini o'rganishda, ijtimoiy hayotning muhim jihatlariga uning munosabatini aniqlashda, ijodiy biografiyasining ba'zi nuqtalarini to'laroq yoritishda ham g'oyat ahamiyatlidir. Biz bu merosni muayyan tartibda o'rganish natijasida Cho'lponning g'oyaviy-estetik evolyutsiyasi qanday kechgani haqida tasavvurga ega bo'lamiz, hatto "ijtimoiy tuzum va ist'edod" degan muommoni qo'yib, Sovet voqeligi Cho'lponning san'atkor sifatida o'sishiga qanday ta'sir etganini, bir san'atkor taqdiri misolida

tatalitar tuzumning chinakam ist'edodga qanchalik dushman ekanini to'laroq tasavvur etishimiz mumkin.

Cho'lponning birinchi tanqidiy asari "Adabiyot nadur?" degan maqola bo'lib, "Sadoi Turkiston" gazetasida 1914 yil 14-iyun kuni e'lon qilingan. Bu maqola, umuman, Cho'lponning matbuot yuzini ko'rgan ilk asarlaridan biridir. Cho'lpon uni 16 yoshida yozgan. Maqola shaklan juda ixcham bo'lsa-da, mazmunan g'oyat teran. Undagi fikrlar va mulohazalar shu qadar pishiqki, 16 yashar o'smirning shunchalik tiyraklik bilan qalam tebratganiga qoyil qolmay ilojingiz yo'q. Faqat favqulodda iqtidorga ega odamgina 16 yoshida tafakkurning bunchalik yuqori pog'onalariga ko'tarilishi mumkin. Sarlavhaning o'zidanoq ayon ko'rinib turiptiki, maqola juda muhim masalaga bag'ishlangan. Adabiyot adabiyot bo'lgandan beri Sharqda ham, G'arbda ham ne-ne buyuk ist'edod sohiblari "Adabiyot, san'at nadur? Uning kimga keragi bor? San'atkor kim? U jamiyat oldida burchdormi? Burchdor bo'lsa, bu burch nimalardan iborat? Burchdorlik bilan ijod erkinligi o'zaro qanday chiqishadi?" kabi muommalarga ro'para kelishgan. Ko'rinib turiptiki, bular ijodning hayot-mamot masalalari, ijodkor ularni loaqal o'zi uchun hal qilmay turib, e'tiqod qilib olsa arziydigan estetik printsiplarni aniqlamay turib samarali ijod qilolmaydi. Lekin shunga qaramay, hanuz adabiyot va san'atning etakchi hossalarni qamrab oladigan hamma davrlar uchun baravar ma'qul bo'ladigan universal ta'rif, mukammal javob topilgani yo'q. Buyuk san'atkorlarning javoblarida ham masalaning ayrim jihatlarigina, adabiyot va san'atning ayrim hislatlari, ayrim fazilatlarigina ifodalanadi.

Tabiiyki, Cho'lpon ham adabiyot olamiga qadam qo'yishi bilanoq shu muommoga ro'para keldi va unga javob izlashga majbur bo'ldi. Shunisi diqqatga sazovorki, Cho'lpon o'z izlanishlarida yolg'iz emas edi. Huddi shu davrda boshqa o'zbek ziyolilari ham "adabiyot nadur?" degan muommoga javob izlab ancha urinishgan. Masalan, qo'qonlik mashhur ma'rifatparvar, "Ash'ori nisvon" degan majmuoning muallifi Ibrohim Davron 1909 yildayoq "Turkiston viloyoti gazetasi"da "Shoir nadur?" degan maqola elon qiladi. Yoki adabiyotshunos olim Begali Qosimovning ta'qidlashicha, 1914 yilda Mirmuhsin Shermuhamedov bilan

Saidahmat Vasliy o'rtasida adabiyotning mohiyati, vazifalari va jamiyat oldidagi burchi to'g'risida bahs-munozara bo'lgan. Qolaversa, bunday izlanish faqat turkistonli ziyolilar o'rtasidagina sodir bo'lgan emas. Huddi shu yillarda qo'shni Qozog'istonda ham, Ozarbayjon yoxud tatarlar yurtlarida ham adabiyotning mohiyatini izlash, uning jamiyat hayotidagi, millat ravnaqidagi ahamiyatini aniqlash harakati ancha avj olgan edi. Natijada, "adabiyot nadur?" degan mangu savolga turli mintaqalarda bir-biriga yaqin javoblar paydo bo'la boshlagan edi. Ozarbayjon adiblari Jalil Mamadqulizoda yoxud Abdurahim Xaqberdievlarning, tatar yozuvchilari Abdulla To'qay yoxud Olimjon Ibrohimovlarning XX asr boshlarida chop etilgan adabiyot haqidagi maqolalari fikrimizning dalili bo'la oladi. O'z izlanishlari oqibatida ular naqadar bir-biriga yaqin xulosalarga kelganini ko'satish uchun bir konkret misolga mirojaat qilaman: taniqli qozoq jurnalisti, ma'rifatparvar va demokrat M.Seralin o'zi muharrirlik qilgan "Ayyaqap" jurnalining 1912 yildagi 1-sonida yozadi: "Til va adabiyot xalqning qalbi va ruhidir... adabiyotsiz xalq zabonsiz boladay gap. Bunday bola boshqalarga o'zining dard-quvonchlarini gapirib berolmaydi. Xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradigan eng kuchli vosita til va adabiyotdir. O'z adabiyotining haqiqiy qadr-qimmatini bilgan xalqlarning farzandlarigina o'z tilini chinakam ardoqlay oladi. Qozoq xalqining o'z tili va o'z adabiyoti bor... bizning burchimiz unutilib yotgan ulkan hazinalarni yuzaga olib chiqish va hammaning mulkiga aylantirishdir."

Endi Cho'lponga murojaat qilaylik. Yosh munaqqid "Adabiyot nadur?" maqolasida, birinchi navbatda, adabiyotning ijtimoiy mohiyati to'g'risida fikr yuritadi. Uning fikricha adabiyot millatni taraqqiy ettirish vositasi, uning ma'naviyatini ta'minlaydigan omil. Cho'lpon bu xulosaning chinligiga shu qadar ishonganki, maqolada hech qanday e'tirozga o'rin qoldirmaydigan tarzda "adabiyot yashasa – millat yashar" deya tasdiqlaydi:

"Ha, to'xtamasdan harakat qilib turg'on vujudimizga, tanimizga suv, havo naqadar zarur bo'lsa, maishat yo'lida har xil qora qirlar bilan qirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir. Adabiyot yashasa – millat yashar. Adabiyoti o'lmag'an va adabiyotining taraqqiyotiga cholishmagan va adiblar

etishtirmagan millat oxiri bir kun hissiyotdan, o'ndan, fikrdan mahrum qolib, sekin-sekin inqiroz bo'lur."

Biri Turkistonda, biri Qozog'istonda turib, bir-biridan bexabar holda ikki muallif deyarlik bir xil tarzda adabiyotning mohiyati, jamiyat hayotidagi, millat ravnaqidagi ahamiyati to'g'risida fikr yuritmoqda. Bundagi mushtaraklik tasodif emas, albatta. Bu shu bilan izohlanadiki, XX asr boshlarida Turkistonda ham, Qozog'istonda ham ulug' Uyg'onish shabadalari esa boshlagan edi. Turkistonda shu kezlarda tarix maydoniga kirib kelgan, keyinchalik "jadidlar" deb nom olgan fikri ochiq, taraqqiyparvar ziyolilar bu uyg'onishni ta'minlagan asosiy kuch bo'ldi. Ular mustamlakachilik siyosati tufayli Turkiston zabun ahvolga tushib qolganini, xalq jaholat va nodonlik qo'ynida, erksizlik buyin-turug'i ostida ikki-yoqlama zulm iskanjalari ostida qattiq ezilib yotganini chuqur angladilar va bunday hayotni o'zgartish, yangilash zarurligi haqidagi g'oyalarni olg'a surdilar. Ular xalqni ma'rifatli qilishni, saviyasini ko'tarib, oq-qorani taniydigan qilishni yangilanishning birlamchi sharti deb bildilar va shu olijanob niyatni amalga oshirish uchun fidoyilik bilan ishga kirishdilar. Ular har xil ta'qib va taqiqlarga qaramay, moddiy qiyinchiliklarni engib maktablar ochdilar, darsliklar yaratdilar, gazetalar chiqardilar, nashriyotlar ochib kitoblar chop etdilar, turli ma'daniy-ma'rifiy to'garaklar ochdilar... Xullas, qisqa muddat ichida jadidlar millatning sadoqatli va fidokor farzandlari sifatida tanildi.

Cho'lpon shu ulug' ma'rifatparvarlik harakatining qanotlarida ijod maydoniga kirib keldi. U mustaqil o'qib o'rganishi oqibatida g'oyat yuksak madaniy saviyaga ega edi, Sharq klassiklari, ayniqsa, turk va hind yozuvchilarining asarlari bilan, shuningdek, Ovro'pa va rus adabiyoti bilan puxta tanish edi. Shuning uchun 15-16 yoshlaridayoq ma'rifatparvarlik g'oyalarini qabul qilishga har jihatdan tayyor edi. Shuning uchun Cho'lpon yoshligiga qaramay, Turkistonning taqdiri to'g'risida, millatning istiqboli haqida chuqur qayg'urish bilan o'yay boshladi. U ham jadidlarga ergashib, xalqni jaholat va nodonlik, erksizlik va qashshoqlik botqog'idan qutqarib olishning birdan-bir yo'li ma'rifat degan e'tiqodga keldi. Millatni ravnaq toptirish uchun, birinchi navbatda, uni

mustamlaka asoratidan xalos etish kerak, buning uchun esa xalq o'zini o'zi tanigan bo'lmog'i, hammani birlashtiradigan, yakdil qiladigan milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lmog'i kerak. Cho'lpon xalqni shu darajaga etkazishga yordam beradigan imkoniyatlar, chora-tadbirlar izlaydi, va adabiyot ularning eng samaralisidir degan to'xtamga keladi. Shuning uchun ham yosh munaqqid komil ishonch bilan hatto millatning yashashini adabiyotning yashashiga bog'liq qilib qo'ydi. Ehtimol, Cho'lpon, bu o'rinda biroz ehtirosga berilgandir.

Adabiyot nadur?" maqolasining kishini lol qoldiradigan yana bir juda muhim tomoni shundaki, 16 yoshlik munaqqid adabiyotning ijtimoiy vazifasini ta'kidlash bilan cheklanmaydi, balki uning spetsifikasiga, ya'ni obrazli tabiatiga alohida urg'u beradi. Yosh munaqqid uchun adabiyot quruq g'oyalar majmuosi emas, balki, birinchi navbatda, inson ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan hodisadir. U odamlarning sho'rliqagina emas, his-tuyg'ulariga ham ta'sir etishi, ularni quvontirib, yaxud mahzun ahvolga solib, shu orqali ijtimoiy burchini o'tashi zarur. Cho'lpon bu fikrlarni o'ziga xos obrazlarda bunday ifodalagan:

"Adabiyot chin ma'nosi ila o'lgan, so'ngan, qaralgan, o'chgan, majruh, yarador ko'ngilga ruh bermoq uchun, faqat vujudimizga emas, qonlarimizga qadar singishgan qora balchiqlarni tozalaydurgan, o'tkir yurak qirralarini yuvadurg'on toza ma'rifat suvi, xiralashgan oynalarimizni yorug' va ravshan qiladurgan, chang va tuproqlar to'lgan ko'zlarimizni artub tozalaydurg'on buloq suvi bo'lganlikdan bizga g'oyat kerakdur."

Qadim-qadimlardan beri ma'lumki, badiiy asar chinakam san'at darajasiga ko'tarilmog'i uchun unda g'oyaviylik bilan badiiylik chambarchas birikib ketgan bo'lmog'i kerak. Badiiyatsiz g'oyaviylik adabiyotni muqarrar o'limga mahkum etadigan rak kasaliga o'xshaydi. Adabiyot faqat badiiyati orqaligina, ya'ni teran hayotiy mazmunni, muhim hayot haqiqatini odamlarni hayajonlantiradigan, to'liqlantiradigan badiiy shakllarda ifodalaganidagina jamiyat ehtiyojini qondira oladigan qudrat kasb etadi. Buni yaxshi anglagan Cho'lpon badiiyatning mohiyatini o'ziga xos tarzda shunday o'qtiradi:

“...ba’zi vaqtda falak bir odamni qayg’uga solar, ul o’zi **tushunib**, o’ylab turib, oh tortib yig’lar. Bu hasratlarni o’z ichiga sig’dirolmas. Birovga aytsa, “voy, bechora” dermukin deb, albatta, o’z qayg’usini birovga aytmakka tilar. To’ppa to’g’ri aytganda ul qadar ta’sir qilmas. Adabiyot ila aytganda, albatta, ta’sir qilar. Mening bir oshnamning o’ldigi xabari kelar. Men hech xafalanmayman. Bir vaqtda maktub kelar, maktubda alarning ko’rgan kunlari adabiyot ila bunday yozilur:

*Gullar bila pok qayg’uli mahzun boqurdi,
Ko’z yoshlarimiz to’xtamay tun-kun oqurdi.*

Mana shuni o’qib, albatta, bir ta’sir ila alarning qayg’usiga qo’shilurmiz”.

Cho’lpon adabiyotning yangi g’oyaviy mazmuni uchungina emas, ayni chog’da uning yuksak badiiyati uchun ham kurashganida, albatta, o’sha davrdagi adabiy jarayonning xususiyatlariga tayangan. Ma’lumki, jadidlar XX asr boshlarida ma’rifatparvarlik g’oyalari bilan sug’orilgan yangi mazmundagi adabiyot yaratdilar, ammo turli sabablarga ko’ra bu adabiyot hamma vaqt ham yuksak badiiyat bilan omuxta bo’lavermas edi. Shuning uchun bo’lsa kerak, Cho’lpon adabiyotni san’atga yaqinlashtirish imkonlarini izladi va bunga erishishning eng to’g’ri yo’li haqqoniylikda degan xulosaga keldi. Haqqoniylikning ildizlari esa xalqchilikda. Adib yoxud shoir xalq hayotining ichida bo’lmog’i kerak va bu hayotning hamma zamzamalarini aks ettirishga intilishi kerak. Ehtimol, yosh Cho’lpon bunday qarashlarga stixiyali tarzda kelgandir, lekin nima bo’lganda ham, u “qalam ahllari”ni xalq hayotiga yaqinroq “aralashib” yurishga undaydi. “Adabiyot nadur?”dan keyin yozilgan va “Sadoi Turkiston” gazetasining 1915 yil 6-fevral sonida chop etilgan “Muhtaram yozuvchilarimizga” degan murojaatnomada Cho’lpon shunday xitob qiladi:¹

“Muhtaram qalam ahllari milliy maishatni yomon deb bezmay, zohira bo’lsa ham to’ylarda, gapxonalarda, bachvozlar majlisida, bazmlarda va shunga o’xshash millatning eng tanqid qiladurgan o’rinlarida birga aralashib yurmaklari

¹ Fitrat. O’zbek klassik musiqasi tarixi. T.: «Fan», 1993.

kerakdurki, toki komil o'sha odatlarni kitob sahifalarida chiroyliroq qilib yozgunday bo'lsunlar. Milliy maishatdan bezgan bilan bezilib, ko'milib ketaveradilar. Onda aralashib yurulsa, ondagi so'zlarni, odatlarni o'ganmoqqa bo'ladurki, kitob betlariga ko'churib yozmoqqa materiallarning eng asllari xalq orasidan olishur".

Cho'lpon inqilobdan keyin ham o'zining estetik printsiplarini shakllantirib bordi. U ko'pgina maqolalarida konkret ijodkorlar misolida yoki muayyan asarlar tahlili orqali realizmning turli-tuman masalalarini o'rta qo'ydi. Jumladan, uning maqolalarida talant va ijodiy mehnat, hayotiylik va haqqoniylik, samimiyat va sun'iylik, matn ustida ishlash, badiiy tasvirning chinligi va rangdorligi, tabiat manzaralari va psixologizm kabi masalalar qalamga olingan va ular to'g'risida bugun ham ahamiyatini yo'qotmagan qimmatli fikrlar aytilgan. Masalan, Cho'lpon maqolalaridan birida adabiyotning "tugallanishi", ya'ni takomillashishiga katta e'tibor berib, bunga "adabiyotga kira olmagan narsalarni shafqatsiz sur'atda maydondan haydash" bilan va badiiy asar tilini soddalashtirish orqali erishilar deb hisoblaydi. Cho'lpon "Chig'atoy gurungi" ga mansub odamlar huddi shu yo'lda faoliyat ko'rsatganini aytadi. Ma'lumki, bizning "Sovet" adabiyotshunosligimizda bu tashkilot hamisha panturkistik tashkilot sifatida, aksi inqilobiy g'oyalarni oldinga surgan guruh sifatida qoralanib kelindi. Buning natijasida biz bugun "Chig'atoy gurungi" haqida deyarlik hech narsa bilmaymiz. Bugunga kelib bilganimiz shu bo'ldiki, "Chig'atoy gurungi" haqida aytilgan gaplarning biri bo'xton ekan. Shuning uchun Cho'lpon maqolasidan olingan quyidagi parcha shoirning chin adabiyot uchun kurashini ko'rsatish bilan birga, usha to'garak haqida qisman bo'lsa-da, ma'lumot beradi:

"... U jamiyatga mansub kishilar tilni soddalashtirmak maqsadini asos qilib ushlaganlari holda o'zbek adabiyotining tugallanishiga ham katta ahamiyat berdilar. Tugallandurg'on adabiyot chin adabiyot bo'lmog'i kerak. Shuning uchun ular adabiy asarlarga haqiqiy qiymatini berib, adabiyotga kiraolmagan narsalarni shafqatsiz suvratda maydondan haydab boshladilar... "Chig'atoy gurungi" asosini mahkam qo'rg'onlig'iva chinakam to'g'ri chizg'onligi uchun o'zi yo'q ketsa ham,

o'zbekning yangi adabiyotida yangi, porloq, sharaflı sahıfalar ochdı va ochmoqda davom etadı”.

Afsuski, Cho'lpon bu o'rında eski va yangi adabiyotning “shirinligi” nimalarda ifodalanishini aytmaydı, faqat maqola davomida yoshlarning yo'lsizligi, “boshlab o'zi yo'lsiz” ekanini aytib, uning mohiyati nimadaligiga ishora qiladı:

“O'zimning yo'lsizligimdan biroz so'zlab o'tayin: Navoiy, Lutfiy, Boyqaro, Mashrab, Umarxon, Fazliy, Furqat, Muqimiylarni o'qiyman: bir xil, bir xil, bir xil...Ko'ngil boshqa narsa qidiradı. Botu, G'ayratiy, Oltoy, Oybek, Julqunboylarni o'qiyman: quvontiradı, xalos! Ular mening uchun yong'on chiroqlar bo'lsa ham, mening ertam uchun! Avloniy, Tavallo, Siddiqiy va Hakimzodalarni o'qimayman, o'qimayman. Meni shu holga solg'an ushalar!...” .

Bu parchada Cho'lpon o'zbek namoyandalarining nomlarini tilga oliyapti, ularning ijodida bir xillik borligidan, ba'zilarida esa bundan ham jiddiyroq nuqsonlar borligidan zorlanıyapti. Shu parchaga qarab turib, Cho'lponning o'zbek klassiklariga salbiy munosabati yohud mensimay qaragani haqida gapirish mumkinmi? Afsuski, men Cho'lpon haqidagi risolamda shunga yaqinroq gapni aytganman va klassiklarimizni o'zimcha Cholpondan himoya qilmoqchi, Cho'lponning o'zini ham o'z maqolasidan himoya qilmoqchi bo'lganman. Mana, o'sha parcha:¹

“O'ylaymanki, bugun Cho'ponning bu xulosasi bilan unchalik kelishib bo'lmaydı – klassiklarimizning har qaysisi o'ziga xos qiyofaga bir-birinikidan farq qiluvchi uslubga ega ekani, olamni idrok etishlari va olam haqidagi qarashlari bilan ham, estetik printsiplari jihatidan ham bir-birlarini takrorlamasliklari isbot qilindi. Lekin Cho'lpon ularni “bir xil, bir xil, bir xil!” deb baholayotgan ekan, bunda Sharq shariyatining o'ziga xos ba'zi sifatlarini nazarda tutayotgan bo'lishi mumkin”.

Gap shundaki, Cho'lpon bu maqolada faqat o'zbek adabiyoti haqidagina mulohaza yuritayotgani yo'q, balki u Sharq adabiyotidan ham, G'arb adabiyotidan

¹ Fitrat. O'zbek klassik musikasi tarixi. T.: «Fan», 1993.

ham ko'ngli uncha to'lasligini aytayapti, bu adabiyotlar yo "ortiqcha sharqliligi", yahud "ortiqcha g'arbliligi" bilan taassuf tug'dirishini izhor qiliyapti. "To'qatdan tortib Qavi Najmiygacha – tatar adabiyotini, Xodidan tortib H. Javodgacha – ozarbayjon adabiyotini (Husayn Jovidni ajratib olib qoldim!), Nomiq Kamoldan Ali Sayfiga davir usmonli adabiyotini o'qiyman: yo ortiqcha yangilik, g'arblilik, yo ortiqcha sharqlilik. Faqat usmonlichadan Rizo Tavfiqning ba'zi bir yangi shakl bilan eski ruhda aytgan sufiylarcha sherlarini o'qiyman, shularga durustgina qonaman. Undan keyin Yahyo Kamolning "Saydobod" ruhida ba'zi narsalari. Faqat ular shu qadar ozki..."

Savol tug'iladi: nima uchun Cho'lpon bir varakayiga ham o'zbek, ham tatar, ham Azarbayjon, ham turk adabiyotlarining namunalaridan qoniqmaslik tuyg'ularini izhor etyapti? Menimcha, buning birdan-bir sababi shundaki, Cho'lpon Uyg'onish davrining odami bo'lgani uchun adabiyotning ham yangicha bo'lishini hohlagan. Yangi adabiyot Uyg'onish davrining mohiyatiga mos keladigan, xalq hayotiga yaqinroq turadigan adabiyot bo'lmog'i kerak. Ortiqcha "sharqlikka" yoki ortiqcha "g'arblikka" berilgan adabiyot esa bu talablarga javob berolmaydi. Ho'sh, nima qilmoq kerak? Adabiyotni, "shirinlikdan", "bir xillikdan" qutultirishning yo'li qanaqa bo'ladi? Cho'lpon bu savollarning javobini Tagor ijodidan izlaydi. Munaqqid Tagor asarlarini o'qib, "ulardan qonganini" ma'qul qilar ekan, buning asosiy boisi deb Tagorning "Sharq va G'arb o'rtasidagi oltin ko'pri" ekanini aytadi. Darhaqiqat, Tagor ijodi to'laligicha Hindiston zaminida o'sib-ulg'aygan bo'lsa-da, bu ijod milliy maxdudlikdan uzoq. U o'z ijodida ham milliy, ham Sharq, ham G'arb an'alarini birlashtirdi. Uning sheriyatida va romanlarida sharqqa xos shartlilik, ko'tarinkilik, donishmandlik ham, g'arbgacha xos psixologizm, xarakterlar mantig'iga amal qilish, dalillash ham bor. Buning oqibatida u hind xalqining hayotini shunday tasvirladiki, bu tasvir butun jahon kitobxoniga – uning millati va yashash joyidan qat'iy nazar – baravar ta'sir qiladigan kuchga ega bo'ldi. Yuksak badiiyat bilan tahlil qilingan umumbashariy muommolar Tagor asarlariga alohida teranlik va o'ziga xos falsafiylik bahsh etdiki, huddi shu sifatlar ularni Cho'lpon uchun bag'oyat jozibador qildi.

“Ulug‘ hindi” maqolasida Cho‘lpon Tagordan olingan saboq sifatida yana bir masalani qo‘yadi. Shu munosabat bilan yuqorida maqoladan keltirilgan matn parchasidagi bir nuqtaga diqqatni jalb qilmoqchimon. Cho‘lpon boshqalarga qaraganda Avloniy, Tavallo, Siddiqiy va Hamza Hakimzoda sha‘niga keskinroq ohangda gapiradi, “meni shu holga solgan”, “yani “yo‘lsizlikka”, muhtalo qilganlar “ushalar” deb, bir marta emas, ikki marta ularni “o‘qimayman, o‘qimayman” deb ta’kidlaydi.

Afsuski, bizning o‘zbek “sovet” adabiyotshunosligida Cho‘lponning bu mulohazasi ham ilmiy asosda holisona tahlil qilinish o‘rniga unga siyosiy ayblar taqish uchun yana bir bahona bo‘ldi. Hatto, “jiddiy adabiyotshunoslardan biri” sifatida tanilgan Izzat Sulton ham shu “dalil” asosida Cho‘lponni ayblashdan tiyina olmadi. “bu erda sovet voqeligini” so‘zsiz va izchil qabul qilgan shoirlarga salbiy baho berganligi (aftidan, Hamza va Avloniy nazarda tutilyapti, shekilli. Unda Tavallo bilan Siddiqiy nima bo‘ladi?-O.Sh) Cho‘lpon “yo‘lsizligi”ning ma’nosini ochib beradi: u hali shoir sifatida yangi voqelikni tushunishga va madh etishga (!-O.Sh.) tayyor emas.

Cho‘lponning adabiyotidagi “yo‘lsizlikdan” qutulish yo‘llarini izlagani to‘satdan kattakon siyosiy aybga aylanib qolgan. Holbuki, Cho‘lponning maqolasida na sovet voqeligi, na inqilob haqida gap ketayotipti; ayrim shoirlar haqida keskinroq ruhda gapirilayotgan ekan, buni Cho‘lpon ularning inqilobni “so‘zsiz” qabul qilganlari uchun emas, boshqa sabablar tufayli qilayapti. Ma’lumki, jadidlar adabiyotdan jamiyatni yangilash jarayonida muhim qurol sifatida foydalanishgan. Ammo ayrim jadid yozuvchilarining ijodida g‘oyalar targ‘ibotiga ko‘proq e’tibor berilib, badiiyat masalalari keyingi o‘rinlarga tushib qolgan edi. Natijada, san’atning eng muhim shartlaridan biri bo‘lmish mazmun bilan shakl birligiga putur eta boshlagan, g‘oyaviylik badiiyat hisobiga ustivor o‘rin egallay boshlagan edi. Bu nuqson na faqat Hamza, Siddiqiy yoxud Avloniy asarlarida, hatto jadidchilik harakatining eng yirik siymosi Mahmudxo‘ja Behbudiy ijodida ham ko‘zga tashlanadi. Aftidan, Cho‘lpon bu hodisani juda chuqur his qilgan, uning xavfini jadal aniq anglagan? va maqolalarida bunga qarshi

ogohlantirgan. Uning ayrim asarlarni “o‘qimayman” deb zorlanishining asosiy sababi ham shunda – bu asarlarda g‘oyaga urg‘u berilgan-u, badiiyat oqsab qolgan.

Shunday qilib, Cho‘lponning 20-yillardagi bir qancha maqolalarida tilga olingan va “Ulug‘ hindi” maqolasida ancha to‘liq ifodalangan masala – yangi o‘zbek adabiyotini yaratish masalasi edi. Cho‘lponning nazarida bu vazifani muvaffaqiyatli hal qilish uchun Tagordek buyuk san‘atkorlar tajribasidan kelib chiqib, Sharq va G‘arb san‘atlarini sintez qilmoq va mazmun bilan shaklning uyg‘unligiga erishmoq kerak, zinhor-bazinhor san‘atni quruq g‘oyalar majmuosiga aylanib qolishiga yo‘l qo‘ymaslik zarur.

Afsuski, 20-yillarda ham, undan keying davrlarda ham Cho‘lponning bu kitobi hech kimning qulog‘iga etib borgani yo‘q. Chunki sovet hokimiyati yillarida amalga oshirilgan adabiy siyosat – chinakam san‘at namunalarini yaratishdan ko‘ra yozuvchilarni hukmron mafkuraning sodiq soldatlariga aylantirishga qaratilgan edi. Yozuvchi o‘z yog‘iga o‘zi qovirilib, ming xil ijod iztiroblarini kechirib, matn ustida jon kuydirib ishlab o‘tirishi shart bo‘lmay qolgandi – u “dolzarb” mavzuni tanlasa, ilg‘or ishchi yo sadoqatli kommunistni qahramon qilib olsa, xalqlar do‘stligini ulug‘lab, ulug‘ og‘amizga madhiyalar o‘qisa, “hayotimiz farovon, kelajagimiz porloq, partiyaga ming rahmat!”¹ degan gaplarni aytsa kifoya edi. Bunday asar, badiiy saviyasidan qat‘iy nazar, haqiqiy adabiyot deb baholanar, ortiqcha to‘siqlarsiz chop etilar, boshqa tillarga tarjima qilinar, har xil mukofotlar-u unvonlar bilan rag‘batlantirilar edi. Bu siyosat muqarrar ravishda adabiyotda “sxematizm” degan dahshatli illatni tug‘dirdi, haqiqiy ist‘edod egalarini qadrsizlantirdi, o‘rtamiyonachilikka keng yo‘l ochdi, san‘at bobida talantsiz; lekin ig‘volarga, fisqu-fasodlarga, xushomad va laganbardorlikka, zamonga moslashishga ustasi faranglar, nafsi uchun vijdonini sotishga tayyor odamlar suv betida ko‘pikdek qalqib yurishiga imkon yaratdi. Afsuski, bu g‘ayri tabiiy, teskari hodisaning oqibatlarini hozirgi kunga qadar ham sirqib yotibti. Cho‘lponning zorlanishlariga va ogohlantirishlariga e‘tibor berib, o‘sha mahaldayoq bu

¹ Erkinov S. Fitrat-navoiyshunos. O‘zbek tili va adabiyoti, 1990, 3-son, 3-bet.

hodisaning oldi olinganda, ehtimol, ahvol boshqacha bo'lishi mumkin edi, o'zbek yozuvchilarining asarlari ham hozirgidan ko'proq darajada jahon miqyosida tan olingan va tanilgan bo'larmidi? Nima bo'lganda ham, bizni g'oyat quvontiradigan joyi shundaki, shoir va dramaturg, nosir va publist Cho'lpon tanqidchilik bilan ham jiddiy shug'ullanib, bugun ham qimmatini yo'qotmagan asarlar meros qoldirgan. Uning maqolalari bu ulug' insonning chunakam xalq farzandi bo'lganini, millat ravnaqi yo'lida astoydil qayg'urib cholishganini, o'zbek adabiyotining tom ma'nodagi yuksak adabiyot bo'lishi uchun qimmatli fikrlar bayon qilganini ko'rsatadi. Cho'lpon bu fikrlarni bayon qilish bilan yangi adabiyot yaratish yo'lidagi mulohazalarini o'rtagan, cheklangani yo'q, balki o'zining amaliy ijodida bu e'tiqodlarga amal qilib, o'zi ham "G'arb va Sharq o'rtasida oltin ko'priq" bo'ladigan asarlar yaratdi.

Shuningdek, bu maqolalar Cho'lponning sho'rolar hukumatining amaldagi adabiy siyosatiga qanday munosabatda bo'lganini to'laroq tasavvur qilishimizda ham g'oyat qimmatli manba bo'ladi.

Fikrimizni dalillash uchun misollarga murojaat qilaylik:

1927-yilda "Yer yuzi" jurnalining 6-sonida Cho'lponning "Yana uylanaman" degan maqolasi bosilgan. Sira kutilmaganda, bu maqola Cho'lponning ijodiy biografiyasidagi bir qorong'i nuqtani yoritishga yordam berdi. Tadqiqotchilar ba'zi manbalardagi ma'lumotlarga tayanib, Cho'lponning shu nomad pyesasi bo'lganidan xabar topishgan edilar-u, ammo asarning matni bo'lmagani uchun pyesa haqida hech qanday tasavvurga ega emas edilar. Men Cho'lpon haqidagi risolamda "bu pyesa haqida hech qanday ma'lumot yo'q" deb yozishga majbur bo'lgandim. Cho'lpon haqida ancha samarali tadqiqotlar olib borayotgan Naim Karimov ham "Cho'lpon" degan kitobchasida bu pyesa haqida umumiy gaplar aytish bilan cheklanadi. Aftidan, Naim Karimov ham menga o'xshab kitob yozish jarayonida hali Cho'lponning maqolasi bilan tanishib ulgurmagan ko'rinadi. Maqolada pyesa to'g'risida ancha mufassal ma'lumot bor ekan:

“Yusufjon akamning har qayerda necha yillardan beri aytib kelgan bir hikoyasi bor. Unda bir imom-domlaning namoz vaqtida g‘alati hiyla qilib mahallada ikki yillik haqini undirib olgani aytiladi. Yusufjon akaning so‘zlashida bir necha og‘izdan oshmagan bu hikoya mazmuni va mavzu jihatdan qiziq va boydir. Rejani yaxshi chizib, uni bir adabiy hikoyaga aylantirganda go‘zal narsa chiqar edi. Men shunday qilarman deb o‘ylab yurardim.

...Sverdlin bir mustaqil asar qo‘ymoqchi bo‘ladi va studiyaning ko‘rsatishi bo‘yicha menga yo‘liqdi. Men unga Yusufjon akam hikoyasining qisqagina mazmunini aytib berdim. Ma‘qul bo‘ldi va boshi-ketiga ko‘rinishlar qo‘shib, tezlik bilan yozib berishni buyurdi. Ana shu bilan “Yana uylanaman” degan 3 parda 7 ko‘rinishli asar maydonga keldi.

Bu asar Moskvadagi o‘zbek dramateatr studiyasida o‘qiyotgan artistlar tomonidan sahnalashtirilgan va 1926-yilda jamoatchilikka namoyish qilingan ekan. Yana shunisi e‘tiborga loyiqki, bu spektakl haqida “Pravda” gazetasining 1926-yildagi 92-sonida shu gazetning teatrshunos muharriri Fevralskiyning taqrizi ham bosilgan. Cho‘lpon maqolasida bu taqrizdan parcha keltiradi. Maqola oxirida esa, “bu asarning mirzosi” sifatida “Yusuf akaga, Sverdlinga, cholg‘i rahbari Mironovga” minnatdorchilik bildiradi. Ko‘rinadiki, bir qarashda jo‘nginaday tuyulgan maqola Cho‘lponning dramaturglik faoliyati haqidagi tasavvurimizni to‘latish bilan birga, “Yana uylanaman”ning ijodiy tarixi, Cho‘lponning rus san‘atkorlari bilan hamkorligi to‘g‘risida ham qimmatli ma‘lumotlar beradi.

Cho‘lpon maqolalari bilan tanishganimizda ularning muallifi ko‘z o‘ngimizda qiziqish doirasi nihoyatda keng, saviyasi yuksak, g‘oyat ko‘p o‘qiydigan va ko‘p narsa biladigan juda ma‘rifatli, favqulodda madaniyatli odam sifatida gavdalanadi. Albatta, Cho‘lpon haqida yozgan tadqiqotchilarning hammasi uning fors, arab, turk, tatar, hind adabiyotlari bilan bir qatorda Ovro‘pa va rus adabiyotini mukammal bilganini takidlashadi. Shulardan xabardor odam Cho‘lponning kitobxonligi yoxud saviyasining yuksakligi haqidagi uncha-muncha gapga hayron qolmasligi kerak. Shundoq bo‘lsa-da, ayrim maqolalarida Cho‘lponning madaniy ma‘rifiy qiyofasi shunaqa qirralari bilan namoyon

bo'ladiki, bunga lol qolmasdan iloj yo'q. Yuqorida Cho'lponning "Ulug' Hindi" degan maqolasini tilga oldik. O'sha yili, ya'ni 1925-yilda "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 11-12 sonida Tagor haqida uning yana bir maqolasi bosilgan. Tabiiyki, bu maqolalarni yozish uchun muallif Tagor ijodi bilan tanishib, uning to'g'risidagi maqolalar yoxud kitoblardan ham xabardor bo'lmog'i kerak. Cho'lpon bu talabga amal qilgan, albatta, lekin bu bilan cheklanmay, tom ma'noda ilmiy tadqiqot ishlarini olib borgan, maqolalarni bir-biriga taqqoslagan, hatto biror muallifning bir necha maqolasi bir necha joyda bosilgan bo'lsa, ularning matnlari o'rtasidagi farqni hujjatlab aniqlab chiqqan. Quyidagi parchani o'qisangiz, bunga o'zingiz amin bo'lasiz:

"1925-yilda Moskvada bosilgan qimmatbaho va juda yaxshi bir kitob bor, ismi "Hindiston istiqloli uchun kurash yo'lida". U kitob maqolalar majmuasidan bir narsa bo'lib, Polovich, Gorko-Krashin va Valtman kabi sharqiyot olimlari aralashqonlar. O'shanda Valtmanning "Tagor va Hindiston" degan 23 sahifalik katta bir maqolasi bor. Xuddi o'sha maqolaning o'zi bosh-oyog'i biroz qir qilgan holda mundan bir yarim ikki oylar oldin "30 kun" ("30 dney") degan oylik bir majmuada ham o'rtog'imiz Valtmanning imzosi bilan "Hind tasvirlari" ("Indiyskiye siliuti") sarlavhasi ostida bosilib chiqdi. Agar yanglishmasam, o'sha mazmun va o'sha mafhum bundan bir yilcha burun "Yangi sharq" ("Noviy Vostok") majmuasida ham yana o'sha imzo bilan o'tib edi".

Cho'lponning puxtaligi va bilimdonligi yana boshqa ko'pgina maqolalarda mana man deb ko'rinib turadi. "Malikai Turandot" maqolasini olaylik. Cho'lpon italyan dramaturgi Karlo gottsining bu mashhur asari italyan xalq komediyasi an'analari asosiga qurilganini ta'kidlaydi-da, keyin shu an'analar nimalarda ko'rinishi to'g'risida atroflicha mulohaza yuritadi. Shu asnoda Cho'lpon Italiyada oddiy xalq o'rtasida Pantolone, Trufaldino, Brigalla kabi qiziqchilar bo'lganini, ular yaratgan an'analar g'oyat samarali ekanini ma'lum qilib, bu qiziqchilar obrazlari yangi sifatlar bilan boyitilgan holda Gotssi asariga ko'chgani haqida mulohaza yuritadi. Cholon bu bilan ham qanoatlanmaydi. Maqolada, "Malikai Turandod"ni zo'r mahorat bilan sahnalashtirgan, olamdan bevaqt ko'z yumgan

Vaxtangovning ijodi to'g'risida, uning rejissyorlik talqinlari xususida, umuman, bu atoqli san'atkorning rejissiyori sohasiga qo'shgan hissasi haqida batafsil fikr yuritilgan. Bu maqola qatorida Cho'lponning Meexold haqidagi maqolasini eslasak, uning 20-yillarda jahon teatr san'atida sodir bo'layotgan jarayonlardan yaxshi xabardor ekanini, undagi turli-tuman yo'nalishlar, xilma-xil uslubiy printsiplar to'g'risida tugal tasavvurga ega bo'lgani ayon bo'ladi.

Shuning uchun ham Cho'lponning ko'pgina maqola va taqrizlarida o'sha davr adabiyoti haqida bildirgan mulohazalari, ayrim masalalarga bergan baholari, tahlil va talqinlari alohida salmoq kasb etadi.

Cho'lponning adabiy-tanqidiy merosi bugun yana bir jihatdan katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, Sovet hokimiyati yillarida 1927 yildan boshlab roppa-rosa 50 yil maboynida hukmron mafkura muhiblari Cho'lponni ashaddiy millatchilikda ayblab keldilar. Go'yo uning butun ijodi millatchilik og'usi bilan zaharlangan, go'yo u hamisha rus xalqiga, uning madaniyati va adabiyotiga qarshi chiqqan, xalqlarning o'zaro hamkorligini, do'stona aloqalarda bo'lishini ko'rolmagan, go'yoki u o'zbek xalqini boshqa xalqlardan ajralgan holda, o'z qobig'iga o'ralib olib yashashga undagan va hokazo, va hokazo...

Cho'lpon ijodi bilan tanishganda, xususan, uning maqolalarini o'qiganda bularning bari behayo tuhmatdan, ashaddiy bo'xtondan boshqa narsa emasligiga ishonch hosil qilamiz. Aksincha, Cho'lponning butun ijodi kabi – adabiy- tanqidiy maqolalari ham shundan dalolat beradiki, shoir hamma xalqlarni birday hurmat qiladigan, ularning madaniy boyliklarini qadrlaydigan, an'alarini e'zozlaydigan Chinakam baynalmilalchi inson bo'lgan. U maqolalarida turli xalqlarning adabiyotdagi yutuqlarini, san'atdagi muvaffaqiyatlarini quvonib, yayrab targ'ib qilgan. Cho'lpon turk va hindlar, ozarlar va tatarlar, forslar va tojiklar haqida qanday ehtiros bilan qalam tebratsa, ruslar haqida ham, italyan, fransuz, ingliz, xitoy adabiyotining namoyondalari va namunalari to'g'risida ham shunday to'lqinlanib, hayajonlanib, to'lib-toshib yozgan. U faqat Pushkin va Tolstoy kabi klassiklar, yoki Meerxold va Vaxtangov kabi ulug' rejissyorlar to'g'risidagina emas, Gorkiy, Leonid Andreev, Lidiya Sayfulina kabi adiblar haqida ham maroq

bilan qalam tebratgan. Shunday ekan, turli xalqlarga, ularning madaniyatiga, o'zining hurmat-ehtiromini namoyon etayotgan odamni millatchi deb bo'ladimi? Yo'q, albatta.

Ayni choqda, Cho'lpon ijod sohasida, te'atr san'at sohasida Sharq ham benihoya boy, rang-barang tajribaga ega ekanini ta'kidlab, undan bahramand bo'lish, uni ijodiy o'zlashtirish eng zarur vazifalardan ekanini ko'rsatadi. "Mey Lan Fan" degan maqolada Cho'lpon Xitoy klassik san'atining biz uchun ibratli tomonlarini ajratib ko'rsatadi: "Mey Lan Fanning teatri juda ziyoli teatr. Uning direktori bilan director o'rinbosari professor darajasiga ega bo'lgan san'at olimlari. Mey Lan Fanning o'zini ham doktor deb ataydilar. Bu- ming yillarning teatri, bu- ana teatri, bu- yuksak san'at teatri. Biz hali shakl jihatidan yoshmiz. 15 yilligimizni endi o'tkazdik"...

Boshqa xalqlarning adabiyot va san'atidan o'rganishga da'vat etuvchi, ularga nisbatan ehtirom tuyg'ularini uyg'otishga qaratilgan bunday parchalarni Cho'lpon ijodidan ko'plab keltirish mumkin. Bularning bari Cho'lponning millatchiligi haqidagi safsatalarni rad etuvchi dalillardir.

Ha, Cho'lpon haqiqiy baynalmilalchi edi. Ayni choqda baynalmilalchilik unga buyuk millatparast bo'lishga halaqit bergan emas. Aksincha, Cho'lpon tabiatidagi bu ikki jihat bir-birini taqozo etgan, bir-biriga tayangan, bir-biriga suyangan, bir-birini to'ldirgan. Cho'lpon o'z xalqini juda sevar edi, chunki uning bugunini ham, o'tmishini ham juda yaxshi bilardi. Cho'lpon dunyodagi bironta xalqni kamsitmagan holda o'zbek xalqini boy tarix yaratgan, dunyoga buyuk san'atkorlar, shoirlar, olimlar, mutafakkirlar yetkazib bergan xalq deb bilardi.

Ba'zi bir Ovropalik kaltafahm va befarosat odamlar o'zbeklarni "osiyolik" deb tahqirlagan, ularni yarim yovvoyi tarzda hayot kechiradigan madaniyatsiz nodonlar deb chuvvos solgan, "mayda millat" deb pastga urgan bir sharoitda Cho'lpon bu xalqning mislsiz madaniyati, juda boy ruhiyati, bukilmas etiqodi va pok imoni, mazmundor tarixi uchun iftixor qildi va bu iftixorni ko'pgina asarlarida, shu jumladan, tanqidiy maqolalarida barilla aytishdan cho'chimadi. Tabiiyki, Cho'lponning otashin millatparvarligi uni millat istiqboli uchun qayg'urishiga

undardi, shuning uchun u millat badanidagi hali o'chmagan kishan izlari haqida fig'on qilar, tog'lari ko'klarga salom bergan zo'r o'lka boshiga ko'lanka tashlab turgan qora bulutlardan nafratlanar, na ohi, na faryodi bor, sustlashgan yuraklarni erk uchun, insoniy qadr-qimmat uchun kurashga chorladi. Bir zomonlar Pushkin o'z sozi bilan odamlar qalbida ezgulik tuyg'ularini uyg'otganidek, Cho'lpon ham ezilganlar va tahqirlanganlar yuragida erkka ishtiyoq tuyg'ularini uyg'otdi. U maqolalarida ham xalq qalbida milliy iftixor tug'ularini uyg'otishga alohida e'tibor berdi, bu yo'lda har bir imkoniyatdan foydalanishga harakat qildi. Negaki, milliy iftixor tuyg'usidan mahrum odam o'zligini tanishga intilmaydi, o'zligini tanimagan odam esa insoniy qadr-qimmat uchun kurashmaydi.

Cho'lpon 1924-yilda yozilgan "500 yil" maqolasida o'zbek adabiyotchilari ichida birinchi bo'lib Alisher Navoiyning 500 yillik yubileyini o'tkazish masalasini qo'yadi va birinchi marta o'laroq Alisher Navoiyning daho san'atkor ekani to'g'risida mulohaza yuritadi. Cho'lpon o'zbek xalqining Alisher Navoiy timsolida jahon madaniyati hazinasiga juda katta hissa qo'shganini ta'kidlaydi, va fikrini dalillash uchun mashhur turk yozuvchisi Shamsiddin Samibekning asarlariga murojaat qiladi. Shamsiddin Samibek Alisher Navoiyni "Usmonali adabiyotning eng ulug' vakili bo'lg'on Fuzuliydan" yuqori qo'ygan ekan. "O'z adiblariga 5-6 asrlik bir tarix yarata olgan xalqlar uncha ko'p emaslar" deb ta'kidlaydi Cho'lpon. Ayni choqda, o'zi iftixor qilish bilan cheklanmay, butun xalqni ham g'ururlanishga undaydi, o'zining buyuk siymolarini e'zozlashga chaqiradi va bu borada boshqa xalqlardan o'rnak olishga da'vat etadi: "Vatandoshlarimiz ruslar Pushkinning har besh yili uchun katta bayramlar yasaydilar, G'arbda esa unday bayramlar juda katta tantanalar bilan o'tkaziladi".¹

Bunday millatparastlik ruhi bilan sug'orilgan da'vatlar Cho'lponning boshqa maqolalarida ham ko'p uchraydi. Masalan, "Mirzo Ulug'bek" degan maqolasida tubjoy xalqi bunday ulug' siymolarni yetarli ardoqlamasligi to'g'risida taassuf bilan yozadi-da, ularni munosib taqdirlash masalasini qo'yadi: "Turkiston xalqi,

¹ Sharafiddinov O. "Cho'lpon". Tashkent, Cho'lpon, 1991.

ayniqsa, biz tubjoy xalq o'zimizning shu olim kishilarimizni sira esga olmaymiz. Uning nomiga birgina, bo'lsa ham xotira, nishona yo'q. Shaharlarda ochilgan maktablar bilangina u ulug' olamni taqdir qildik deb ayta olmaymiz. Sira, sira ayta olmaymiz".

Cho'lponning hasrat to'la bu so'zlari bugun ham ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Biz bugun ham boy madaniy merosimizni qadrlashni, avaylab asrashni, u bilan ich-ichdan iftixor qilishni o'rganib olganimiz yo'q. So'nggi yillarga qadar ham bir buyuk olimni podsho deb, ikkinchisini hukmdor deb, yana birini diniy-mistik deb, to'rtinchisini esa reaksion deb chiqitga chiqarib keldik. Holbuki, ularning har biri istagan xalqning madaniyatiga husn bo'la oladigan siymolar edi. 1992-yilning oxirida Madaniy yodgorliklarni saqlash jamiyatning s'ezdi bo'lib o'tdi. S'ezdda qilingan ma'ruzalarda har qanday odamni ham larzaga soladigan bir fakt ta'kidlanadi- so'nggi yillar mobaynida har xil sabablarga ko'ra minglab yodgorliklarimiz butunlay yo'q bo'lib ketayapti. Demak, hanuz bu masalaga bepisandlik bilan qarash davom etmoqda. Demak, hali ham madaniy merosimiz millatning mulki, xalq boyligi haqidagi fikr butun vujudimizga singib, e'tiqodimizga aylanib ketganicha yo'q.

Cho'lponda milliy iftixor tuyg'usi shu qadar o'tkirki, u biron o'rinda millat sha'niga aytilgan tahqirli gaplarni nazardan qochirmaydi. Birinchi qarashda, bunday ta'nalar yoxud pichinglar har qancha arzimas ko'rinmasin, Cho'lpon ular haqida o'z mulohazalarini aytadi va yaraning gazak olishining oldini olganday bo'ladi. Bir misol keltiraylik. Cho'lponning 1924-yilda yozilgan va "Farg'ona" gazetasida bosilgan bir maqolasi bor. "Qalamning toyilishi" deb deb atalgan bu maqola adabiy-tanqidiy maqola emas, biroq u Cho'lponning o'z xalqining milliy tuyg'ularini, sha'nini nechoglik sezgirlik va hushyorlik bilan ximoya qilganini yaxshi ko'rsatadi. Maqolaning yozilishiga sabab bo'lgan voqea shuki, Moskvada Glavxlopokom degan tashkilot paxta haqida bir kitob chiqaripti-da, unda "russkiy xlopok" degan ibora qo'llabdi. Toshkentda chiqadigan "Turkistanskaya pravda" gazetasi esa bir maqolada "Russkiy pamir" deb ishlatibdi. Shunga o'xshash birinchi qarashda g'ayri mantiqiy ko'ringan, aslida esa ba'zi bir shovinistlarning

o'zbek xalqiga mensimay qarashi, Turkistonga otasidan qolgan mulkiday munosabatta bo'lishini ifodalovchi iboralar Cho'lponni qattiq g'azablantiradi. "Russkiy xlopok" deyish mumkin bo'lsa, nima uchun "russkiy Turkiston" deyish mumkin bo'lmasin? Deya istehzo bilan so'raydi. Cho'lpon va maqola davomida rus chorizmining mustamlakachilik siyosatini oqlashga urinuvchilarni qattiq fosh qiladi. Cho'lpon o'z maqolasida Turkiston iqtisodiy sho'rosi chiqargan "Statisticheskiy yejegodnik"dan quyidagi parchani keltiradi: "Turkistonni olgan rus podsholari uni mustamlaka qilmoq uchun muayyan reja bilan iqtisodiy zarurat orqasida olg'onlari yo'q. Balki Rossiya chegaradosh bo'lg'on kabilar rus savdo karvonlarini talab, ha deb besaranjom qila bergandan keyin, shularni bosamiz deb aylanishib kelib qolg'on". Cho'lpon chorizmning bunaqa himoyachilarini fosh qilar ekan, Turkistonning mustamlaka bo'lganini Oktabr ideologlari ham tan olganini eslatib o'tadi.

Cho'lpon boshqa masalalarda ham, jumladan, madaniyat borasida ham xalqqa o'rinsiz ta'nalar qiluvchi, asossiz ravishda uning "nodonligi" yoki "madaniyatsizligi"ni pesh qiluvchi odamlarni ham tanqid qiladi. Bunda ham Cho'lpon uchun arzimaydigan gap yo'q, u yo'l-yo'lakay aytilgan gap so'zlarga javob berishni ham burchi deb biladi. 20-yillarda ham ba'zi spektakllarga tomoshabin ham qatnagan ko'rinadi. Shu sababdan bo'lsa kerak, "xalq teatrga yurmaydi" degan gap to'g'ri emas. Xalq yurdilar. Lekin teatr-tomosha ismida bo'laturg'on qo'g'irchoq o'yinlariga, o'z ruhiga yot bo'lgan, unga anglashilmayturgan tarjimalik "g'arbiy" asarlarga yurmasa haqi border. Yo'q esa, o'zini qiziqtiradigan zaminlarda yozilgan va yaxshi o'ynalaturg'on tomoshalarga xalq yuradir".

Cho'lponning millatparastligi, milliy iftixor tuyg'usining o'tkirligi unga madaniyat, san'at, adabiyot hodimlarini ob'yektiv baholashga halaqit bergan emas. Kerak o'rinlarda Cho'lpon madaniy siyosat bobidagi nuqsonlarni keskin tanqid ham qilgan, xalq turmushidagi, urf-odatlaridagi, dididagi kemtiklarni ochiq aytishdan ham sira tortingan emas. Demak, Cho'lponning 20-yillardagi maqolalarida namoyon bo'ladigan millatparastligi shunchaki g'ayri shuuriy,

stixyali, “biologik” tuyg‘u va u o‘z navbatida Cho‘lponning baynalmilalchiligiga qanot bo‘lgan.

Cho‘lpon, albatta, professional tanqidchi bo‘lgan emas. Shuning uchun uning 20-yillarda va keyinroq yaratgan hamma tanqidiy maqolalarini beistisno bu janrning noyob va bekamu ko‘st namunalari deb bo‘lmaydi. Cho‘lponning tanqidiy merosida bugun eskirgan yoxud anchagina jo‘n ko‘rinadiganlari ham bor. Lekin shunga qaramay, uning baquvvat maqolalari ham, nisbatan zaifroq ishlari ham adabiyotimiz tarixining faktlari sifatida biz uchun g‘oyat qimmatlidir.

1935 - yilda “Guliston” jurnalida Cho‘lponning “Ashulaga ishqiboz” degan maqolasi bosildi. Bu maqola iste‘dodli yosh xonanda Halima Nosirovaga bag‘ishlangan edi. Cho‘lpon Halimaxonning qo‘shiqchilik san‘ati haqida teran bir samimiyat bilan zavqlanib hikoya qilar ekan, uni porloq istiqbol kutayotganini bashorat qiladi. Chindan ham Cho‘lponning bashorati to‘la amalga oshdi-keyinchalik Halima Nosirova o‘zbek san‘atining eng porloq yulduzlaridan biri bo‘lib qoldi. Ammo gap hozir bu to‘g‘rida emas. Maqolani o‘qiyotgan bugungi kitobxon bir nuqtaga yetadi-yu, ravon yo‘lda behosdan qoqilib ketgan odamday sapchib tushadi: “inqilobning fayzli qo‘llari tegmasa, Halima bugun ko‘rib turganimiz talantli, boshqa ko‘p noyob talantlarimiz singari to‘rt devor orasida qolib, zabun bo‘lardi”.

G‘alati gap-ku? “Inqilobning fayzli qo‘llari” nima degani? Nahotki, Cho‘lpon ham iste‘dodning ro‘yobga chiqish- chiqmasligini inqilob samarasiga bog‘lab qo‘ysa? “Hayotda nimaiki ijobiy narsa bo‘lsa hammasiga Oktabr sharofati bilan erishdik”, - degan gap Sovet hokimiyati yillarida keng singdirilgan bir afsona-ku! Nahotki, Cho‘lponday odam ham, shu afsonaga laqqa tushgan bo‘lsa, nahotki, u ham o‘z e‘tiqodlariga hiyotan qilib, Sho‘roning do‘mbirasiga o‘ynagan bo‘lsa? Yoki bunday murosasizlik Cho‘lpon maqolalarida faqat bir marta uchraydigan tasodifmikan? Unday desak, bunga o‘xshash mulohazalar boshqa maqolalarda ham uchrab qoladi. Masalan, “Epizodik rollar ustasi” (1934) degan maqolada, Cho‘lpon “yaxshi teatrlar yolg‘iz “katta” rollarda o‘ynovchi aktiyorlar bilangina yashamaydi”, degan to‘g‘ri mulohazani aytadi-da, sira kutilmaganda va

birov-bir ichki zaruriytsiz davom etadi: “Ayniqsa, bizning buyuk elimizda!.. G‘arbda san’atkor taqdir etilgan uchun mutlaqo “Yulduz” bo‘lmog‘i kerak, yo go‘zal xotin! Bizda esa kimning quvvati va qudrati iste’dod va hunariga yarasha joy va hurmat ta’min etilgan!”

Bunday taqqoslar sovet hokimiyati yillarida juda keng tarqalgan bo‘lib, “kecha va bugun”, “bizda va ularda” degan shakllarda qilinib va har gal “kecha yomon edi, bugun yaxshi”, “ularda yomon, bizda zo‘r” degan mazmunga ega bo‘lardi. Bu ham hukmron mafkura tomonidan sovet turmush tarzining “ulug‘ligini” tasdiqlashga xizmat qiluvchi soxta rivoyatlardan biri edi. Xo‘sh, buni qanday tushunish kerak? Demak, Cho‘lpon ham hukmron mafkuraning xizmatini qila boshlagan ekan-da?!

Albatta, yuqoridagi o‘xshash parchalar bugun bizga erishib tuyuladi, bizning Cho‘lpon haqidagi bugungi tasavvurimizga to‘g‘ri kelmaydi. Lekin bunda bevosita Cho‘lponning aybi yo‘q. Bunga ko‘proq biz- adabiyotshunoslar aybdormiz. Cho‘lponga nisbatan o‘tmishda yo‘l qo‘yilgan adolatsizliklar va jabr-zulmni biroz bo‘lsada o‘rtadan ko‘tarish uchun bugungi adabiyotshunoslar Cho‘lponga alohida mehr – muhabbat bilan ish yuritmoqdalar. Bu muhabbat mutlaqo qonuniy va o‘rinlidir. Biroq ayrim o‘rinlarda muhabbat zo‘rayib ketib, ob‘ektivlikka putur yetkazib qo‘yayotganga ham o‘xshaydi. Biz ba‘zan faktlardan ham ko‘z yumib, Cho‘lponni ideallashtirishga, o‘zi yashagan zamindan uzib olib, zamonaviylashtirishga harakat qilayapmiz. Buning oqibatida bugun bizda Cho‘lpon haqida muayyan tasavvur shakllanib qoldi. Unga ko‘ra Cho‘lpon hech qachon sovet voqeligini qabul qilmagan, hech qachon hukmron mafkura ta’siriga berilmagan, zamonasozlik qilmagan, tuzum bilan murosi-madoraga bormagan. U yakkash millatparast bo‘lgan, yakkash isyonchi bo‘lgan va sovet tuzumini ag‘darishga chaqirib o‘tgan. Menimcha, Cho‘lponni bunday qiyofada ko‘rsatish uni soxtalashtirishdan, pardoqlab, jonli odam qiyofasidan mahrum qilishdan boshqa narsa emas. 70 yil mobaynida hukmron mafkurasiga sidqidildan xizmat qilgan adabiyotshunoslik “ilmi” adabiyotimiz tarixini yetarli darajada soxtalashtirib keldi. Shoirlar va adiblar siyratini esa pardoqlab, avliyo sifat qilib

tasvirladi. Buning natijasida adabiy jarayon haqida ham, yozuvchi va shoirlar to'g'risida ham bir tomonlama, noto'g'ri va hatto soxta tasaavvurlar shakllandi. So'nggi yillardagina bu ilmda haqqoniylik va holislik printsplariga amal qilish imkoniga ega bo'ldik. Shundoq ekan, bugun eski xatolarni takrorlamaslik kerak, hatto yaxshi niyat bilan bo'lsa-da, Cho'lpon va unga o'xshash san'atkorlarni ideallashtirmasligimiz zarur. Haqiqiy iste'dod egasi hech qachon jo'ngina formulaga tushadigan yuzaki odam bo'lmaydi. Uning hayoti hamisha oshkora va pinhona kurashga, kashfiyotlarga va yo'qotishlarga, dramalar va fojealarga to'la bo'ladi. Chinakam iste'dod egasi muttasil izlanishda bo'lgani uchun, hamisha haqiqat qidirib yashagani uchun birda insonning ulug'ligi oldida boshi ko'kka yetguncha g'ururlanib kekkaysa, birda insonning razolati va tubanligi qarshisida hafsalasi pir bo'lib, umidsizlikka tushmog'i mumkin. Haqiqiy adabiyotshunoslik esa san'atkor shaxsiyatidagi ana shu murakkablikni siljishlarni, ko'tarilish va tushishlarni, fazilatlar va qusurlarni topib ko'rsata bilmog'I lozim. Odamlarga san'atkorning yuzida xoli bo'lganmi-yo'qmi, necha marta uylangan, maishatni yaxshi ko'rganmi-ko'rmaganmi kabi tafsilotlarning uncha qizig'i yo'q, ammo zamon tegirmoni san'atkorni ezib yubordimi yoxud san'atkor undan ustun keldimi, u inson haqida qanday izlandi va bu izlanishlari jarayonida qanday iztiroblandi, uning ma'naviyati qanday bosqichlarni bosidan kechirdi- mana bu masalalar hamma uchun ibratli. Shuning uchun Cho'lponni ham real shaxs sifatida, insonga xos fazilatu nuqsonlardan xoli bo'lmagan odam sifatida qabul qilmog'imiz kerak. Muayyan zamonda muayyan jamiyat qo'ynida yashagan va tabiiyki, bu jamiyatdan tashqariga chiqib ketolgan emas. Cho'lponga ob'ektiv yondashish, uning shaxsiyatini, ijodini xolisonilillo baholash uni mutlaqo kamsitmaydi, balki bizning yuraklarga yaqinroq qiladi. Shundoq ekan, Cho'lponning badiiy ijodidami yoxud adabiy-tanqidiy maqolalaridagi hukmron mafkura g'oyalariga yon berilgan o'rinlarni, Cho'lpon ijodining boshqa sahifalariga zidroq keladigan parchalarni ko'rganda bir sapchib tushib, uning nomiga malomat toshlarini otishga shoshilmaslik kerak. Biz aks, uni tushunmoqqa harakat qilaylik. Bu mulohazalar faqat Cho'lponga emas, balki Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon, Abdulla

Qahhor, Shayxzoda, Mirtemir kabi ko'p yillar mobaynida adabiyotimizning chinorlari hisoblanib kelgan, keying yillarda esa o'rinli-o'rinsiz ta'na-dashnomlarga ro'para kelayotgan odamlarga ham taaluqli.¹

Cho'lpon ham boshqa ko'pgina iste'dod sohiblari kabi sovet hokimiyati yillarida to'rga ilingan baliqday hukmron mafkura domiga ilinib, undan qutulish ilinjida tahlkada tipirchilab yashashga majbur bo'lgan. Ayniqsa, bolsheviklar tuzumi muruvvatlarni qattiq tortilganda cho'lponlar omon qolmoq uchun zamona zayliga qarab ish yuritishga majbur bo'lgan. Agar 20-yillarning boshlarida hali adabiyot va san'at sohasida nisbatan jinday erkinlik mavjud bo'lgan bo'lsa, hali adabiyotda bir-biridan farq qiluvchi oqimlar yashayotgan va ular bir-biridan farq qiluvchi g'oyalarni olg'a surayotgan bo'lsa, 20-yillarning ikkinchi yarmida jinday-jinday toza havo kirib turgan teshiklar batamom yopib tashlandi. Ayniqsa, Markaziy Komitetining 1925-yil 18 iyun qaroridan keyin "proletar adabiyotning gegemonligi" uchun kurash juda qizg'in tus oldi. Buning oqibatida ijodda har qanday erkinlikka yo'l qo'yildi. Yangi paydo bo'lgan RAPP tashkiloti ham o'zining vulgar sotsiologik qarashlari bilan hukmron mafkuraning tegirmoniga suv quydi. "Mafkuraviy sog'lomlik uchun", "Yot mafkuralarga qarshi kurash" shiori ostida adabiyotdagi va san'atdagi har bir mustaqil kuch, har bir yil etgan iste'dod egasi shafqatsiz tazyiq ostiga olina boshladi. Bunga bo'y bermagan, bo'lar bo'lmas rivoyatlarni, yolg'on-yashiq afsonalarni qabul qilmagan adabiyotchilar boshi ustida esa hech mubolag'asiz o'lim xavfi qanot yoza boshladi. Hukmron mafkura o'z aqidalarini NKVD-yu , GPUlar orqali zo'rlik bilan, qurol kuchi bilan o'tkaza boshladi. Bunday sharoitda har qanday ijodkor ham tabiiy ravishda jonini saqlab qolish yo'llarini qidira boshlaydi. Ba'zilar ko'proq, ba'zilar kamroq darajada zamonasozlik yo'liga o'tadi. Shular qatorida Cho'lpon ham bor edi. Xo'sh, buning uchun Cho'lponni qoralash mumkinmi? Nega u mardona ravishda o'zini o'qqa tutib bermadi?- deya unga ta'na qilish mumkinmi? Menimcha, yo'q. Chunki o'z-o'zini saqlash instinkti- insoniyat tabiatida, qonida, shuurning allaqaysi pinhona puchmoqlarida har qanday odam ham xatarga, o'lim xavfiga duch kelganda, hatto

¹ Cho'lpon. "Yana oldim sozimni". Tashkent, Literature and art, 1991.

istamasa ham, himoyalanish, o'zini asrash yo'liga o'tadi. Ijodkor odam ham bundan mustasno emas. Buni o'z e'tiqodidan chekinish deb qarash kerak emas. Cho'lpon e'tiqodidan chekingani yo'q. Avvalo shuni aytish kerakki, mustabidlik tuzumi avj olib, hukmron mafkuraning hurujlari kuchaygan sari, ayniqsa 30-yillarning boshidan boshlab, adabiyotda "Sovet voqeligini madh etish, partiyaning rahbarlik rolini ulug'lash, dohiy obrazini yaratish" deganga o'xshagan xodisalar juda keng quloch yoydi. Bu yo'lga kirmagan shoir-u yozuvchilar ochiqdan-ochiq aksil-inqilobchi, millatchi shoirlar sifatida qaralardi. Buni qarangki, Cho'lpon butun ijodi davomida bironta she'rida Stalinning nomini tilga olmadi, hatto bir necha yil qantargach, sozini yana qo'lga olib, ya'ni "Sovet pozitsiyasiga" o'tib yozgan she'rlarida ham bunday qilmadi. To'g'ri, "So'z" to'plamiga kirgan she'rlar ichida "g'oyaviy" she'rlar ham bor- ularning ayrimlari inqilobga, partiya qurultoyiga, yangi hayotga bag'ishlangan. Biroq ular badiiy jihatdan Cho'lponning asl she'rlaridan zaifroq bo'lsalar-da, oshkora xushomaddan yoxud hamdu-sanodan uzoq she'rlar. Aftidan, Cho'lpon bitta yaxshi she'rni yashatish uchun o'sha sharoitda hukmron mafkuraga jinday yon berib, ikki- uchta "g'oyaviy" she'rlar bitgan ko'rinadi. Uning adabiy – tanqidiy maqolalari ham shunaqa. Faqat ba'zi maqolalardagina, yuqorida ko'rganimizdek, u hukmron mafkuraning ba'zi bir "qo'shiqlari"ni kuylagan bo'lsa ehtimol. Buning uchun Cho'lponni qoralash, uning merosining ayrim qismidan voz kechish mumkin emas.

Aytishlaricha, olim biror olamshumul kashfiyot yaratsa, uni xalqqa anglatmoq uchun bu kashfiyotni tafakkur yuksakliklaridan kundalik turmush zaminiga olib tushmog'i, mavhum va murakkab formulalar tilidan jo'n, ko'nikilgan tushunchalar, oddiy tasavvurlar tiliga ko'chirmog'i lozim. San'atda esa buning aksi. Shoir ham olamshumul kashfiyotlar qiladi- betakror ranglarga, maftunkor jilolarga, sehrli ma'nolarga, durdona hikmatlarga to'la go'zal dunyo yaratadi. Biroq bu dunyoni anglamoq va anglatmoq uchun jo'nlashtirib, oddiy maishiy tilga ko'chirib bo'lmaydi. Jo'nlashtirishimiz bilanoq go'zallik g'oyib bo'ladi, asarning sehru jodusi yo'qoladi, hozirgina sizni larzaga solib tiradigan poetik misralar beta'sir so'z tizmalariga aylanadi... Shoir yaratgan kashfiyotni

anglamoq uchun odam, albatta, o'sha kashfiyot yuksakligiga ko'tarilmog'i shart. Odamning yuragi shoir yuragi bilan bir maromda tepsagina, odamning yuragi ham shoir yuragidagi nafosatga tashna bo'lsagina, muallif yuragidek go'zallikka eshiklarini lang ochib qo'ysagina inkishof etgan oily go'zallikni idrok etmog'i mumkin. Bu esa g'oyat murakkab ish.

Albatta, hamma ham shoir ko'tarilgan yuksakliklarga ko'tarilish baxtiga muyassar bo'lavermaydi. Axir, "xalq" degan tushuncha tez-tez tilga olinib turilsada, hech qachon har jihatdan teng, yaxlit bir kuchni anglatmaydi. Hamisha xalq bor, olomon bor, avom bor, oriflar bor... Odatda, qalbi uyg'oq, haqiqatga va go'zallikka tashna oriflarga shoir yaratgan nafosat olamini idrok qiladilar va g'ofillarni uning go'zalliklaridan ogoh etadilar. Shu tariqa shoirlar yaratgan go'zallik xalq mulkiga aylanadi va uning ma'naviy dunyosining yuksalishiga xizmat qiladi. Afsuski, yuqorida aytilganidek, bu jarayon sira-sira oson kechmaydi- o'zining anglanilmaganidan zorlangan, qadrsizligidan shikoyatlar qilgan, zamondoshlarining mehrsizligidan iztirob chekib o'tgan shoirlar ozmunchami?! Hatto, Pushkinday shoir ham qator she'rlarida go'zallik ko'chasiga yaqin yurolmaydiganlarni "avom" ("chern") deb atab, ularga nafratini izhor qilgan edi. O'z vaqtida Pushkini "buyuk xalq shoiri" deb atagan "marksist" adabiyotshunoslar esa shoirning bunday "shakkokligini", "xalqqa nisbatan mutakkabbirligi"ni "sinfiylik" qoliplariga sig'dirolmay rosa xunob bo'lgan edilar. Holbuki, buni izohlash qiyin emas edi- buning uchun "go'zallikning ilohiy dargohlariga ko'tarilish hammaga ham nasib etavermaydi" degan haqiqatni e'tirof etish kifoya edi.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon ham o'ziga xos betakror she'riyat olamini yaratishga qodir bo'lgan va yaratgan ulug' shoirlar sirasidandir. U ijodini 1914- yildan boshladi, biroq uning parvozi 20- yillarga to'g'ri keldi. Ayniqsa, 1920-1927 yillar mobaynida Cho'lpon ilhomi jo'shqin buloqday qaynab- toshdi, po'rtanaday qirg'oqlarga sig'may ko'pirib jo'sh urdi- u uchta she'riy to'plamidan tashqari, ko'plab she'rlar, hikoyalar, maqola va ocherklar yaratdi, o'nlab dramatik asarlar yozib, adabiyotimiz xazinasini qator barkamol tarjimalar bilan ham boyitdi.

Ana shu asarlari uni favqulottda yuksak baholashga asos bo'ldi. Ayniqsa, horijdagi ba'zi bir adabiyotshunoslar shoir ijodining mohiyatini xolislik bilan to'g'ri belgilashga harakat qilishdi.

Ular Cho'lponni haroratli, ayni paytda nihoyatda hassos, qalbi nozik va shu boisdan bo'lsa ajab emaski, qo'rqmas san'atkor edi deb baholashdi. Ularning fikricha, Cho'lpon o'zini xalqdan ayri holda, she'riy ilhom bulogi bo'lib xizmat qilgan zamondoshlarining hayoti, ma'naviy dunyosidan tashqarida deb tasavvur ham eta olmaydi. Cho'lpon lirikasining butun ohanglari ana shu holatdan kelib chiqadi. Endi ana shu buyuk shoirning taqdiriga bir nazar tashlaylik. Dunyodagi istagan adabiyot adabiyotning iftixori bo'lishga arziydigan, har qanday jamiyatda Xudo ato etgan buyuk iste'dod egasi tarzida qabul qilinadigan, "ustoz", "muallim" sifatida e'zozlanishi mumkin bo'lgan Cho'lponning qismati qanday bo'ldi? Ma'lumki, "o'zini xalqdan ayri holda, zamondoshlarining hayoti, ma'naviy dunyosidan tashqarida deb tasavvur ham qilolmaydigan" bu shoir deyarli yetmish yil davomida qoralanib kelindi. Bu davr mobaynida shoir sha'niga aytilmagan bo'xton qolmadi; uni qoralash, tahqirlash bobida kim o'zar musobaqalar avj oldi. Yuzlab maqolalarda, kitoblarda, ma'ruzalarda unga "burjua shoiri", "jadid", "mafkurasi buzuq", "bosmachilar kuychisi", "millatchi", "aksilinqilobchi", "Oktabr inqilobini tushunmagan ovsar", "yoshlar ongini zaharlovchi yot unsur", "xalq dushmani" va yana allanima balolar degan tavqi la'nat yopishtirildi. Bir yil emas, o'n yil emas, salkam yetmish yil davomida-ya! Savol tug'iladi: nahotki, shuncha yil mobaynida o'zbek xalqiday ko'p sonly xalq ichidan Cho'lponni anglay oladigan, uning chinakam ulug' shoir ekanini idrok etgan va bu haqiqatni aytishdan cho'chimaydigan bironta ham orif odam topilmadi? Nahotki, bizning xalqimiz o'z oldida oqqan suvning qadriga yetmaydigan bu qadar noshukur xalq? Nahotki, bizning odamlarimiz go'zallik qarshisida shunchalar so'qir va kar? G'oyat qiyin va murakkab savol. Negaki, sovet zamonasida biz xalq to'g'risida ko'pincha umumiy, tumtaroq, balandparvoz gaplar gapirib o'rganib qolganmiz-xalq dono, xalq ulug', xalq bag'ri keng, xalq yaratuvchi, xalq ijodkor va hokazo... ammo xalqning tafakkuri cheklangan, madaniy saviyasi chatoqroq, xalq o'zining

asl farzandlarini uncha e'zozlamaydigan ekanini aytib bo'lmadi yoki aytilmasdi. Bunaqa gaplar haqmi, nohaqmi ekanidan qat'i nazar- xalqqa hurmatsizlik, uning sha'niga tuhmat, deb hisoblanardi. Holbuki, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Fitrat, Usmon Nosir, Habib Abdulla... (yana qanchadan qancha umri fojialar ichida kechgan buyuklar nomini eslash mumkin) ularning hayoti, fojeasi xalqning ko'z o'ngida kechdi-ku! Biroq xalq og'ziga talqon solib olgandek churq etmay sukut saqlardi, oddiy tomoshabin bo'lib turardi, turardigina emas, kezi kelganda, masalaning mohiyatiga yetmay, bilib-bilmay, chapaklar chalib, "millatchilarga o'lim!" deya bo'g'ila-bo'gila hayqirib qo'yardi. Ha-ha, ko'zlari g'azabdan qonga to'lib, og'izlaridan tupuklar sachratib, jazavaga tushib hayqirardi. Afsuski, shunda "Hay birodarlar! Nima qilayapsizlar ? Bular, axir, millatning guli-ku! Bular millat yo'lida jon fido qiluvchi qahramonlar-ku!" deya ovozi ko'targan bironta azamat chiqmadi. Ha, bu- faqat, bu ko'z yumib bo'lmaydigan haqiqat. Biroq, ana shu achchiq haqiqatga qaramay, "yetmish yil davomida xalqimiz ichidan Cho'lponni anglashga qurbi yetadigan odamlar mutlaqo chiqmadi" degan gapni aytishga ham til bormaydi. Negaki, juda kam bo'lsa-da, bunday azamatlar bor edi. Yuqorida maqolasidan parcha keltirganimiz Boymirza Hayit bilan bir qatorda tatar- boshqird madaniyatining yirik arbobi Zakiy Validiy, o'zbek muhojirlarining rahnomalaridan biri Vali Qayumxon, 20-yillarda Berlinga o'qishga borib, o'sha yoqlarda qolib ketgan doktor Ibrohim Yorqin va boshqalar Cho'lpon haqida juda yuqori fikr bildirishgan. Uni XX asrning eng iste'dodli san'atkorlaridan biri deb atashgan. Ammo shunisi borki, ularning hammasi o'z fikrlarini xorijda turib aytishgan va bizning sotsialistik Vatan bilan xorij o'rtasidagi g'oyat baland, g'oyat yuksak temir devor tufayli ularning fikrlari bizgacha yetib kelgan emas. Xo'sh, bizdachi? O'zimizda Cho'lpon to'g'risida biron – bir xolis fikr, biron-bir iliq gap aytilganmi? Ha, o'zimizda ham aytilgan bunday fikrlar. Shunday zamonlar ham bo'lganki, Cho'lon asarlari tanqidchilik tomonidan iliq kutib olingan, ularga ijobiy munosabat bildirilgan.

Cho'lpon haqida matbuotda birinchi bo'lib iliq fikr bildirgan olim Zarif Bashariy bo'lgan edi. Bu odam asli Tataristondan bo'lib, 20- yillarda

O'zbekistonda yashagan, o'zbek tilida ko'plab maqolalar yozgan, hikoyalar e'lon qilingan, tabdillar qilgan, o'sha davr munozaralarida faol qatnashgan, hatto zamonaviy o'zbek adabiyotidan majmua tuzib, uni 1929 yilda Qozonda bostirib ham chiqargan edi. Zarif Bashariy 1923 yilning 4 may kuni "Turkiston" gazetasida Cho'lponning birinchi to'plami "Uyg'onish"ga taqriz e'lon qiladi. U taqrizning boshidayoq "Cho'lpon o'rtoq keying davrdagi o'zbek shoirlaridan eng oldingisi va chin ma'nosi bilan shoir deb atalishga loyiq bo'lganidan uning she'rlarini chin adabiyot va she'r ko'zi ko'zi bilan ko'rib, tekshirish va tanqid qilishga yaraydir" deydi va shundan so'ng "Cho'lpon o'rtoqning chin yurak va his shoiri", ya'ni hassos lirikligini aytib, bu fikrni tasdiqlovchi misollar keltiradi. Munaqqid tahlil yordamida Cho'lpon she'rlaridagi tasviriylikni, tuyg'ular teranligini, so'z qo'llash mahoratining yuksakligini ko'rsatadi.

Boshqa bir munaqqid Vadud Mahmud ham "Buloqlar" to'plamiga yozgan taqrizida "bugungi o'zbek adabiyotiga yangi bir to'n kiygizildi" deydi va bu "to'nni kiygizgan" odam Cho'lpon ekanini ma'lum qilib, "Buloqlar" to'plamining badiiy sifatlari haqida mulohaza yuritadi. Munaqqid "Amalning o'limi" degan she'rdan parcha keltirib, unda "qancha she'riyat, qancha ohang uyg'oq" ekanini tasdiqlaydida, shu bilan birga yurtning dardini, qullarning ingragan jonlar bo'lishini, ko'nglida yiglagan malaklarning sharq onalari, juvonlaridan iborat ekanini qancha ochiq, muassir ijod bilan tasvir etadir" degan fikrni bildiradi. Bu parchada Vadud Mahmud junday bayonchilikka yo'l qo'yayotgan esa-da, u Cho'lpon she'riyatining mohiyatiga ancha kirib borgan deyish mumkin.

1924- yilda "Zarafshon" gazetasining ikki sonida "O'bek yosh shoirlari", "Cholpon" degan maqola bosildi. Uning muallafi Abdurahmon Sa'diy Cho'lpon ijodini ancha batafsil tekshiradi va shoirni juda "qisqa bar ta'rif bilan" "u yonadur ham yondiradur" deb ta'riflaydi. Maqolada Cho'lponning "chin ma'nosi bilan romantik bir yurak shoiri (lirik)" ekani ham dalillar bilan ochib berilgan.

Xuddi shuningdek, juda ixcham shaklda bo'lsa ham Abdulla Qodiriy Cho'lponning "Tong sirlari" kitobiga yozgan shapaloqdekkina so'z boshisida matbuotda Cho'lpon sha'niga aytilgan "Cho'lpon yig'loqi shoirdir" degan ta'na-

dashnomlarni rad etadi, shoir she'rlarida ko'z yoshi ko'p uchrasa-da, Cho'lpon "ulardan chechaklar undirmoqchi ekanini" aytadi.

Cho'lpon haqidagi ilk maqolalarning yana bir mushtarak xususiyatlari shundaki, ularning mualliflari shoir she'riyati haqida batamom holis fikr yuritishga intiladilar. Shuning uchun taqrizlarda Cho'lponning kuchli tomonlari bilan birga nuqsonlari, zaifliklari haqida ham fikr yuritiladi. Bu vazifalar har xil, ammo ikki maqolada bir nuqson ta'kidlanadiki, keyinchalik ayni shu "nuqson" Cho'lpon she'riyatini butunlay qoralash uchun asosiy dalillardan bo'ldi.

Zarif Bashariy yozadi: "Cho'lpon o'rtoq "el" va "xalq" so'zlarini qancha ko'p yozsa va so'zlasa ham, ul xalq shoiri emas. Xalqqa yaqin bo'lgan ziyolilar shoiridir. Uning uslub va ruhida xalqchilik juda oz".

Oradan bir yil o'tkazib maqola e'lon qilgan Abdurahmon Sa'diy yozadi: "Cho'lon omma-xalq shoiri emas, o'qimishlilar, ziyolilar shoiridir. Uni ommajalpi xalq tez anglaydi. Lekin shuning barobarinda, u xalq qayg'usi bilan (faqat hech bir sinfga ayirmasdan) yozg'uvchi "xalqchi" (narodnik) bir shoirdir. Cho'lponda asl ko'zga qattig' berilib turg'on tub xususiyat ham shundadir".

Bu o'rinda shuni aytmog' joizki, bu gaplar yozilgan vaqtda, ya'ni 1923 va 1924 yillarda hali "xalq shoiri emas, ziyolilar shoiri" degan tasdiq siyosiy aybdoy qabul qilinmas edi. Shuning uchun bu "ayblar" uncha katta aks sado bermay o'tib ketgan U keyinchalik esa "xalq shoiri emas, ziyolilar shoiri" bo'lish shoirni gap-so'zsiz o'lim chohining labiga olib boradigan dahshatli siyosiy aybga aylangan. Bu to'g'rida o'z o'rnida batafsil gaplashamiz. Hozir esa, Cho'lpon haqidagi ilk taqrizlar munosabati bilan yuritgan mulohazalarimizga yakun yasaylik- bu taqrizlar har qancha xolisona yozildan bo'lmasin, ularning hammasidan ham yangi chiqqan yosh shoirga nisbatan mehr va e'tibor har qancha barq urib turmasin, ularni biz Cho'lponni anglash yo'lidagi biron-bir jiddiy yutuqlar deb atay olmaymiz. Ular juda yorlaqaganda Cho'lpon yuksakligiga olib boruvchi ulkan zinaning birinchi pillapoyalari edi, xolos. Ehtimol, muayyan sharoit bo'lsa, jamiyatning manfaatdorligi sezilib tursa, yaratgan olamning ba'zi bir jiddiy qirralarini kashf etish ham mumkin bo'lardi. Ammo bunday bo'lmadi, aksincha bo'ldi. Cho'lponni

anglash yo'lida qo'yilgan ilk qadamlar qo'yib ulgurilmay, shu on bo'g'ildi. Cho'lponni anglash uchun uning yuksakligiga ko'tarila olgan she'riyat shaydosi, yuragi tom ma'noda go'zallik va nafosat ishtiyoqida yongan otashin orif odam yana topilmadi. Nega? Yo'limizda yana ko'ndalang bo'layotgan bu qonuniy savolga javobni keyinga qoldiraylikda, Cho'lpon tevaragida o'sha kezlarda yuz bergan g'aroyib voqealarga yuz o'giraylik.

“Tong sirlari”da Abdulla Qodiriyning muqaddimasi e'lon qilingandan keyin bir yil o'tar-o'tmas, 1927- yilning 14 fevral kuni “Qizil O'zbekiston” gazetasida Ayn imzosi bilan “O'zbek shoirlari, Cho'lpon” degan maqola bosildi. Maqola so'ngida ilova tarzida bosilgan izohda tahririyat shu maqola bilan Cho'lpon haqida bahs boshlanganing ma'lum qilgan va “barcha qiziqqan o'rtoqlar”ning bahsda ishtirok etishga da'vat etgan edi. Bunday “o'rtoqlar” ko'p zoriqtirmay topila qoldi-oradan ko'p o'tmay, gazeta sahifalarida 22 yoshli Oybek “Cho'lpon. Shoirni qanday tekshirish kerak?!” degan maqola bilan chiqdi. Undan keyin esa Usmonxon bahsga aralashdi- u “Munaqqidning munaqqidi” degan maqolasida Oybekning qarashlarini keskin tanqid ostiga oldi. Oybek munozarada yana bir marta so'z olishga majbur bo'ldi- u gazetaning 1927 yil 29 avgust sonida “Munaqqidning munaqqidi” maqolasining egasiga” degan maqola bilan chiqib, o'z qarashlarini himoya qildi. Shu maqola bilan bahs to'xtaydi-unga yakunni o'sha yili oktabr oyining 4-5 kunlarida Samarqandda o'tgan O'zbekiston madaniyat xodimlarining II qurultoyida ma'ruza qilgan O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining Birinchi kotibi Akmal Ikromov yasaydi.

Men qat'iy aminmanki, faqat Cho'lpon taqdiridagina emas, balki butun yosh o'zbek adabiyotining keying rivojini belgilashda, shuningdek, adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilikdagi yo'nalishlarni ma'lum izlarga solib yuborishda bu baxsning roli benihoya katta bo'ladi. Shuning uchun uning mazmuni haqida, qanday masalalar atrofida bahs ketgani to'g'risida, qanday xulosalarga kelingani va adabiyotga kirib kelayotgan yosh ijodkorlarga qanday yo'l-yo'riqlar berilgani borasida batafsilroq mulohaza yuritsak foydadan xoli bo'lmas. Chunki o'zbek

adabiyotining sotsialistik realism adabiyoti sifatida orttirgan ancha- muncha “fazilatlari”ning tomiri xuddi shu munozaraga borib taqaladi.

Yuqorida aytganimizdek, gazeta sahifalaridagi munozara Aynning maqolasi bilan boshlandi. “Ayn”- adabiyotshunos va munaqqid Olim Sharafiddinovning taxallusi edi. Shunisi muhimki, Olim Sharafiddinov adabiyot olamiga shaxsiy manfaatlarini o‘ylab kirib qolgan tasodifiy odam emas edi. Keyinchalik u o‘zining ko‘pgina tadqiqotlarida adabiyot tarixini chuqur bilishini, adabiyotning mohiyati haqida ancha ma’nodor va ibratli mulohazalar yurita olishini isbot qilgan. Ayniqsa, uning 1940 yilda nashr qilingan va keyinchalik bir necha marta chop etilgan “Alisher Navoiy” tanqidiy beografik ocherki o‘sha davr adabiyotida katta voqea bo‘ldi. Bu kitob hozir samarali ijod qilayotgan ko‘pgina adabiyotshunoslar uchun juda yaxshi qo‘llanma bo‘lgan edi. Shuning uchun 1943 yilda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi tuzilganda, adabiyotshunoslar ichida birinchilardan bo‘lib, Olim Sharafiddinovning muxbir a‘zolikka saylanishi hech kimni ajablantirgani yo‘q. Bu odam ko‘ngilli ravishda frontga ketadi va jang maydonlarida halok bo‘ladi. Bu fakt ham Olim Sharafiddinovning shaxsiyatiga beixtiyor ehtirom uyg‘otadi. Lekin “Aflotun, sen mening do‘stimsan, biroq haqiqat men uchun qadrliroq” degan gap bor. Fakt faktligicha qoladi- uni turlicha sharhlay bo‘ladi, biroq o‘zgartirib bo‘lmaydi. Fakt esa shundan iboratki, olim 1927 yilda Olim Sharafiddinov adabiyotni hukmron mafkuraning xizmatkoriga aylantirishdek nomunosib ishni boshlab bergan edi.

Olim Sharafiddinov mazkur maqolasida o‘zbek adabiyotshunosligida birinchilardan bo‘lib markscha metodologiya prinsplariga amal qilgan, ya’ni u adabiyotga to‘laligicha sinfiylik nazariyasi nuqtai nazaridan yondashib, uning proletar ideologiyasining quroli bo‘lishi zarurligi haqidagi qarshni olg‘a suradi: “Yosh shoirlarimiz yo‘qsullarning sinfiy tilaklarini, manfaatlarini, mafkurasini jozibador bir yo‘sinda tasvirlashga, jonlantirishga boshladi”, deb yozadi Olim Sharafiddinov mamnuniyat bilan.

Albatta, Olim Sharafiddinov maqolada iloji boricha o‘zini xolis qilib ko‘rsatishga urinadi, shuning uchun u shoirning ba’zi bir ijobiy sifatlaridan ko‘z

yummydi. U Cho'lponning "eng ko'p yozuvchi", "adabiyotda ayrim o'rin tutguvchi shoir" ekanini e'tirof etadi. Olim bu fakti ta'kidlash bilan cheklanmay, bu "ayrim o'rin"ning mohiyatini ham ochadi: "eski klassitsizmning tor ramkasini buzib, parchalab, uning (klassitsizmning) ifoda yo'sinini, ommaga anglashilmaydirgan tilini soddalashtirib, ommaga yaqin qo'yish uchun urinadir. Ham yana shul sodda ifoda yo'sinda sodda tilda amaliy namunalar bilan bizni ta'min etadir".

Cho'lponning tili haqida gap ketganda, ayniqsa, Olim Sharafiddinov o'zini to'xtatolmaydi, u shoirni yoyilib-yoyilib maqtaydi, unga juda yuksak ta'riflar beradi: "Bu kungi o'zbek adabiy tili, shubhasiz, Cho'lpon tilidir. Butun adabiy yoshlik uning tilini o'rnak taniydir. Unga taqlid qiladi".

Biroq Olim Sharafiddinov sinfiylik ko'zoynagini tutib olishi bilanoq hamma narsa ayqash-uyqash bo'lib ketadi- endi Cho'lponning she'rlaridagi quyushqonday, sovet hokimiyatining tagiga suv quyadigan gunohday ko'rina boshlaydi.

"Sinfiylik" printsipli tadqiqotchidan bir savolga javob berishni talab qiladi-xo'sh, bu shoir yoxud bu adib qaysi sinfning vakili? Uning asarlari qaysi sinf manfaatlariga xizmat qiladi? Uning ijodida qaysi sinfning qarashlari o'z ifodasini topgan. Sovet adabiyotshunoslari yetmish yil mobaynida har bir yozuvchi, nainki, yozuvchi, balki har bir asar to'g'risida mushohada yuritganda ana shu savollarga javob berishga urinib, adabiyotni juda xarob qilib yuborishdi. Negaki, anchainki jo'nday ko'ringan bu savollarga javob berish g'oyat qiyin edi. Negaki, yozuvchi yoki muayyan asarini soqit qilib, umuman olib gapirganda adabiyotning sinfiyligi haqidagi gap to'g'riday tuyulardi, ammo oraga konkret shaxs aralashishi bilanoq masalani to'g'ri hal qilish amri mahol bo'lib qolardi. Darhaqiqat, Pushkinni qaysi sinfning vakili desa bo'ladi? Dehqonlar sinfinimi? Dvoryanlar vakilimi? Yoxud shaharda yashovchi hunarmand kosiblar shoirimi? Alisher Navoiy-chi? U kimning vakili bo'ladi? Hukmron sinf vakilimi? Ko'rinib turibdiki, masalani bu tarzda qo'yadigan bo'lsak, adabiyotning mohiyatini buzuvchi, shoirni masxara qilishdan boshqaga yaramaydigan xulosalarga kelinadi. Biroq, markscha printspning talabi qat'iy. Xo'sh, bu shoir qaysi sinfning vakili? Talab qat'iy bo'lgach, olim javob

berishga majbur- faktlar unga xizmat qilmasa, u faktlarning qulog'idan cho'zib, o'ziga bo'ysunishga majbur qiladi. Shuning uchun Olim Sharafiddinov "Cho'lpon yo'qsul xalqning shoiri emas, u millatchi, vatanparast, badbin ziyolilarning shoiridir. Uning shu mafkura yo'lida urinadir, talpinadir. Uni qaynatgan, ilhom bergan narsalar shulardir", deb yozadi.

E'tibor bering-a, bu fikr Zarif Bashir va Abdurahmon Sa'diy tomonidan aytilgan edi. Ular ham Cho'lpon ziyolilar shoiridir, deb da'vo qilishgan edi. Olim Sharafiddinov ularning fikriga jinday aniqlik kiritadi, xolos, ya'ni u ziyolilarga "millatchi, vatanparast, badbin" degan sifatlarni taqadi. Qarabsizki, ana shu jinday aniqlik bilan "Cho'lpon yo'qsul xalq shoiri emas" degan jo'ngona gap dahshatli dahshatli aybnomaga aylanadi. Sinfiylik prinsipi shunaqa g'aroyib fokuslar qilishga va shu yo'l bilan tomoshabinning ko'zini (yohud kitobxonning aqlini) bog'lashga imkon beradi. Bu gaplarni qo'yaylik-da, masalaga boshqa tomondan yondashaylik. Mayli, faraz qilaylik- Cho'lpon ziyolilar shoiri. Ammo kim, qachon, qayerda isbot qilganki, ziyolilar shoiri xalq shoiri bo'lolmaydi?

Maqolaning davomidan ayon bo'ladiki, muallif Cho'lponni erkni qo'msagani uchun, yurti ozod va obod ko'rmoqni istagani uchun, badanlarda qonli izlar qoldiruvchi kishanlardan nafratlangani uchun, "kishan kiyma, bo'yin egma!" deb xo'rlangan odamlarni g'ururga chaqirgani uchun ziyolilar shoiri, deb atayapti. Biroq savol tug'iladi- nahotki, erk tuyg'usi, ozod yashash istagi boshda do'ppi bilan har joyda mag'rur yurishni istash faqat va faqat ziyolilarga xos bo'lsa? Nahotki, "yo'qsul xalq" chorizm davrida ham, sovet imperiyasi davrida ham mustamlaka zulmini to'la qabul qilib, erkka loqayd bo'lib yashagan bo'lsa? Aksincha, Cho'lpon 20-yillarning birinchi yarmida she'rlarida butun yurtning dardi-alamini yorqin ifodalagani uchunгина butun xalqning muhabbatini qozonadimi? Uning she'rlarining umrboqiyiligini ta'minlagan birinchi omil xuddi shu emasmi?

III Bob. O‘zbek adabiyotshunosligida Fitrat ijodining o‘rganilishiga doir

XX asrda O‘rta Osiyoda yetishib chiqqan ijodkorlar orasida eng saralaridan biri, eng mumtozi Abdurauf Fitratdir desam xato bo‘lmasa kerak. Shoir, adib, dramaturg, muarrix, munaqqid, adabiyotshunos, tilshunos, san’atshunos, mutarjim, mutafakkir-faylasuf, jamoat arbobi, siyosatchi, pedagog- bir o‘zida shuncha sifatlarni jam etgan Fitrat madaniyatimiz rivojida o‘chmas iz qoldirdi. Biroq gap ijodkor bilimlarining qomusiyligi-yu, shaxsiyatning serqirraligida emas. Muhimi shundaki, Fitrat Vatanini ulug‘ bir muhabbat bilan sevardi va shu muhabbat uning butun faoliyatini yorqin nur bilan yoritib turardi. Fitrat ham Mahmudxoja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Cho‘lponlar kabi Vatanini erkin va mustaqil ko‘rmoqni istar, xalqning o‘z taqdiriga o‘zi xo‘jayin bo‘lgan holda har qanday kishanlar va bo‘yinturuqlardan xalos bo‘lib yashamog‘ini orzu qilardi. Shuning uchun u hech narsadan hayqmay mustamlakachilarga nafratini hayqirib aytdi. Zolimlarni la‘natladi, xalqni uyg‘onishga undadi, jaholat va nodonlik, bid’at va xurofot iskanjalaridan qutulib, ochiq ko‘z, hur fikr bilan yashashga, o‘zligini tanishga chaqirdi. Shu erksevarligi, zulmatga dushmanligi, ziyoga intilishi, elu yurt taqdirini yaxshilash imkoniyatlarini tinmay izlagani Fitratni madaniyatimizning eng yorqinsiymolaridan biriga aylantirdi, uning shuhratini qator Sharq va G‘arb mamlakatlariga taratdi. Biroq ayni shu sifatlari tufayli Fitrat bizning “baxtli” zamonamizga sig‘madi. Stalin barpo etgan qizil imperiyaga mustaqil fikrleydigan erksevar isyonkorlar emas, hamma narsani “ma’qul” deb ko‘rganini ko‘rmaslikka oladigan xushomadgo‘ylar kerak edi. Quyushqondan chiqqanlar, hukmron mafkura aqidalariga shak keltiradiganlar shafqatsiz jazolanardi.¹ Uni ham xalqimizning

¹ G‘aniev. Fitratning tragediya yaratish mahorati. T., 1994.

ko'pgina asl farzandlari kabi avval "millatchi" deb tahqirlashdi, "xalq dushmani"ga chiqarishdi, keyin esa sudsiz, hukmsiz otib tashlashdi. Qizil imperiyaning sodiq sallotlari bu bilan kifoyalanmay, uning asarlarini o'qishni, hatto nomini tilga olishni ta'qiqladilar. Ular boshqa "xalq dushmanlari" qatori Fitratni tarix sahifalaridan butkul chiqarib tashlamoqchi bo'ldilar. Biroq bu razil niyat amalga oshmadi. Kechikib bo'lsa-da haqiqat yuzaga chiqdi, adolat qaror topdi. Bugun Fitrat madaniyatimiz tarixida shu paytgacha bo'sh qolib ketgan o'rniga qaytdi. 1991-yilda Abdulla Qodiriy va Cho'lpon bilan birga Abdurauf Fitratga ham jumxuriyatimizning oliy mukofoti- Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berildi.

Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoroda tug'ilgan. Otasi Abdurahim savdogar bo'lgan. Manbalarda uning o'qimishli xudojo'y odam bo'lgani yoziladi. Abduraufdan tashqari uning yana Abdurahmon degan o'g'li va Mahbuba degan qizi ham bo'lgan. Har bir badai mo'min singari u farzandlari oldidagi burchini o'tagan- ularga toat-ibodatni o'rgatgan, ibtidoiy maktabga berib, xat-savodini chiqargan, o'g'illarining qo'lini halollagan. Fitratning onasi Mustaf bibi zodogonlar oilasidan bo'lib, yaxshi tarbiya ko'rgan, tavfiqli, o'qimishli, donishmand ayol bo'lgan. U bolalarini ham o'qimishli qilishga intilgan, ularga adabiyot va san'atga xavas uyg'otishda katta ro'l o'ynagan. Shundan bo'lsa kerak, Fitratgina emas uning singlisi ham shoira bo'lib yetishgan. Har holda, 20-yillarda Mahbuba Rahim qizining she'rlari matbuotda bot-bot ko'rinib turgan. Abdurahim aka kasbining taqozosi bilan har xil uzoq-yaqin shaharlarga tez-tez safar qilib turgan. Shu tufayli yoxud boshqa biron jiddiyoq sabab bo'lganmi, har holda, bu xonadonda oilaviy rishtalar uncha mustahkam bo'lmagan ko'rinadi. 1903-yilda Abdurahim aka uzoq muddatga- 15 yilga Qashqarga ketadi. Fitraning o'gay qizi Sevara Karomatillaxo'jaevaning eslashicha, 30-yillarda Fitrat otasi haqida gapirishni uncha yoqtirmagan. Uning onasi Mustaf bibi ham erining nomini tilga olishni xushlamagan.

Biz hozircha Fitratning bolalik va yoshlik yillari haqida juda oz ma'lumotga egamiz. Uning o'zi 1929-yilda bosilgan "Yopishmagan gajaklar" degan

maqolasida qayerda, qanday o'qigani haqida shunday yozadi: *“Birinchii tarbiyani eski usuldagi diniy bir maktabda oldim, maktabdan chiqqach, diniy bir madrasaga kirib, dars oldim, namoz o'qidim, mutaassib bir musulmon edim”*.

Bu parchada tilga olingan “eski usuldagi diniy bir maktab” kimning maktabi ekani, shaharning qaysi joyida joylashgani hozircha aniq emas. Biroq “madrasa” Mirarab madrasasi ekani ma'lum. Mirarab madrasasining binosi yaxshi saqlanib qolgan, hozir ham u yerda diniy o'quv yurti joylashgan. Garchi Fitrat uni “diniy” maktab deb atab, u yerda mutaassiblik kuchli bo'lganiga ishora qilsa-da, ba'zi manbalarga tayanib, undagi vaziyat bo'lsa-da bashqacha bo'lganini taxmin qilish mumkin. Sadridin Ayniy “Esdaliklar”ida Mirarab madrasasi haqida ancha batafsil ma'lumot berar ekan, o'tgan asrning 90- yillarida bu yerdagi talabalar Axmad Donishning “Navodir ul-vaqoye” asari bilan tanish bo'lganini, pana-panalarda uning to'g'risida bahslashib turishganini, madrasada muayyan iqlim yaratishda noyob iste'dod egasi, hayotdan juda erta ko'z yumgan shoir Hayrat katta rol o'ynaganini yozadi. Mirarab Buxoro madrasalari orasida eng yaxshilaridan biri bo'lgani uchun Fitrat bu yerda fors va arab tillarini mukammal o'zlashtirgan, Sharq tarixi va adabiyotini, ayniqsa, islom tarixi va falsafasini chuqur o'rgangan deb taxmin qilish mumkin. Bu haqda shuning uchun ham ancha ishonch bilan gapirish mumkinki, Sadridin Ayniy ham, Fayzulla Xo'jayev ham Buxoro inqilobiga bag'ishlangan asarlarida yozishlaricha, Fitrat madrasada o'qib yurgan kezlari dayoq zo'r qobiliyat egasi ekani ayon bo'lgan. U talabalar o'rtasida bilimga tashnaligi, har narsaning tagiga yetishga intilishi, fahm-farosati o'tkirligi bilan ajralib turgan. Fitratning bu yillardagi hayoti to'g'risida ma'lumotlarimiz shu bilan cheklanadi.

Afsuski, biz hatto uning madrasada qaysi yillar davomida o'qigani, uni bitirgach nima ish qilganini ham aniq bilmaymiz. Fitrat necha yoshlaridan ijod qila boshlagani haqida ham aniq bir ma'lumot yo'q, borlari esa kishini uncha ishontirmaydi. Masalan, ayrim tadqiqotchilar Fitrat ijodi 1909-yilda Istambulda boshlangan degan mulohazani aytishadi. Ammo 1908-yilda Fitrat 22 yoshda bo'lganini eslasak, bu mulohazaga nisbatan biroz shubha uyg'onadi. Bundan tashqari Salimiy 1914-yilda Toshkentda chop etilgan “Tazkirat ul-ashob” degan

kitobida Fitratning avvalgi taxallusi Mijmar bo'lganini, shu taxallus bilan anchagina ishqiy she'rlar yozganini aytadi. Ehtimol, qidirilsa, biror manbada bu she'rlarning izi chiqib qolar, ehtimol, ular XX asr boshlarida Buxoroda ko'plab paydo bo'lgan tazkira va majmualarning ba'zilariga kiritilgandir.

Fitrat biografiyasida qo'shimcha tadqiqotlar olib borishni taqozo etadigan yana bir masala uning chet elga safari masalasidir. Hozircha Fitrat haqidagi maqolalarning hammasida uning 1908-yilda (Sadriddin Ayniyda- 1909-yilning bahorida) Turkiyaga o'qishga ketgani yakdillik bilan qayd qilinadi, lekin Fitrat Turkiyaga o'qishga ketgani yakdillik bilan qayd qilinadi, lekin Fitrat Turkiyaga qanday borgani, u yerda qaysi o'quv yurtida o'qigani va, umuman, Turkiyadan boshqa yana qayerlarda bo'lgani haqida hech narsa deyilmaydi. Holbuki, ba'zi hujjatlarga suyanib, Fitratning anchagina mamlakatlarda bo'lganini taxmin qilish mumkin emas. Jumladan, yuqorida zikr etilgan Salimiyning kitobida uning otasi bilan Makkaga safar qilgani aytiladi. Professor B. Qosimov Fitrat haqida maqolasida B. A. Petrovskiyning 1922-yilda "Inqilob" jurnalida bosilgan maqolasini tilga oladi. Unda Fitrat "18 yoshlariga qadar Buxoroda tehsil ko'rib, Sharqda Turkiya, Hindiston, Arabiston kabi yerlarda, Markaziy Rossiyaning Maskov, Peterburg kabi shaharlariga sayohat etgan"ligi aytilgan. Sevara Karomatillaxo'jayeva ham Fitratning Hindiston va Eronda bo'lganini komil ishonch bilan eslaydi. Uning aytishicha, oilaviy suhbatlarda Fitrat Hindiston va Eron hayotiga doir jonli tafsilotlar, xotiralarni ko'p keltirar ekan. Sadriddin Ayniy ham uning Turkiyaga Eron orqali borganini ta'kidlaydi. Tabiiyki, bu masalalarga aniqlik kiritilsa Fitrat shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanishi, ijodidagi o'sish, o'zgarishlar, u yoki bu asarining yozilish tarixi haqidagi talqinlarimiz to'laroq va haqqoniyroq bo'ladi. Hozircha esa shuni komil ishonch bilan tasdiqlash mumkinki, Turkiyada kechgan bir necha yillik hayot Fitrat hayotida tom ma'noda katta burilish yasadi- Turkiyaga "mutaassib bir musulmon" tarzida kelgam bo'lsa, bu yerdan qaytib Buxoroga kelganida u dunyoqarashi shakllangan, jamiyat hayotini demokratik tarzda qayta qurish g'oyalarini chuqur singdirgan, jaholat va nodonlikka astoidil kurashmoqqa tayyor biro dam edi. Uning "Sayha",

“Munozara”, “Hind sayyohi” kabi asarlari shundan dalolat beradi. Bu asarlar tufayli Fitrat Buxoroga qaytgach, nafaqat Buxorodagi, balki butun Turkistondagi ochiq fikrlari, ilg‘or ziyolilarning peshqadamlaridan biri sifatida tanildi. Shuning uchun Fitratning Turkiyadagi hayoti to‘g‘risida biroz batafsilroq to‘xtasak foydadan xoli bo‘lmas.

Fitrat 1908-yilda, ya’ni 22 yashar chog‘ida xayriya jamiyati bo‘lmish “Buxorai sharif” shirkatining mablag‘iga Istambulga jo‘nab ketadi. Shirkat Fitrat bilan birga yana bir necha kishini Turkiyaga jo‘natgan. Bu ish 1908-yildan keyin ham davom etib turgan. Shunday qilib, 1909-1910 yillar mobaynida Istambulda bxorolik va turkistonliklar anchagina ko‘payib qolgan. Ular o‘zaro uchrashib turishgan, ko‘p masalalarni birga muhokama qilishgan va hatto “Buxoro ta’limi maorif jamiyati”ni tuzishgan. Fitrat Istambulda ancha faqir hayot kechirgan- bo‘sh vaqtlarida bir oshpazning xizmatini qilib yohud shahar bozorlarida tilimlab qovun sotib, tirikchilik qilgan. Lekin moddiy qiyinchiliklarga qaramay, bilim olishdagi g‘ayratini bir lahza susaytirmaydi va ba’zi bir asarlarini o‘z hisobidan nashr qilishga muvaffaq ham bo‘ldi.¹

Bu davrda Turkiyadagi ijtimoiy hayot juda zo‘r shiddat bilan kechmoqda edi. Taraqqiyparvar turk ziyolilarining sulton Abdul Hamidning hadsiz zulmiga qarshi ko‘pdan beri olib brogan kurashi ayni 1908-yilda g‘alaba qozongandi. Buning natijasida mamlakat hayotining ko‘pgina sohalarida inqilobiy ruh ustuvor bo‘ldi. “Sarvati funun” kabi ilg‘or jurnallar, “Ganj qalamlar” kabi adabiy uyushmalar xalqning ongini uyg‘otishda yana oldingi marralarga chiqdilar. Ayni shu yillarda Nomiq Kamol, Abdulhaq Hamid, Tavfiq Fikrat, Rashid Nuri Guntekin, Yahyo Kamol, Ziyo Gyokalp kabi shoirlar va adiblar, jaholat va zulm dunyosini keskin qoralovchi, vatan istiqloli uchun kurashga chorlovchi otashin asarlar yaratdilar. Sinchikov aql egasi, yangi va ilg‘or g‘oyalarni qabul qilishga tayyor turgan Fitrat uchun bularning hech qaysisi izsiz o‘tib ketmaydi. Uning Istambulda yozgan va shu yerda nashr ettirgan, keyinroq Buxoro va Turkistonda

¹ Fitrat. She’rlar. «Sharq yulduzi», 1991, 6-son.

ham tarqagan asarlari bu fikrimizning yorqin dalili bo'la oladi. Bular "Sayha" degan she'rlar to'plami, "Munozara" va "Hind sayyohi" deb nomlangan nasriy asarlardir. Ular bosilib chiqishi bilanoq buxorolik taraqqiyparvar ziyolilar o'rtasida juda qizg'in kutib olindi. "Sayha"ga kirgan she'rlarda Buxoroning ozodligi va istiqloli birinchi daf'a o'laroq barilla kuylangan edi. "Munozara" ham g'oyatda zo'r ehtiros bilan yozilgan bo'lib, unda Buxoroni bosib-ezib yotgan jaholat va nodonlik balosiga o't ochilgan edi. Shuning uchun bu asarlar hukmron doiralarning ta'qibiga uchradi va ularni mutoalaa qiluvchi odamlar han shubha ostiga olindi. Bu asarlar har qancha qimmatli bo'lmasin, "Hind sayyohi" asari alohida o'rin tutadi. Bu asar tom ma'noda yuksak badiiy fazilatlariga ega bo'lib, o'zining favqulotda zo'r ta'sir kuchi bilan ajralib turar edi. U Buxoroda ham, Turkistonda ham ijtimoiy fikrni uyg'otishda juda katta rol o'ynadi. Chunki unda o'sha davrdagi Buxoro hayotining eng chirsillab turgan, keskin ijtimoiy muammolari qalamga olingan bo'lib, hayotda teran va izchil islohatlar o'tkazish zaruriyati ta'kidlangan edi. Ko'pgina tadqiqotchilar o'z vaqtida Fitratning bu asariga juda yuqori baho berishgan. Masalan, Sadriddin Ayniy o'zining ilk bor 1926- yilda e'lon qilingan "Namunahori adabiyoti tojik" degan asarida "Hind sayyohi" haqida yozadi: "Asarda Buxoroning ilmiy, siyosiy, iqtisodiy ahvoli shafqatsiz, ba'zi o'rinlarda hajv tarzida tanqid qilingan edi. Bu asar ham tazyiq balosiga uchrab, bir qismi yo'qoldi. Buxoraga yetib kelgan qismi esa "Munozara"dan ham kuchli va yaxshi ta'sir qildi".

Buxorada XX asr boshidagi ijtimoiy fikr tarixi haqida ancha batafsil va chuqur tadqiqot yaratgan Fayzulla Xo'jayev ham Fitratning bu kitobiga alohida urg'u berishni lozim ko'rgan. U yozadi: "Men bu o'rinda Fitratning "Hind sayyohi" degan kitobi, ayniqsa, katta ahamiyatga ega ekanini qayd etmay o'tolmayman. Bu kitob Buxorodagina emas, undan tashqarida ham ko'pchilikning e'tiborini jalb qildi. Keyinroq bu kitob rus tiliga tarjima qilindi".

Darhaqiqat, "Hind sayyohi" ikki-uch yil mobaynida Buxora va turkiston jadidlari uchun haqiqiy dasturulamal bo'lib qoldi va bu harakatning yanada uyushganroq bo'lishini ta'minladi. Qissa yordamida jadidchilik harakatining

maqsadlari yanada ayonroq bo'lib qoldi, jadidchilik esa tor ko'lamdagi ma'rifatchilik harakatidan jamiyat hayotini tubdan qayta qurishni ko'zlagan keng qamrovli ijtimoiy-siyosiy harakatga aylana boshladi.

“Hind sayyohi”ning batafsilroq tahlili bu fikrni yaqqol isbot qiladi.

Gapni bu asarning janrini aniqlashdan boshlaylik. Ilmiy jamoatchilik orasida bu asarni roman deb atashga moyillar ham bor. Bu fikrni birinchi marta Sadriddin Ayniy yuqorida zikr qilingan asarida aytgan edi. Lekin o'ylaymanki, Sadriddin Ayniy bu fikrni chuqur tahlillar asosida emas, asardan olingan emotsional ta'sir oqibatida, uning yuksak badiiy fazilatlarini ta'kidlash maqsadida aytgan bo'lsa kerak. Aslida esa “Hind sayyohi” roman emas, hatto qissa ham emas, balki ijtimoiy-siyosiy va badiiy publitsistik asar.

“Hind sayyohi” asarning boshidan oxirigacha davom etadigan, o'z ibtidosiga, rivojiga, kulminatsiyasiga ega bo'lgan yaxlit voqea asosiga qurilgan emas, balki dialog shaklida yozilgandir. Unda Hindistondan kelgan bir ochiq fikrli, taraqqiyparvar ziyoli odam “necha oy davomida Buxoro shahri va buxoroliklarning ahvolini o'rganadi hamda ularning qariyb barcha ishlaridan xabardor bo'ladi”. Shu o'rganish davomida u Buxoroning har xil ijtimoiy tabaqalarga mansub odamlari bilan uchrashadi va ularning orasida Buxoro hayotining turli sohalari va turli muammolari haqida suhbatlar bo'lib o'tadi. Shu suhbatlar asarning mazmunini tashkil qiladi. Dialog- XX asr boshida o'zbek va tojik adabiyotlari uchun yangi shakl bo'lgan edi. Ammo aslini olganda bu shakl jahon adabiyotidagi eng qadimiy badiiy shakllardan biridir. Uning qachon paydo bo'lganini aniq aytib berish qiyin bo'lsa-da, uzil-kesil shu fakt ma'lumki, antik yunon adabiyotida meloddan avvalgi VII asrlardan boshlab bu shakl keng qo'llangan. Bu shakl, ayniqsa, yunon faylasuflari eng ma'qul shakllardan biri hisoblangan- Aflotun, Arastu, Diogen kabi buyuk olimlarning ancha-muncha asari dialog shaklida yozilgan. Dialog- Uyg'onosh davrida ham, ma'rifatparvarlar ijodida ham ko'pgina ijodkorlar tomonidan samarali foydalanilgan shakildir.

Fitrat “Hind sayyohi”ni yaratishda jahon adabiyotining boy tajribasiga murojaat qilgani va undan oziqlanganini ko'rsatuvchi boshqa dalillari ham bor.

Masalan, jahon adabiyotida biror mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqida mulohaza yuritish, tanqidiy fikrlar aytish uchun bu mamlakat turmushiga boshqa biror mamlakat fuqarosining ko'zi bilan qaralgan. Yohud biron mamlakatning ahvoli ko'proq taraqqiy etgan boshqa bir mamlakat ahvoli bilan taqqoslangan. Bu o'rinda buni fransuz ma'rifatparvari Sharl Monteskening "Fransuz maktublari" degan asarini eslash o'rinlidir. Unda Eronda istiqomat qiladigan O'zbek degan yigitning maktublari orqali ham Eron, ham fransuz voqeligidagi jaholat, nodonlik qoralanadi. Bunday usullar keyinchalik adabiyotda juda keng qo'llanadi. Jumladan, buyuk ozarbayjon klassigi Mirza Fatali Oxundov ham "Hind shahzodasi Kamol ud-davlatning Eron shahzodasi Jalol ud-davlaga uch maktubi va uning hind shahzodasiga javoblari" degan badiiy- publitsistik asar yozib, unda mohiyat e'tibori bilan dialogdan foydalanadi. Diqqatga sazavor joyi shundaki, bu asarda ham hind shahzodasi ilg'or fikrli taraqqiyparvar siymo sifatida ko'rinadi. U mustabidlik tuzumini, zulmni, jaholat va nodonlikni, inson erkinining oyoqosti qilinishini qattiq qoralaydi. Albatta, bizning ixtiyorimizda Fitratning bu asarlarni o'qiganini tasdiqlaydigan aniq faktlar, hujjatlar yo'q. Ammo uning bilimga chanqoqligini hisobga olib, Turkiyada yashagan kezlarda butun Sharq bo'ylab ulug' fikriy Uyg'onish jarayoni keng qanot yoza boshlaganini nazarda tutib, Fitratning bu jarayondan chetda qolmagan bo'lishini, Ovrupa va Sharq adabiyotida oldinga surilgan erksevarlik g'oyalaridan ancha-muncha bahramand bo'lganini taxmin qilish mumkin. Shu tarzda aytish mumkinki, "Hind sayyohi" quruq yerda havodan tushgan emas, balki jahon adabiyotining yorqin gumanistik an'analari zaminida paydo bo'lgan.

Endi "Hind sayyohi"ning mazmuni, g'oyaviy yo'nalishi masalasiga keladigan bo'lsak, asarning ko'zga yaqqol tashlanib turadigan birinchi fazilati shundaki, u Buxoroga nisbatan juda katta muhabbat bilan yozilgan. Muallif Buxoroning qadimiy diyor ekanini, bu yurtdan ko'pdan-ko'p ulug' odamlar yetishib chiqqanini, ular butun insoniyat tarixiga sezilarli ta'sir ko'rsatganini hayajon bilan to'lqinlanib yozadi. Fitrat o'z yurtini yurak-yurakdan yaxshi ko'radi, undan faxrlanadi va bu tuyg'ularini yorqin ifodalaydigan dalil- isbotlar keltiradi.

“Ma’lumki, Buxoro qadimda o‘z don ova zukko fuzalo ahlini tarbiyalab, voyaga yetkazgan, - deb yozadi Fitrat asarning bosh qismida. – Har kuni bir Abu Ali, Forobiy va boshqalarni jahonga hadiya etib, shu tariqa o‘zining sharaflari dovruq‘ini dunyo xalqlarining qulog‘iga zirak etib taqqan”.

Asarning boshqa bir joyida Fitrat yanada kuchliroq iftixor bilan Buxoroda ilm yuksak qadrlanganini, Buxoro madrasalari va kutbxonalari tom ma’noda ziyo maskani bo‘lganini hikoya qiladi: “Bizning otalarimiz... ilm olishning ahamiyati va darajasini tushunib yetib, ikki yuz madrasa, har madrasada esa o‘ntadan o‘n beshtagacha hujralar qurganlar. Mudarris va shogirdlarning kundalik xarajatlarini inobatga olgan holda yiliga to‘rt milyondan oshiq vaqf puli ajratganlar. Bu bilan ham kifoyalanmay talabalarning o‘qishlarini to‘la ta’minlash uchun o‘n bitta kutubxona qurib o‘z davrlarining jamiki kitoblarini shu yerda to‘plaganlar”.

Shu tariqa Buxoro dunyoga to‘rt yuz nafardan ortiq olimni tuhfa etgan va dunyo ham, o‘z navbatida, Buxoroning xizmatlarini tan olib, undan ko‘p narsa o‘rgangan. Fitrat bu fikrini isbotlash uchun juda muhim va juda noyob tarixiy hujjatlar keltiradi. Farangiston dorilfununining Sharh Sanivos nomli muallimi quyidagilarni qayd etgan: “O‘n birinchi asrda Ovrupo va Islom olami butunlay birbirlariga qarshi edilar. Ovrupo shaharlari kichik va oddiy, qishloqlari vayron kulbalardan iborat edi. Yo‘lda o‘ldirishlardan qo‘rqib, hech kim o‘z uyidan farsah uzoqqa borolmas edi. Islom olami esa Bog‘dod, Shom, Misr, Andalus singari butunlay ozod va ko‘rkam shaharlar, marmar bilan bezalgan saroylar, mukammal korxonalar, hashamatli madrasalar va maktablar, muayyan va ozoda bozorlarga ega edilar. Dalalarning har qadamdagi so‘lim go‘shalari-yu, xirmon-xirmon xosilini ko‘rgan ko‘zi quvonar edi. Ispaniya bilan Turkiston o‘rtasida savdo karvonlari bemalol borib kela olardi. Ovrupaliklar musulmonlar taraqqiyotini xolis niyat bilan qabul qilib, kasb va ilm o‘rganish niyatida Islom shaharlarida tehsil ko‘rar edilar. Ovrupo musulmonlar bilan munosabat va aloqada bo‘lish orqali taraqqiy etgan”.

Shuning uchun ham Buxoro butun dunyoga shunchaki bir ko‘hna shahar sifatida emas, Buxorai sharif sifatida tanilgan. Muallif o‘tmishda Buxoroning ham boshqa musulmon shaharlari kabi ilm-fanda, madaniyat va ma’naviyat bobida

jahonning yirik markazlaridan biri bo'lganidan shu qadar faxrlanadiki, bu haqda o'tmishda yashab o'tgan farangiston olimining guvohligini keltirish bilan kifoyalanmay, ovrupaliklarning katta g'ayrat va qund bilan musulmon shaharlarida o'qigani ularning o'qishlariga har xil kuchlar to'siq bo'lgani, ammo bu to'siqlar tolibi ilmlarning shahdini qaytara olmaganini hayajon bilan yozadi:

“Ovrupoliklar islom olamidagi hayratga soluvchi muvaffaqiyatlarini ko'rganlaridan keyin, ularning maftuni bo'lib, protestantlar taklifi va dalolati bilan Bog'dod, Misr, Andalus madrasalariga borib, musulmon mudarrislaridan turli ilmlar bo'yich atahsil ola boshladilar, poplarning bu yo'lga mone bo'lishlariga e'tibor bermadilar”.

O'tmishdagi shon-shuhrat, muvaffaqiyat va parvozlar yaxshi narsa, albatta! Ammo ular shunaqa narsalarki, har bir yangi avlod bu shuhratga shuhrat qo'shib turmasa, eski yutuqlar qatorini yangilari bilan boyitib bormasa millatning qanoti qayrilib, parvozi susayib qoladi. Afsuski, Buxorai sharifda va, umuman, Turkistonda shunday bo'ldi- har xil sabablar bilan rivojlanish susaydi, jamiyat hayotida chuqur tanazzul boshlandi. Jamiyatni tanazzuldan qutqarmog'I shart bo'lgan peshqadam kuchlar yo loqaydlik botqog'iga botdilar, g'aflat uyqusiga berildilar, yohud maishat to'riga intilib, o'zlarining huzr-halovatlaridan boshqa narsani o'ylamay qoldilar, faol tadbirlar ko'rib, jamiyat rivojlanishini to'g'ri yo'lda solib yubora olmadilar.

Afsuski, XX asr boshlariga kelganda Buxoro ham, Turkiston ham juda g'arib va ayanchli ahvolga tushib qolgan edi. Ular qay bir sabablarga ko'ra jahon taraqqiyotining katta yo'llaridan surilib, chetga chiqib qoldilar va o'z qobiqlariga o'ralib oldilar, natijada iqtisodiy rivojlanish juda susaydi, avvalgi erishilgan ma'naviy yuksakliklar boy berildi, olijanob madaniy an'analar unitila boshlandi. Hayotning hamma sohalarida primitiv munosabatlar, bosh-boshdoqlik, zo'ravonlik hukm sura boshladi. Rivojlanishning susayishi jaholat va nodonlikni avj oldirdi. Oddiy xalq boshida zulm tegirmoni ayovsiz aylana boshladi. O'zligini bilmaydigan, o'z huquqlarini tanimaydigan xalq borgan sari og'ir ahvolga tusha bordi. Xalqning og'ir ahvoli Buxoroda XIX asr o'rtalaridayoq ilg'or fikrli

ziyolilarning e'tiborini jalb qila boshlagan edi. Masalan, buyuk ma'rifatparvar Ahmad Donish "Navodir-ul voqoe" degan kitob yozib, unda xalq ahvolini haqqoniy ko'rsatgan, hayotdagi adolatsizlik va zulmga qarshi keskin norozilik bildirgan va ulardan qutulish yo'llari haqida mulohaza yuritgan edi. XX asr boshlarida uning an'analariga amal qilgan ziyolilar Buxorodagi tanazzul haqida yanada jiddiy o'ylay boshladilar va undan qutulish yo'llarini astoydil izlashga kirishdilar. Abdurauf Fitrat qissasida Buxoroning o'tmishi haqidagi g'urur to'la mulohazalarini bayon qilganidan keyin Buxoroning bugungi ahvolini tasvirlashga o'tadi. Buxoroning shon-shuhrati haqida ko'p gaplar eshitgan, uning go'zalliklarini o'z ko'zi bilan ko'rish ishtiyoqida safarga otlangan hind sayyohi bu o'lka tuprog'iga qo'ygan birinchi qadamidanoq ko'p g'aroyib voqealarga duch kela boshlaydi. Mana, u aravada qosh qorayganda Buxoro darvozasi yoniga keladi. Ammo taomilga ko'ra, quyosh botgani uchun shahar darvozasi yopilgan ekan. Na chora? Hamma joyda bu odat bor- kechqurunlari shahar darvozalari berkitib qo'yilgan. Ammo Buxorodagi tartiblar boshqacha ekan – oradan biro z o'tgach, "ikki – uch aravada armanilar" keladi – darvozabon ularni ichkariga kiritib yuboradi. Buni ko'rgan hind sayyohining hayrati bosilmay, bir necha arava to'la yaxudiylar paydo bo'ladi va ular ham ortiqcha qiyin – qistovsiz shaharga kirib ketadilar. Muhammad ummatlari esa tuni bilan shahar tashqarisida qolib ketadilar. Nega? Nega darvoza kimlar uchundir ochiq, kimlar uchundir yopiq?.. Bu savolga javob yo'q, chunki bu yerda tartib intizom yo'q. Bu yerda birdan bir hokim – darvozabon – o'zi xon, ko'lankasi maydon, xohlasa darvozani ochadi, xohlasa yopib qo'yadi. Unga "nega bunday qilyapsan?" deydigan odam yo'q.

Ko'p o'tmay amin bo'lamizki, bunday o'zboshimchaliklar va tartibsizliklar shaharning har ko'chasi, har guzari, har maydonida mavjud. Buxoro o'rta asrlar shahari, shuning uchun uning ko'chalari tor, egri-bugri. Ikkita arava bir – biriga duch kelib qolsa, o'tib ketolmaydi. Bu ko'pincha aravakashlar o'rtasida faqat dahanaki jang emas, rostakam mushtlashishlarga olib keladi. Bu mashmashalarni ko'rgan hind sayyohi so'raydi: "Hokimning odamlari yo'qmikin, bularni ajratsa?" Bu tabiiy savol buxorolikda faqat taajjub uyg'otadi: "Hokim odamlarining bular

bilan nima ishi bor?”. Mushtlashish davom etadi va anchadan keyin tomonlardan birining yengilishi bilan tugaydi. Shundan keyin yengilgan tomon aravasini tisarib, biror chorrahada to‘xtaydi va ikkinchi arava o‘tib ketadi. Savol tug‘iladi – nahotki bu borada biron tartib o‘rnatib bo‘lmasa?

Hind sayyohi shaharning hushmanzara joylarini tomosha qiladi va u yerlarda ham juda noxush voqealarning guvohi bo‘ladi – odamlar shu darajada qoloq va ongsizki, sira o‘ylanib o‘tirmay, o‘z manfaatlariga, o‘z salomatliklariga zid ishlarni ham qilaveradilar. Havzi Devonbegi obod guzar. Hovuz tevaragida sartaroshlik dokonlari, choyxonalar, hovuzning qibla tomonida katta masjid. Nomozxonlarning hammasi shu hovuzda tahorat qilishadi va shu hovuzning suvidan ichishadi.

Hind sayyohi buxorolik mulla bilan munozaraga kirishib, unga hovuz tevaragidagi mashmashalardan noroziligini aytadi:

“Bir qarang, ko‘plab odamlar hovuzda tahorat qiladilar, og‘iz chayqaydilar, burunlarini yuvib tashlaydilar, loy oyoqlarini tozalaydilar. Agar bu sartaroshlik, somovarxonalar, kalla va baliq pishiruvchilarning chiqindilarini ham hisoblasak, har kuni taxminan yarim man kir bu hovuzga tashlanadi”. Holbuki, “bu suv ichish uchundir”. Tabiiyki, mulla hind sayyohining haqli ta’nasiga hech narsa deb javob berolmaydi.

Hind sayyohi Buxoroning maishiy hayotida bunday hodisa bunday hodisalarga yana ko‘plab ro‘para keladi. Qissada ular juda ixcham tarzda ifodalanadi, ammo bu ixchamlik o‘sha hodisalarning salbiy mohiyatini ochishga monelik qilmagan. Hind sayyohini taajjublantirgan va g‘azabini qo‘zg‘agan omillar shundaki, u har qadamda “sharofatli jannat yonida jahannam darvozalari” ochilganini ko‘radi: “Bu muqaddas mozorning yonida Lut qavmining razolati paydo bo‘libdur! Odamlar choyxonalarining o‘rtasida besh kishilik – o‘n kishilik davra tuzib, davraning o‘rtasida bittadan yosh o‘g‘il bolani o‘tqazishgan. U ma’sumlik va uyatchanlik bilan ikki-uch yodlagan baytini aytib berar edi. Atrofdagilarning har biri, xuddi shaytondek, uning atrofini o‘rab olishgan, o‘zlarining shahvat to‘la nigohlarini bechoraga qadagan edilar!!! Ushbu vahimali va kufarli tomoshadan butun vujudini titroq bosdi”.

Biroq eng dahshatlisi shundaki, u choyxonada “kufri ish” bilan oddiy odamlar mashg‘ul bo‘lsalar, boshqa joylarda bunday razolatlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak bo‘lgan, “Qur’onning obro‘-e’tiboriga putur yetkazishga” yo‘l qo‘ymasligi kerak bo‘lgan mudarris uyi muftiylar ham besoqolbozlik dardiga chalingan. “Bunda kishining nafratini qo‘zg‘ovchi ishlar ham sodir bo‘lib turadir. Bu bemazagarchiliklarning eng kattasi – besoqolbozlikdir. Kunduzlari havzi devonbegi atrofida. Rasta-yu bozorlarda mullabachchalar bir besoqol o‘spirinni o‘rtaga solib, sho‘ru g‘avg‘o ko‘tarib, olamga g‘ulg‘ula soladilar... Eng ajib joyi shundaki, Buxoro ulamolari o‘zlarining shogirdlarini bu g‘ayri sha’riy, iflos yo‘ldan qaytarmas edilar, balki o‘zlari ham bevosita shu ish bilan shug‘ullanar edilar. Shuni aytish mumkinki, bugun Buxoroning har bir mudarrisi va muftiysi o‘zining chiroyli bir shogirdi bilan ishqibozlik qiladi”.

Hayotda bunday razolat keng tarqagan bo‘lsa, uning oldini olishi kerak bo‘lgan ulamolar boshdan-oyoq riyokorlik botqog‘iga botgan bo‘lsa, ya’ni baliq boshidan sasigan bo‘lsa, bunday jamiyat chirib-irib ketgan jamiyatdir. Binobarin, uni davolash, diyonat yo‘liga qaytarmoq uchun keskin choralar kerak. Shubha yo‘qki, “Hind sayyohi”da ayovsiz fosh qilingan bunday voqealar asarni o‘qitgan odamlar ongida zulmat va zulmga qarshi nafrat uyg‘otgan vatezlik bilan samarali islohotlar o‘tkazish zarurligiga yana bir karra ishontirgan.

UMUMIY XULOSALAR

XX-asr tongida o'zbek adabiyoti osmonida Cho'lpon paydo bo'ldi. Tinimsiz sh'erlar yozdi. Shoirning rang- barang tizimlari vaqtli matbuot sahifalarini bezadi. Yangilikka tashna sh'er muhiblarining qalbi yangicha ohanglardan cheksiz zavqlandi. Milliy tuyg'ular mavj urgan misralarni o'qigan millatparvarlar bepayon so'z vodiysiga ulangan yangi bir irmoqning jo'shqini va shovqinidan mastona yurdilar. Shoirning sohir ovozi barcha ixlosmandlari qalbini o'ziga asir etdi. Cho'lponga ergashadiganlar, uning ko'yiga monand tebrandilar, ovozig taqlidan qo'shiq aytadiganlar soni tobora ortaveradi. Ammo XX asr tongining bulutli osmonida Cho'lpon bitta edi.

Albatta, biz magistrlik dissertatsiyamizni yozishda mustaqillik yillarida Fitrat va Cho'lpon ijodini o'rganishda o'zbek adabiyotshunosligi qo'lga kiritgan yutuqlar ilmiy tajribalarga tayanib ish yuritdik. Cho'lponshunos va Fitratshunos olimlarning har ikki ijodkor haqidagi ilmiy- tadqiqotlaridagi fikrlarga tayanib so'z yuritishga harakat qildik. Xususan, atoqli olim Ozod Sharafiddinovning Cho'lpon ijodi to'g'risidagi tadqiqotlari, kitoblari, fitratshunos olim X. Boltaboyevning Fitrat ijodi to'g'risidagi turkum maqolalari, kitoblari ham bizga metodik manba bo'lib xizmat qildi.

Cho'lpondagi mafkuraviy jihat masalasi Oybekning maqolasi bilan yakun topmaydi, aksincha, Usmonxon ismli munaqqidning jazavasiga sabab bo'ladi. Usmonxon "Munaqqidning munaqqidi" ("Qizil O'zbekiston" gaz. 1927 yil, 22, 23, 27 iyun.) nomli kattagina maqolasida "Ayn"ning barcha qarashlarini yoqlab chiqadi. Oybekning Cho'lpon to'g'risidagi chin fikrlarining yanglish ekanini ko'rsatishga bel bog'laydi. Oybekning chalkashib ketganligini, oqibat "“ Ayn”ni tanqid qilaman deb keli-kelib, o'z mayliga qarshi, yana "Ayn"ning ostonasiga bosh" qo'yganligini ta'kidlaydi. Maqolada keskinlik, kurashchanlik, ayovsizlik kayfiyati hukmron. Cho'lponga nisbatan "mafkurasi reatsion", "Cho'lponda sabotlik dunyoqarash yo'q", "Cho'lpon o'zining shoirlik vazifasini to'g'ri

tushunmaydi”, “Men shoirmi?” she’rini keltirib, “xuddi eski ko’knorining sahar vaqtidagi kayfiyatiga o’xshaydi”, “ul taraqqiyparvar rassom bo’lmasdan, tanazzulparvar xayolparastdir” singari ta’birlarni qo’llaydi.

Har qanday chinakam iste’dod sohibi kabi Abdulhamid Cho’lpon ham ijodning deyarlik hamma sohalarida samarali faoliyat ko’rsatgan. U ham shoir, ham nosir, ham dramaturg, ham tarjimon, ham publist bo’lishi bilan birga, barkamol munaqqid, mohir adabiyotshunos, o’ziga xos tarzda fikrlaydigan san’atshunos ham bo’lgan. Uning badiiy asarlari xalq ma’naviyatini shakllantirishda qancha muhim rol o’ynagan bo’lsa, adabiy-tanqidiy maqolalari ham shunchalik katta qimmatga ega. Ammo istibdod zamonida Cho’lpon ijodini o’rganish u yoqda tursin, nomini tilga olish taqiqlangani uchun keng jamoatchilikkina emas, hatto adabiyotshunos mutaxassislar ham cho’lpon ijodining bu qirradi to’g’risida g’oyat mavhum va tumanli tasavvurga ega edilar. Faqat so’nggi yillardagina Sh. Turdiyev, N. Karimov, B. Do’stqorayev, M. Olimov, U. Dolimov, Z. Eshonova, D. Qurbonov, U. Sultonov kabi adabiyotshunoslarning harakati bilan Cho’lponning inqilabdan oldin va keyin chop etilgan, hozir esa topilishi amri mahol bo’lib qolgan jurnallar va gazetalarda sochilib yotgan adabiy-tanqidiy asarlari ilmiy muomalaga kira boshladi. Surhandaryolik yosh cho’lponshunos N. Yo’ldoshev esa Cho’lpon hayoti va ijodiga doir bibliografiya e’lon qilib, unda birinchi marta Cho’lpon maqolalarining ro’yxatini berdi. Bibliografiyada ko’rsatilishicha, shoirning 1914-1937 yillar mobaynida chop etilgan adabiy-tanqidiy maqolalari hozircha 63 ta ekan. Izlanishlar davom ettirilsa, bu raqamning ko’payishi turgan gap.

XX asrda O’rta Osiyoda yetishib chiqqan ijodkorlar orasida eng saralaridan biri, eng mumtozi Abdurauf Fitratdir desam xato bo’lmasa kerak. Shoir, adib, dramaturg, muarrix, munaqqid, adabiyotshunos, tilshunos, san’atshunos, mutarjim, mutafakkir-faylasuf, jamoat arbobi, siyosatchi, pedagog- bir o’zida shuncha sifatlarni jam etgan Fitrat madaniyatimiz rivojida o’chmas iz qoldirdi. Biroq gap ijodkor bilimlarining qomusiyligi-yu, shaxsiyatning serqirraligida emas. Muhimi shundaki, Fitrat Vatanini ulug’ bir muhabbat bilan sevardi va shu muhabbat uning

butun faoliyatini yorqin nur bilan yoritib turardi. Fitrat ham Mahmudxoja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lponlar kabi Vatanini erkin va mustaqil ko'rmoqni istar, xalqning o'z taqdiriga o'zi xo'jayin bo'lgan holda har qanday kishanlar va bo'yinturuqlardan xalos bo'lib yashamog'ini orzu qilardi. Shuning uchun u hech narsadan hayqmay mustamlakachilarga nafratini hayqirib aytdi. Zolimlarni la'natladi, xalqni uyg'onishga undadi, jaholat va nodonlik, bid'at va xurofot iskanjalaridan qutulib, ochiq ko'z, hur fikr bilan yashashga, o'zligini tanishga chaqirdi. Shu erksevarligi, zulmatga dushmanligi, ziyoga intilishi, elu yurt taqdirini yaxshilash imkoniyatlarini tinmay izlagani Fitratni madaniyatimizning eng yorqinsiyimolaridan biriga aylantirdi, uning shuhratini qator Sharq va G'arb mamlakatlariga taratdi. Biroq ayni shu sifatlari tufayli Fitrat bizning "baxtli" zamonamizga sig'madi. Stalin barpo etgan qizil imperiyaga mustaqil fikrlaydigan erksevar isyonkorlar emas, hamma narsani "ma'qul" deb ko'rganini ko'rmaslikka oladigan xushomadgo'ylar kerak edi.

A D A B I Y O T L A R:

1. Sharqfiddinov Ozod. Cho'lponni anglash. — T.: «Yozuvchi», 1994,46-bet. Adabiyot. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 11-sinfi uchun darslik. — T.: «O'qituvchi». 2004.125-bet
2. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. — T.: «O'qituvchi». 1999, 128-bet.
3. Xo'jayev F. Tanlangan asarlar
4. Rahmonov Mamajon. Fitrat dramaturgiyasi va uning sahna tarixi. — «San'at» jurnali, 1991-yil4-son, 13-bet.
5. Boltaboyev «Abdurauf Fitrat» risolasidan olindi. —T.: 1992,32-bet.
6. Abdurauf Fitrat. "Najot". "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi, T. 2001. 13-14-betlar.
7. [Abdurauf Fitrat. Yurt qayg'usi. Turkum she'rlar](#)
8. Fitrat. She'rlar. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1987 yil 11 dekabr.
9. Fitrat. She'rlar. «Sharq yulduzi», 1991, 6-son.
10. Fitrat. Hind ixtilolchilari. «Sharq yulduzi», 1990, 4-son.
11. Fitrat. Turkistonda ruslar. «Sharq yulduzi», 1992.
12. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi tarixi. T.: «Fan», 1993.
13. Fitrat. Tanlangan asarlar, Ikki jildlik. T.: «Ma'naviyat», 2001.
14. Fitrat. Chin sevis. T.: «Adabiyot va san'at», 1996.
15. Fitrat. Najot yo'li. T.: «Sharq», 2002.
16. Fitrat. She'rlar. «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1987 yil 11 dekabr.
17. Fitrat. She'rlar. «Sharq yulduzi», 1991, 6-son.
18. Fitrat. Hind ixtilolchilari. «Sharq yulduzi», 1990, 4-son.
19. Fitrat. Turkistonda ruslar. «Sharq yulduzi», 1992.
20. Fitrat. O'zbek klassik musikasi tarixi. T.: «Fan», 1993.
21. Fitrat. Tanlangan asarlar, Ikki jildlik. T.: «Ma'naviyat», 2001.

22. Fitrat. Chin sevish. T.: «Adabiyot va san`at», 1996.
23. Fitrat. Najot yo`li. T.: «Sharq», 2002.
24. B. Qosimov «Fitrat» monografiyasi. 1994 yil
25. H. Boltaboev «20 asr o`zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi» T., 1996,
26. G`aniev «Fitrat dramalari poetikasi» mavzusida doktorlik dissertatsiyasi T., 1998
27. Qosimov B. . Maslakdoshlar. T.: «Sharq», 1994.
28. Qosimov B. Fitrat (chizgilar). Sharq yulduzi, 1992, 10-son, 170-bet.
29. Qosimov B. Inson fojealari. O`zbekiston adabiyoti va san`ati, 1990 yil 6 aprel.
30. Qosimov B. Fitrat. O`zbekiston adabiyoti va san`ati, 1991, 10-son.
31. G`aniev. Fitratning tragediya yaratish mahorati. T., 1994.
32. Milliy uyg`onish va o`zbek filologiyasi masalalari. T.: Universitet, 1993.
33. Boltaboev H. Qatag`on qilingan ilm. T.: «Xazina», 1996.
34. Boltaboev H. Noma`lum Fitrat. Yoshlik, 1990, 34-38-betlar.
35. Boltaboev H. Fitratning ilmiy merosi. T.: «Fan», 1996.
36. Boltaboev H. Fitrat — adabiyotshunos. T.: «Yozuvchi», 1996.
37. Boltaboev H. Boburshoh Fitrat talqinida. O`zbekiston adabiyoti va san`ati, 1993, 2-son,
38. Boltaboev H. 20 asr boshlari o`zbek adabiyotshunosligi va Aitratning ilmiy merosi. f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. aftoreferati. T.: 1996.
39. Erkinov S. Fitrat-navoiyshunos. O`zbek tili va adabiyoti, 1990, 3-son, 3-bet.
40. Fitrat. She`rlar. «O`zbekiston adabiyoti va san`ati», 1987 yil 11 dekabr.
41. Fitrat. She`rlar. «Sharq yulduzi», 1991, 6-son.
42. Fitrat. Hind ixtilolchilari. «Sharq yulduzi», 1990, 4-son.
43. Fitrat. Turkistonda ruslar. «Sharq yulduzi», 1992.

44. Fitrat. O'zbek klassik musiqasi tarixi. T.: «Fan», 1993.
45. Fitrat. Tanlangan asarlar, Ikki jildlik. T.: «Ma'naviyat», 2001.
46. Fitrat. Chin sevish. T.: «Adabiyot va san'at», 1996.
47. Fitrat. Najot yo'li. T.: «Sharq», 2002.
48. Milliy uyg'onish va o'zbek filologiyasi masalalari. T.: Universitet, 1993.
49. Boltaboev H. Qatag'on qilingan ilm. T.: «Xazina», 1996.
50. Boltaboev H. Noma'lum Fitrat. Yoshlik, 1990, 34-38-betlar.
51. Boltaboev H. Fitratning ilmiy merosi. T.: «Fan», 1996.
52. Boltaboev H. Fitrat — adabiyotshunos. T.: «Yozuvchi», 1996.
53. Boltaboev H. Boburshoh Fitrat talqinida. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1993, 2-son, 15-bet.
54. Boltaboev H. 20 asr boshlari o'zbek adabiyotshunosligi va Fitratning ilmiy merosi. f.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. aftoreferati. T.: 1996.
55. Qosimov B. Fitrat (chizgilar). Sharq yulduzi, 1992, 10-son, 170-bet.
56. Qosimov B. Inson fojealari. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1990 yil 6 aprel.
57. Qosimov B. Fitrat. O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1991, 10-son.
58. Erkinov S. Fitrat-navoiyshunos. O'zbek tili va adabiyoti, 1990, 3-son, 3-bet.
59. Aliyev A., Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat, T., 1984; Fidoyilar, T., 1990;
60. Qosimov B., Maslakdoshlar. Behbudiy. Ajziy. Fitrat, T., 1994;
61. G'aniyev I., Fitrat, e'tiqod, ijod, T., 1994;
62. G'aniyev I., Fitratshunoslik, Buxoro, 1994;
63. Boltaboyev H., Abdurauf Fitrat, T., 1996;
64. Boltaboyev H., Fitratning ilmiy merosi, T., 1996;
65. Qurbonova M., Fitrat — tilshunos, T., 1996;
66. Ergasheva M., Abdurauf Fitrat — buyuk huquqshunos, T., 2001;
67. Kosim o v B., Milliy uyg'onish, T., 2002.

68. Cho'lpon. "Yana oldim sozimni". Tashkent, Literature and art, 1991.
69. Cho'lpon. "Adabiyot nadur". Tashkent, Cho'lpon, 1994.
70. Abdulhamid Cho'lpon. "Go'zal Turkiston". Tashkent, Ma'naviyat, 1997.
71. Cho'lpon. "Asarlar", Uch jildlik. Tashkent, Xazina, 1997-1998.
72. Sharafiddinov O. "Cho'lpon". Tashkent, Cho'lpon, 1991.
73. Sharafiddinov O. "Cho'lponni anglash". Tashkent, Xazina, 1994.
74. Karimov N. "Cho'lpon". Tashkent, Fan, 1991.
75. Cho'lponning badiiy olami (to'plam). Tashkent, Fan, 1994.

WWW sahifaalr

<http://turonlib.uz/index.php?page=chitateli/fitrat>

<http://forum.ziyouz.com/index.php?topic=4600.0>

[http://kutubxona.com/Abdurauf_Fitrat._Yurt_qayg'usi_\(ona_bilan](http://kutubxona.com/Abdurauf_Fitrat._Yurt_qayg'usi_(ona_bilan)

https://uz.wikipedia.org/wiki/Abdurauf_Fitrat